

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAFISA RAXMANOVA, AROFATOY MUYDINOVA

MATNSHUNOSLIK

(O'quv qo'llanma)

Ta'limganligi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2023

UO'K
KBK

Raxmanova Nafisa, Muydinova Arofatoy. Matnshunoslik [Matn]: O'quv qo'llanma. – Toshkent. Zebo Print – 2023.- 140 bet.

Mas'ul muharrir:

Adiba Rahmatova - filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Taqrizchilar:

Sirdaryoxon O'tanova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Qodirjon Mo'ydinov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mazkur o'quv qo'llanma respublika oliy ta'lim muassasalari o'zbek tili va adabiyotini o`qitish yo`nalishidagi talabalar uchun (Ta'lim yo`nalishi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti) mo`ljallangan bo`lib, unda matnshunoslikka oid dastlabki bilimlar majmuasi, qo`lyozma manbalarni tavsif va tasnif qilish, matn tuzishning asosiy prinsiplari, shakllari va uslubiy yo'l-yo`riqlari haqida ma'lumotlar jamlangan.

O'quv qo'llanma filologiya fakulteti talabalari, bo`lg'usi matnshunoslar va qo`lyozma merosimiz bilan qiziquvchilar uchun mo`ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil, 17-iyuldagи 314-sonli buyrug`iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin ilgari o`rganish taqiqlangan manbalarni tadqiq etish uchun keng imkoniyat paydo bo`ldi. Ularni ilmiy-tadqiqot doirasiga kiritib, olingen natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish adabiyot ilmining, xususan, manbashunoslik va matnshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ`ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorida belgilanganidek: “...tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o`rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo`shgan beqiyos hissasini targ`ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma`naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish” yechimini kutayotgan muammolardandir.

Mana shunday ustuvor vazifalarni bajarishni maqsad qilib tuzilgan mazkur o`quv qo`lanmadan matnshunoslik tarixi, matn tuzish tamoyillari, matn turlari, matnga turli usullarda yondashish, qo`lyozma va toshbosma nashrlar ustida ishlash singari mavzular o`rin olgan. Har bir mavzuga oid tayanch so`z va iboralar, mavzuga oid savol va topshiriqlar hamda matnshunoslikka oid atamalarning izohli lug`ati berilgan. Ma`ruza matnlarini o`zlashtirishda talaba uchun qulaylik va ko`nikmalar hosil qilish maqsadida fan doirasida o`tkaziladigan seminar mashg`ulotlari uchun ilova qismi ham o`quv qo`llanmada aks etgan.

O`quv qo`llanmada yozma manbalarni qidirib topish, tartibga solish va keyingi ilmiy foydalanish uchun tayyorlash nazariyasi hamda uslubi yuzasidan ma'lumot berilgan. Shuningdek, talabalarning adabiy asarlar va tarixiy hujjatlar matni tarixi va uning manbalarini o`rganish, qo`lyozma nuxsalarni farqlay olish ko`nikmasini egallashlariga qaratilgan.

Mazkur o`quv qo`llanmada matnshunoslikka oid dastlabki

bilimlar majmuasi, qo`lyozma manbalarni tavsif va tasnif qilish, matn tuzishning asosiy prinsiplari, shakllari va uslubiy yo`l- yo`riqlari haqida ma'lumotlar jamlangan. Shundan kelib chiqib, filologiya yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalarni bu sohaning amaliy va nazariy jihatlaridan xabardor etish maqsad qilib qo`yilgan.

1-mavzu: Manba va matn. Matn tarixi. Matn talqini tadqiqi.

Reja:

- 1. Matnshunoslik fanining obyekti va predmeti.*
- 2. Manba va matn.*
- 3. Matn tarixi.*
- 4. Matn talqini tadqiqi.*

Tayanch so'z va iboralar: matnshunoslik, manbashunoslik, manba, matn, tekst, matn tarixi.

Manbashunoslik va matnshunoslikda *matn* atamasi keng qamrovli tushunchadir. **Matn** deganda muallif ijodi mahsuli bo`lgan fikr va g`oyaning yozuvdagi in`ikosi (tekst) tushuniladi. **Manba** esa yozma yodgorlikka nisbatan qo`llanadi. Umumqabul qilingan taomilga ko`ra esa yaxlit bir asar, qo`lyozma nusxa, hatto bir parcha yozuv ham manba yoki matn deb yuritiladi. Ana shunday yozma yodgorliklar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchilar manbashunos yoki matnshunos deb ataladi.

Qosimjon Sodiqov shunday keltiradi: “Manbashunoslik (*ruschada ictotechnikovedeniye*) adabiyot, tarix va boshqa fanlarning yozma manbalarini, o`tmishdan qolgan asarlarini o`rganuvchi keng ko`lamli yordamchi sohasidir. Uning adabiy manbashunoslik, tarix manbashunosligi, fan sohasi manbashunosligi singari yo`nalishlari bor”¹.

Adabiy manbashunoslik adabiyot tarixining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarni yoki muallifi noma'lum badiiy asarning turli davrlarda ko`chirilgan qo`lyozma, toshbosma nusxalarini, xalq og`zaki ijodi namunalarini tanqidiy o`rganadi.

Tarixiy manbashunoslik tarix fani, o`tmishda yaratilgan tarix kitoblari, yilnomalar va rasmiy hujjatlarni manba sifatida tanqidiy o`rganadi.

Ilmiy asarlar manbashunosligi fanning biror sohasiga tegishli qo`lyozmalarni tadqiq etadi (matematika, tabobat,

¹ Содиков Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. -Тошкент: Шарқшунослик институти, 2017.3-4 бетлар.

falsafa, geologiya, tilshunoslik, musiqashunoslik,...) Shuningdek, asarning ilmiy ahamiyati, tarjimalari, tahlili bilan shug`ullanadi. O`tmishda yaratilgan, lekin unutilgan ilmiy manbalarni zamonaviy fanga olib kiradi.

Matnshunoslik (tekstlogiya) manbashunoslik kabi matn tarixi ustida ish olib boradi, ammo unga qo`shimcha ravishda matnning implitsit va eksplitsit ma`nolari tahlili va muallif talqini asoslarini, lingvistik va stilistik unsurlarini ham kompleks o`rganadi.

Matnshunoslik filologiya fanining adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy

hujjatlar matnnini ilmiy-tanqidiy o`rganuvchi va nashrga tayyorlovchi sohasidir. Matnshunoslik kursining maqsadi – arabiyl, forsiy, turkiy adabiy merosni qo`lyozmalarda o`qish, ular ustida ishslashga o`rgatish.

Maqsadga yetish vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) arab yozuvi va uning turlarini yaxshi bilish;
- 2) mumtoz adabiyot xususiyatlarini bilish;
- 3) o`rta asrlar til xususiyatini bilish;
- 4) sohaga oid tegishli terminologiyalarni o`zlashtirish.²

Matnshunoslik ikki qismga bo`linadi:

- 1) nazariy matnshunoslik;
- 2) amaliy matnshunoslik.

Nazariy matnshunoslik qo`lyozma matnlarning davrlar va asrlar osha o`zgarib borish xususiyatlarini o`rganadi, matn shakllari va ularni tuzish prinsiplarini, nashr turlariga qo`yiladigan talablarni ishlab chiqadi, yig`ilgan muayyan tajribalarini umumlashtiradi va matnshunoslik rivojini ta'minlashga qaratilgan dolzarb masalalarni o`rganadi.

Amaliy matnshunoslik muayyan asar qo`lyozma nusxalari asosida maqsadli tanlangan matn shaklini yaratadi (yig`ma-qiyosiyl, ilmiy-tanqidiy, ilmiy-ommaviy) va nashrga tayyorlash bilan shug`ullanadi.

Matnlar qadimiyl va zamonaviy bo`lganidek, matnshunoslik fani ham qadimgi matnshunoslik, o`rta asrlar

² Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012,6-bet.

yozma yodgorliklari matnshunosligi va yangi davr asarlari matnshunosligiga bo`lib o`rganiladi. Bu sohalarga aloqador ixtisosliklar ikkiga bo`linadi: manbashunos-matnchi va noshir-matnchi (matnchi-muharrir) ixtisosliklari. Manbashunos-matnshunos o`z ish faoliyatida adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix va istiografiyaga, noshirlikka oid barcha tadqiq usullaridan foydalanadi. Qo`lyozma nusxaning matn xususiyatlaridan tortib nashr ko`rinishidagi barcha yutuq va kamchiliklari haqida tasavvur uyg`otuvchi tadqiqotni amalga oshiradi. Matn taqdiri, saqlanish darajasi, nashr bezaklari, matnning tavsifiy belgilari uning o`rganish obyekti hisoblanadi, chunki manbashunoslik va matnshunoslikda qo`llanadigan matn tushunchasi doirasiga matn taqdiri, saqlanish darajasi, nashr bezaklari va tavsifiy belgilarini o`rganish kiradi. Noshir-matnchilar esa asosan amaliy ishlar bilan shug`ullanadilar.

Matn quyidagi sohalar bilan chambarchas bog`liq:

1) *editsiya*- hujjatlari va mumtoz matnlarning ilmiy nashrini amalga oshirish;

2) *arxeografiya* – yozma manbalarni qidirib topish, birlamchi ishlov berish,

ilmiy muomalaga kiritish;

3) *germenevtika* – qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash;

4) *ekzegetika* – diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etish;

5) *paleografiya* – qo`lyozma asarlarning qog`ozi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshirish;

6) *diplomatika* – farmon, rasmiy yozishmalar, huquqiy akt va hujjatlarni o`rganish va tahlil qilish;

7) *geraldika* – gerblar, nishon, emblemalarining ma`nomazmunini, tuzilishini o`rganish;

8) *sfragistika*- turli muhurlar va ulardagagi yozuvlarni tekshirish;

9) *epigrafika* – tosh, metall, suyak va boshqa qattiq jismlar ustiga yozilgan qadimgi matnlarni o`rganish;

10) *numizmatika* – tangalar tarixi, ularning shakli, yozuvi,

zarb etilgan joyi va vaqtini tekshirish;

11) *metrologiya* -o`lchovlar tizimi, pul birliklari, turli hisoblar, yil hisobi va taqvimlarni o`rganadi.

Matnshunoslik tarixiy va ilmiy manbashunoslik predmeti va vazifalarini ham o`z vazifasi deb bilgan holda, qo`sishimcha ravishda muallif dastxatini aniqlash, matnda aks etgan davr ruhi, muallifning g`oyaviy (subyektiv va obyektiv) va badiiy mahorati darajasini yoritish, uning matn tahriri ustida ishlash mahoratini ohib berish, matnning lingvistik va adabiy tahlilini amalga oshirish, matnning matnosti ma`nolari, tarjima matn bo`ladigan bo`lsa, uning ekvivalentlik darajasini tekshirish, matnning yaratilish davridan to hozirgi kungacha ko`chirilgan nusxalaridagi lingvistik o`zgarishlar, matn variantlarining paydo bo`lish sabablarini aniqlash; muallifning variant saqlanib qolmagan taqdirda, asarning dastlabki ko`rinishiga yaqin matnni tuzishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Shu jihatdan, matnshunoslik fani uch tarkibiy qismga bo`linadi:

- 1) matn tarixini o`rganish;
- 2) matn talqini tadqiqi;
- 3) matn tuzish.

Matn tarixi muayyan matn haqidagi barcha ma'lumotlar yig`indisidir. U asarning shakl va mazmuni haqida to`liq ma'lumot beradi, matnga oid bevosita va bilvosita ma'lumotlarning barchasini qamrab oladi. Nashr tushunchasi qadimgi qo`lyozmalarni ko`chirish va tarqatish kabi jarayonlar bilan uzviy bog`liqdir. Matn tarixini o`rganish qo`lyozma asarning mavjud nusxalarini o`zaro qiyosiy tekshirishdan boshlanadi. Matnlar to`liq - to`liq bo`lmagan, nuqsonli - nuqsonsiz, tuzatilgan yoki tugatilmagan ko`rinishlarda uchraydi. Asarning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi. Bevosita belgilarga qo`lyozma asarning yaratilish va ko`chirilish sanalari, debocha, kotib nomi yoki uning qaydlari kabi matnshunoslik uchun ahamiyatli tavsifiy mezonlar kiradi. Bilvosita belgilarga ushbu asar va uning muallifi haqida turli asarlar, tazkiralarda berilgan ma'lumotlar, shuningdek, qo`lyozma nusxalarni qiyoslash

natijasida olinadigan tekstologik natijalar kiradi. Tayanch matn sifatida eng qadimiy va ko`p ko`chirilgan nusxa olinadi. Ilmiytanqidiy matn yaratish uchun qadimiy nusxalarni solishtirish va matn tarixini tiklash orqali tanlangan nusxa olinadi. Yig`ma-qiyosiy matnni nashr qilish uchun esa asosiy nusxa sifatida eng to`liq va matn tarixini o`rganish orqali ishonchli deb topilgan nusxa olinadi.

Matn talqini tadqiqi qo`lyozma asarning adabiy manba sifatida qimmatini baholash, badiiy asar matni haqida to`liq tasavvur paydo bo`lishida obyektiv asos bo`lib xizmat qiladi. Qo`lyozma she`riy to`plam bo`lsa, matnshunos ikki ishni amalgalash oshiradi: 1) qo`lyozmaning tarixi va taqdirini o`rganish (qo`lyozmaning tavsifiy belgilari, tuzilishi, saqlanish holati, umumiyligi tekstologik belgilari); 2) asarning matnni tahlil qilish (shoirning poetik mahorati va muallifning g`oyaviy dunyoqarashini ochib berish, agar asar diniy yoki didaktik mavzuda bo`lsa, muallif pozitsiyasini, o`z davridagi ijtimoiy muammolarga bo`lgan munosabatini tadqiq etish). Chunki manbashunoslarni ko`proq tarixiy faktlar qiziqtirsa, matnshunoslarni matn tarixi, matn zamirida ko`zda tutilayotgan maqsad, talqin mohiyatini anglashga bo`lgan ehtiyoj matnni chuqur tahlil etishga majbur qiladi. Buni quyidagi misolda ko`rish mumkin: Is'hoq Bog`istoniyning "Tazkirayı qalandaron" tazkirasida Boborahim Mashrabning 1710 - yilda Qabodiyonda So`fi Olloyor bilan uchrashuvi tasvirlangan. Tarixchi manbashunos N. Norqulov tarixiy faktlarga asoslanib, uchrashuvning 1722 -yilda bo`lganligini aniqlagan, shoirning o`z vatanidan uzoqdaligini siyosiy jarayonlarga bog`lab tushuntirgan. Matnshunos uchun esa suhbat mazmuni muhim. Ikki buyuk siymoning biri shariat qonun-qoidalaiga qattiq amal qiluvchi va targ`ib etuvchi shaxs bo`lsa, ikkinchisi zamonaviy islam shariatini ikkinchi darajali deb hisoblab, qalban solih banda bo`lishni targ`ib qilgan malomatiy so`fiydir. Matnshunos shularga asoslanib davr ijtimoiy hayotiga baho beradi. Misoldan ko`rinib turibdiki, manbashunos uchun muhim bo`lmagan jihatlar matnshunos uchun ahamiyatlidir.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Matn nima?*
- 2. Manba deb nimaga aytildi?*
- 3. Manbashunoslikning vazifalari, o'rghanish obyekti nimalardan iborat?*
- 4. Matnshunoslikning vazifalari, o'rghanish obyekti nimalardan iborat?*
- 5. Matn tarixi nima?*
- 6. Matn talqini tadqiqi nimalarni o'rghanadi?*
- 7. Matn qaysi sohalar bilan bog'liq?*

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko`chirgan xattotlar. – T.: Fan, 1991.
3. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
4. Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.
5. Ziyodov Sh. Markaziy Osiyoda ilk toshbosma kitoblar nashri tarixidan. T.: Sharqshunoslik, 2009 №14.

2-mavzu: Matn tuzish

Reja:

1. *Ilmiy-tanqidiy matn.*
2. *Yig`ma-qiyosiy matn.*
3. *Ilmiy-ommaviy matn.*
4. *Devon. Bayoz. Kashkul (Majmua).*
5. *Tarixiy asar.*

Tayanch so`z va iboralar: nusxalarni saralash, ilmiy-tanqidiy matn, yig`ma-qiyosiy matn, ilmiy-ommaviy matn, devon, bayoz, kashkul (majmua), tarixiy asar, paleografik o`qish, tekstologik o`qish.

Matnshunoslikda matn tuzishning bir necha shakllari qabul qilingan:

1. Ilmiy-tanqidiy matn.
2. Yig`ma-qiyosiy matn.
3. Ilmiy-ommaviy matn.

Odatda qo`lyozma asarlarning matni quyidagi shakllarda bo`ladi: 1.Devon. 2.Bayoz. 3. Kashkul. 4. Tarixiy asar. 5. Ilmiy asar. 6. Masnaviy-doston. 7. Kulliyot.

Ilmiy-tanqidiy matn badiiy asarning nusxalari ko`p bo`lganda amalga oshiriladi. Bu matn tarixini o`rganish asnosida muallif matniga yaqin variantni tuzishdir. Manbashunos-matnchiga qo`yiladigan talablar: 1) asarning fangama'lumbarcha nusxalarini ko'rib chiqishi kerak; 2) nusxalarni saralashi kerak; 3) muallif nusxasi bo`lmasa, asarning qadimiy, nuqsonlardan xoli, ishonchli nusxasi tayanch matn sifatida olinib, boshqa nusxalardan yordamchi nusxa sifatida foydalilanadi. Masalan, adabiyotshunos R. Zohidov So`fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari ilmiy – tanqidiy matnini tuzishda 150 dan ortiq nusxaning umumiyligi va farqli jihatlarini matnshunoslik nuqtayi nazaridan izchil tekshirgan va 25 (15 qo`lyozma, 10 toshbosma) nusxani qiyosiy tahlil obyekti sifatida olgan. Nuqsonlardan xoli nusxa har doim ham tayanch manba bo`la olmaydi. U tajribali xattotning

mahorati tufayli a'lo darajadagi nusxa holiga keltirilgan bo`lishi mumkin. Qadimiy nusxa ham muallif variantini aks ettirmasligi mumkin. Ba'zan ancha keyin yaratilgani asl, muallif variantidan ko`chirilgan nusxa bo`lib chiqishi mumkin.

Matnshunos ishga jalb qilingan nusxalarni qiyosiy o`rganib, tayanch nusxaga solishtirgan holda barcha matniy o`zgarishlarni ilmiy apparatda qayd etib boradi. Tuzilgan ilmiy – tanqidiy matn shaklining yodgorlik yozilgan grafikada nashr qilinishi bunday shakldagi matn tuzishning asosiy prinsiplaridandir.

Yig`ma-qiyosiy matn asar nusxalari kam yoki ishonchli qadimiy qo`lyozma nusxalari mavjud bo`lmagan taqdirda amalga oshiriladi. Bunday matn muallif asari haqida to`liq tasavvur hosil qilish uchun ishlatiladi. Yig`ma -qiyosiy matnni tuzishda mavjud qo`lyozmalar orasidan tayanch, ya`ni asosiy nusxa tanlash katta ahamiyatga ega. Tayanch nusxa sifatida imkon qadar to`liq, boshqalarga qaraganda tashqi nuqsonlari kam, xatolari, noaniq joylari oz nusxa tanlanadi.

Tarixda yig`ma-qiyosiy matnni tuzish uchun muallifga nisbat berilgan barcha ijod namunalari kiritilgan holatlarni uchratish mumkin. Masalam, A.Yassaviy hikmatlari, Mashrab g'azallari to`plamlarini misol qilib keltirish mumkin. Ularning ba`zilari aslida muallifga tegishli bo`lmagan holatlar bo`ladi yoki keyingi davrlarda tadqiqotchi tomonidan muayyan asarning o`ziga ma'lum qo`lyozmalarinigina qiyosan o`rganish, ayrim holatlarda esa, ulardagi barcha tarkibiy unsurlarni birlashtirish orqali yaxlit matn yaratish hollari kuzatiladi. Ularni ilmiy tanqidiy matn deb atab bo`lmaydi. Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlangan "Sab'ai sayyor" dostoni matni nashrda ilmiy - tanqidiy deb ko`rsatilgan. A.Rustamovning kuzatishicha, ushbu matnning boshidan ming bayt tayanch qo`lyozma bilan solishtirilganida qirqdan ortiq xato aniqlangan.

"Mahbub ul - qulub"ning A.N.Kononov tomonidan tayyorlangan nashri yig`ma - qiyosiy matnga yaxshi misol bo`ladi. 1948-yili A.N.Kononov " Mahbub ul - qulub" asari matnnini Leningrad hamda Toshkent qo`lyozmalar fondida saqlanadigan 8 ta qo`lyozma nusxa asosida tiklagan. Ularning

eng qadimiysi 16 - asr boshlarida ko`chirilgan Leningrad nusxasi bo`lib, yig`ma – qiyosiy matn uchun tayanch nusxa vazifasini bajargan. Oradagi farqlar ilmiy apparatda ko`rsatib borilgan. Olim o`ziga ma'lum manbalar bilan kifoyalangan. Matnshunos yig`ma-qiyosiy matnni tayyorlashda o`zi qo`lga kiritgan yoki imkoniyati bo`lgan manbalardan foydalanadi. Shuning uchun u o`zi tuzgan matnni “svodniy” – yig`ma matn deb atagan.

Yig`ma-qiyosiy matn tuzishning muhim prinsipi asarning dastlabki to`liq matnnini tiklashdir. Yig`ma-qiyosiy matnlar asarning ilmiy-tanqidiy matnnini tayyorlash uchun ilmiy zamin yaratadi, lekin ilmiy-tanqidiy matn tuzilgandan so`ng o`z ahamiyatini yo`qotadi.

Yig`ma-qiyosiy matn tuzishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

- 1) qo`lyozmalar va jalb etilgan nusxalarning tavsifini keltirish;
- 2) barcha qo`lyozma nusxalarni shartli belgilar bilan belgilash;
- 3) xat turi va matn strukturasini saqlash;
- 4) asarning boshqa nusxalari bo`lmagan taqdirda nisbatan to`liq nusxani tayanch matn sifatida qabul qilish;
- 5) asosiy matnda yordamchi nusxalarni shartli belgilar bilan nomlash;
- 6) matniy tafovutlarni jadvallarda ko`rsatish;
- 7) barcha jalb etilgan nusxalardagi matnlarni umumlashtirish.

Ilmiy-ommaviy matn yagona, yangi topilgan asarni e`lon qilish yoki ilmiy-tanqidiy matn asosida matnning keng o`quvchilar davrasi talablarini nazarda tutuvchi akademik nashrni tayyorlash uchun tuziladi. Ilmiy-ommaviy matnlarda qo`llanadigan tekstologik tamoyillarga sharh, izoh, lug`atlar ilova qilish, iste'moldagi yozuvga transliteratsiya qilish, she'riy matnni nasriy bayoni bilan birga chop etish, matn to`liq tushunarli bo`lishi uchun tarjimalarni ham keltirish, zarurat tug`ilganda qisqartirish, soddalashtirishga ruxsat beriladi.

Masalan, “Xamsa” dostonlarining ommaviy nashrlari

1939 - yildan boshlangan. 1939-1940-yillarda "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" dostonlari alohida-alohida bosilib chiqdi. Bulardan birinchi doston sharh va izohlar bilan, qolganlari nasriy bayoni bilan birga nashr qilindi. "Farhod va Shirin" ning G`afur G`ulom tomonidan tayyorlangan ilmiy-ommaviy nashrida asarning kirilcha transliteratsiyasi va nasriy bayoni yonma-yon berildi (1956-yil nashri). 1957-yildan boshlab dostonlarning nasriy ifodali nashrlari qayta bosildi. Doston sujetiga aloqador bo`lmagan boblar qisqartirldi. Sadriddin Ayniy tayyorlagan muxtasar "Xamsa" 1940-1947 yillarda ikki marta nashr etildi. A. Navoiy asarlarining ommaviy nashr qilinishida Amin Umariy, Husaynzoda, A. Qayumov, Porso Shamsiyev kabi matnshunos olimlarning ham xizmatlari katta.

Devon (*fors."to'plam"*) biror shoir she'rlarining qofiya yoki radiflariga ko`ra alifbo sirasi bilan tartib etilgan to`liq to`plamidir. Devonda g`azallar misradagi oxirgi harflar hisobga olingan holda alifbo bo`yicha joylashtiriladi. Unda arab alifbosi tartibi bo`yicha barcha harflarga tugaydigan g`azallar bo`lishi shart. Bo`lmasa, u devon hisoblanmaydi. Devonga lirik janrlar quyidagi tartibda kiritilgan: g`azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit'a, ruboiy, muammo, lug`z (chiston), tuyuq, fard. Shoir 5-6 xil janrda ijod qilgan bo`lsa, ular asosiy tartibni buzmagan holda birin-ketin joylashtirilgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Garoyib us-sig`ar" devoni g`azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, masnaviy, qit'a va ruboiydan iborat.

Devon tuzish Sharqda shoирning yetuklik belgisi bo`lgan. Devonlar mukammal, oddiy va terma devonlarga bo`linadi. Mukammal devonda maxsus debocha bo`ladi. Lirik turga mansub asarlar muayyan tartibda joylashtiriladi, har bir janrga mansub asarlar radifi tugagan harfga binoan qat'iy alifbo tartibida tiziladi, har bir harf turkumi Hamd, Na't, Munojot bilan boshlanadi.

Bayoz she'rlar to`plami bo`lib, bir necha shoirlarning

asarlarini o`z ichiga oladi. Unda devondagi kabi qat'iy tartibga amal qilinmaydi. Bayoz muayyan she'r janrlari asosida ham tuzilishi mumkin. Masalan, "Bayozi muxammasot", "Bayozi ash'or" kabi. Xorazmda Feruzshohning farmoniga ko`ra janriy tarkibiga ko`ra bir-biridan farq qiluvchi juda ko`p bayozlar tuzilgan. Bayoz bir shoir she'rlaridan tashkil topishi mumkin yoki unga bir necha shoirlarning she'rlaridan namunalar kiritilgan bo`ladi. Bayozlar devon tuzmagan shoirlar ijodiy merosini toplashda, noma'lum shoirlarni aniqlash va ijodiy mahoratini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Qo`lyozma bayozlar quyidagicha tuzilishga ega bo`ladi:

- 1) sarbayoz (muqaddima);
- 2) lirk shew'rlardan namunalar;
- 3) xotima - kolofon;
- 4) fixrist (she'rlari keltirilgan shoirlarning nomi).

Bayozlarning devondan farqli umumiylar belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) shoirlar haqida ma'lumot berilmaydi;
- 2) lirk shew'rlarda bitilgan she'rlardan tashkil topadi;
- 3) bob va bo`limlarga bo`linmaydi;
- 4) bir necha shoirlarning she'rlaridan namunalar keltiriladi, sarlavhalar qizil yoki qalin qora rangda yoziladi;
- 5) bayoz bir shoir she'rlaridan ham tashkil topadi;
- 6) bir shoirning she'rlari bayozning bir necha joyida takrorlanishi mumkin;
- 7) turli asrlarda ijod qilgan shoirlarning ijodidan namunalar berilishi mumkin;
- 8) namunalar ketma-ket keltirilsa, bиринчи namuna ustiga she'r janri va shoir nomi, agar muxammas bo`lsa, kimning g`azaliga bog`langani qayd etiladi (*muxammasi faloni dar g`azali faloni*), keyingi namunalar "vallahu ayzan" (yana biri) deb ajratiladi
- 9) she'rlar ustunlarga ajratib yozilishi mumkin³.

Kashkul (Majmua)

Kashkul aslida qalandarlarning o`zlari bilan doimo olib

³ Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019, 40-41-b.

yuradigan va sadaqa yig'adigan idishining nomidir. Unga sadaqalar aralash-quralash solingani tufayli adabiyotda turli she'r, maqol, rivoyat va naqllardan tuzilgan majmua ham kashkul deb atalgan. Ular muayyan tartib va qoidalarga ega emas.

Tarixiy asarlar

Tarixiy asarlar asosan podshohlarning topshirig`iga ko`ra yozilgan. Tarixiy asarlarda voqealar yilma-yil zikrlarga, ya`ni tafsilot ma`nosida keluvchi sarlavhalarga ajratilgan. Sarlavhalar qizil siyohda yozilgan.

Tarixiy asarlar, qoidaga binoan, olamning yaratilishi, Odam Ato va payg`ambarlar tarixidan boshlanadi. So`ng astasekin muqaddaslashtirilgan podshohlarga, kitobni yozishni buyurgan shoh va homiy shaxslarga o`tiladi. Tarixchi o`zidan oldin yozilgan asarlardan o`z kunlarigacha bo`lgan davr tarixini yozishda to`g`ridan to`g`ri ko`chirish orqali foydalanadi. Bu usul fanda "kompilyatsiya", ya`ni o`zlashtirish deyiladi. Ko`p jildli mashhur asarlarning barchasida ushbu usul qo`llangan, shuning uchun fanda faqat muallifning o`zi yashagan davr haqidagi qismi ilmiy ahamiyatga egadir.

Ilmiy asarlar

Ilmiy asarlar badiiy asarlar qo`lyozmalaridan o`zining oddiyligi va bezaklardan xoliligi bilan ajralib turadi. Ayrim chizmalar, raqamlar, grafik tasvirlar jadvallarda beriladi. Matn ichidagi ayrim qaydlarni ta'kidlash lozim bo`lsa, o`sha jumladagi biror so`z yoki iboraning ustiga qizil chiziq tortib qo`yiladi. Sahifa chetidagi bo`shtirish joy, ya`ni hoshiyaga sharhlar yozilishi, lug`at yoki boshqa qaydlar qilinishi, formulalar, chizmalar, rasmlar chizib qo`yilishi mumkin. Hoshiya yozuvlari muallifga yoki shu asarni ko`chirgan xattotga tegishli bo`ladi. Hoshiyada butunlay boshqa asar ham joylashtirilishi mumkin. Masalan, Umar Hayyomning ilmiy asarlari hoshiyasiga ruboiylari yozilgan.

Matnshunoslikda matn tuzishning dastlabki bosqichi **matn ustida ishlashdan** iborat. U, avvalo, qo`lyozma matni bilan tanishuvdan boshlanadi. Bunda qo`lyozma matni,

shunchaki, odatdagи kitobxon ko`zi bilan o`qib chiqiladi. Asar matnini tiklash va nashr etish ishlari matnshunoslar faoliyatida barqarorlashgan umumiy prinsiplar asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunga ko`ra, matnshunos o`zi asos qilib olgan qo`lyozma matnini (tayanch nusxani) ikki bosqichda o`qib chiqadi va ularning har birida tegishli ishlarni amalga oshiradi. Bular *paleografik o`qish* va *tekstologik o`qishlardir*. Paleografik ish chog`ida matnning shakli tiklana boradi, tekstologik o`qishda esa, matnning mazmuni tiklanadi. O`z matnshunoslik tajribasiga ishonib, bu ikki o`qishni birlashtirib bir chekkadan yozib ketaveradigan eng tajribali matnshunos ham ish nashrga borib taqalganda, xato o`tib ketganini payqamay qoladi.

A. Matnni paleografik o`qish chog`ida matnda o`zining mavjudligini bildirib turadigan asosiy tashqi belgilarga e'tibor beriladi. Ya'ni:

-yozuv xarakteriga qarab (nasx, nasta'liq, shikasta, aralash xattotlik yozuvi, oddiy yozuv va h.k.) harflar xususiyati aniqlanadi;

-sarlavhalar chegarasi (to`q siyoh, qizil siyoh, yirik harflar) belgilab olinadi;

-she'riy parchalar chegarasi (nazm, g`azal, qit'a, taxallus) belgilab olinadi;

-misralar chegarasi alomatlariga qarab belgilab chiqiladi;

- boshqa tildagi iqtiboslar, oyatlar, hadislar chegarasi (ustidan chizishlar, asosiy matndan boshqacha xat turida berish yoki diakretik belgili jumlalar), umuman, so`zlar chegarasi puxta belgilab olinadi;

-yozuvi o`chgan, o`chirilgan, noaniq yerlarini e'tiborga olib (qayd etib) o`qib chiqiladi;

- asar mundarijasi shakllantiriladi, kompozisiyasi e'tiborga olinadi.

Matnni paleografik o`qish chog`ida uning yodda tutish lozim bo`lgan qo`shimcha tashqi belgilari quyidagilar:

- matnning turini aniqlash (qo`lyozma, toshbosma; yagona nusxa, ko`p nusxali; hadya qilishga, sotuvga, shaxsiy

foydalinishga mo'ljallangan, buyurtma va h.k.);

- asarning yuzaga kelish davrini aniqlash (muallif qachon yozgan);

- matnning yozilish davrini aniqlash (kotib qachon ko'chirgan);

- kelib chiqish o'rnini aniqlash (qayerda yozilgan, qayerda ko'chirilgan).

Amaliyotda bu yerda sanab o'tilgandan boshqa turdag'i tashqi belgilarga ham duch kelish mumkin. Qo'lyozma matnidagi tashqi belgilarning paleografiyaga oid unsurlar ekanini unutmaslik va ular ham paleografik o'qish chog'ida hisobga olinishi lozim.

B. Tekstologik o'qishda matn sintaksisiga kirib boriladi, ya'ni uning mazmuni tiklanadi:

- zarur o'rnlarda matnning tinish belgilari qo'yiladi. Personaj nutqi, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar hamda boshqa lisoniy hodisalar hozirgi zamon me'yorlariga amal qilgan holda ko'chirib (transliteratsiya) yozib olinadi (Ilmiy-tanqidiy matn va yig'ma-qiyosiy matn nashrlari bundan mustasno);

- matn xatolari, takrorlar, atayin yoki beixtiyor kiritilgan o'zgartirishlar, ularning yuzaga kelishi sabablari aniqlanadi, mo'ljadagi nashr turiga qarab yo ilmiy apparatda aks ettiriladi yoki matnga tuzatish kiritiladi;

- matnning o'qilishi qiyin, buzilgan, tushunarsiz joylarini matnshunos ko'p jihatdan kontekstga suyangan holda asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib, hissiy idrokni ishga solib tuzatishiga to'g'ri keladi (konyektura).

Nihoyat, matn tarixi uchun yig'ilgan barcha ma'lumotlarga asoslanib, matnni bir boshdan tiklashga kirishiladi. Tayyor bo'lgan matn ilmiy yoki ommabop tarzda chop etiladi. Matn tarixi haqidagi ma'lumotlardan esa arxeografik kirish, matn tanqidasi (matniy tafovutlar yuzasidan tadqiqot, matnshunoslik tahlili) yuzaga keladi. Bu ishlarni amalga oshirishda biror band, imkonli bo'laturib, chetlab o'tilmashligi kerak. Aks holda matn «kemtik» bo'lib qoladi.

Matnni to'g'ri o'qiy olshnning asosiy sharti—davr tilini

yaxshi bilishdir. Buning uchun davrning fonetik, morfologik va sintaktik mezonlaridan xabardor bo`lishimiz kerak bo`ladi. O`qish jarayonida davr adabiy uslubi, tarixiy atamalari va h.k.larga ehtiyoj seziladi. Adabiyot tarixi va uning tarixiy masalalariga oid bilimlar majmuasining keng va chuqurligi tayyorlanayotgan matnning ilmiy saviyasiga ta'sir qiladigan asosiy omillardan hisoblanadi.

Matnshunoslik amaliyoti bu prinsiplarning qotib qolgan qoidalar yig`indisi emasligini, ularga yopishib olmaslik kerakligini ko`rsatadi. Ish chog`ida bu prinsiplarga nisbatan istisnoli o`rinlar chiqsa boshlaydi. Bu holda, odatda, o`z qoidalarimizni kiritamiz, chunonchi tayanch nusxa uchun eng qadimiy va eng to`liq nusxa tanlanishi kerak. Sizdagi bunday nusxa o`ta nuqsonli bo`lsa, bunday hollarda uni yordamchi nusxalar qatoriga o`tkazib, tayanch nusxa uchun keyingi asrlarda ko`chirilgan boshqa ishonchliroq nusxani tanlaysiz. Nashrda matndagi arab tilida berilgan parchalarni arabiylar qoldirish, transliteratsiyada berish yoki uni tarjima qilish ishi ham nashr imkoniyatlariga, ham matn tuzuvchiga bog`liq. Arabiy imloda berilgan bo`lsa, ularning ma'nosini sahifa ostidami yoki matn so`ngidami berilishini matnshunos hal qiladi. Bu qoidalarning hammasi nashrning arxeografik kirish (matn tanqidi yoki so`zboshi) qismida zikr etilishi kerak.⁴

Savol va topshiriqlar:

1. Matnshunoslikda matn tuzishning necha shakllari mavjud?
2. Ilmiy-tanqidiy matn tuzish shartlari qanday?
3. Yig`ma-qiyosiy matn qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. Ilmiy-ommaviy matn tayyorlashning shartlarini ayting.
5. Bayoz devondan qaysi belgilariga ko`ra farqlanadi?
6. Kashkul qanday matn?
7. Tarixiy asar yozish talablarini sharhlang.
8. Ilmiy asar matnidagi bitiklar qanday o`rin tutadi?

⁴ Hasaniy M., Habibullayev A. Arabiylar qoldirishining uslublari. – T.:2012.39-41-6etlar.

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent,1956.
2. Alisher Navoiy. Xamsa.Sab'ai sayyor.Ilmiy-tanqidiy matn.
– Toshkent:1956.
3. A.Navai,Vozlyublenniy serdes.Svodniy tekst podgotovil
A.N.Kononov. – M.-L.,1948.
4. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – T.:2019.
5. So`fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. – T:Cho`lpon, 1991, 128
bet.

3-mavzu: Toshbosma nashrlar

Reja:

- 1.Litografiya tarixi.***
- 2. Muhammad Rahimxon II davrida Xiva matbaaachiligi.***
- 3. Toshkentda ochilgan litografik nashriyotlar tarixi.***
- 4. Toshkentlik G'ulom Hasan Orifjonov tashkil qilgan ilk mahalliy matbaa.***

Tayanch so'z va iboralar: *litografiya, mixbosma usul, toshbosma usul, matbaa, xususiy matbaa.*

O`zbek matnshunosligi rivojida XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ochilgan tipo-litografik korxonalarning o`rnini beqiyos bo`ldi. *Litografiya so`zi* yunoncha bo`lib, "lithos"-tosh, "grapho" - yozmoq so`zlaridan olingan. Litografiya usulida kitob tayyorlashni ba`zi olimlar *yassi chop etish* deb yozishadi. Yassi chop etish – matn oldindan qog`oz varag`iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko`chirish usulidir. Markaziy Osiyodagi ilk tipografiya rasman Toshkentda 1868-yili harbiy shtabda tashkil etilgan. Unda asosan Turkiston gubernatorligining rasmiy hujjatlari, buyruq va telegrammalari chop etilgan.

Turkistonda kitob bosishning 2 usuli qo`llandi. Birinchisi, tipografik (mixbosma) usul bo`lib, unda mix shaklidagi metall harflarni qo`lda terish orqali kitob bosilgan. Arab yozuvining nasx yozuvidan foydalanilgan. Ikkinchisi, litografiya (toshbosma) usuli bo`lib, unda dastlabki ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog`ozga ko`chirgan. Bu qog`ozdagi matn toshqolip sirtiga o`tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So`ngra shu toshqolipdan nusxalar olingan. Nasta`liq xatidan foydalanilgan. Birgina A. Navoiyning asarlari 1879-1917 -yillar davomida 70 ga yaqin marta toshbosma usulida chop etilgan.⁵

O`rta Osiyoda toshbosma usulidagi dastlabki matbaa Xivada

⁵ Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko`chirgan xattotlar. -T: Fan, 1991,39-bet.

Muhammad Rahimxon II saroyida tashkil etildi. Uni yuritish uchun Erondan Ibrohim Sulton ismli mutaxassis matbaachi Xiva saroyiga taklif etilgan. Eronda matbaa 1832 – yili paydo bo`lgan edi. Ibrohim Sulton matbaachilik sirlarini mahalliy yoshlardan Otajon Abdalovga o`rgatadi va 1874-yildan boshlab ba`zi hujjatlar toshbosma usulida chop etila boshlaydi. Muhammad Rahimxon II kutubxonalar tashkil etish va qo`lyozmalarini asrash va ko`paytirishga alohida e`tibor qaratgan shoh - shoir edi. Uning 2 ta kutubxonasi bo`lib, biri qishki saroyda, ikkinchisi yozgi qarorgohda - shahar tashqarisidagi Tozabog` saroyida joylashgan edi. Bu kutubxonalarda ixcham fixrist – kataloglar tuzilgan, kitoblarning muqovalariga ularning nomlari yozilgan yorliqlar yopishtirilgan. Fixrist-katalogda jami 914 jild kitob bayoni keltirilgan. Ular 893 asarni tashkil etib, 604 tasi qo`lyozma, 310 jildi toshbosma nusxalardir.⁶

Toshkentdagи birinchi xususiy matbaa – S.I. Laxtin matbaasi hisoblanadi. 1877 - yili ochilgan bu litografik bosmaxonada rus tilidagi kitoblardan tashqari mahalliy tillarda ham kitoblar bositgan. Toshkentda 1888 - yilda O.A. Portsev matbaasi, 1899 - yilda V.M. Ilyin matbaasi tashkil topgan, ularning kitoblari, qog`ozi, muqovasi ancha sifatlil bo`lgan. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Qo`qon, Andijon, Marg`ilon kabi shaharlarda ham matbaachilik rivoj topgan.⁷

XIX asr oxiri - XX asr boshidagi toshbosma nusxa tayyorlash jarayonida olib borilgan amaliy ishlar o`zbek matnshunosligi bilan bevosita bog`liq. Toshbosma nusxa tayyorlash uchun aynan matnshunosning ishini bevosita o`z vazifasi bilan aloqador holda kotib, noshir, muharrir kabilar amalga oshirganlar. Toshbosma nusxa uchun asarni ko`chirayotgan xattot yoki kotib o`z ishiga ilmiy yondashib, qo`l ostidagi matnga tanqidiy qaragan. Qo`lyozmalarini o`rganib ishonchlisini tanlagan, xatolarini aniqlab to`g`rilagan. Matbaachiligidiz tarixini o`rgangan olimlarning e`tirofiga ko`ra, kitoblarning

⁶ Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlodи, 2010.

⁷ Mahmudova R. O`zbekistondagi toshbosma matbaalarda Navoiy asarlarining nashr etilishi tarixidan//Adabiy meros, 1968,-№1,99-bet.

ko`pchiligi filologik bilimga ega savodli, bilimli, arab va fors tilini mukammal egallagan kishilar bo`lishgan. Masalan, toshkentlik shoir, olim, tarjimon va xushnavis xattot Qori Fazlulloh Mirjalol o`g`li Almaiyl “Kalila va Dimna”ni o`zbek tiliga tarjima qilgan, uning asari toshbosmada bir necha marta nashr etilgan.

1909 - yilda o`lkamizda poligrafiya sohasida faoliyat ko`rsatayotgan matbaalar soni qirqdan ziyod bo`lgan, lekin mahalliy millat xalqlarining fikrlarini ona tilida izhor etuvchi, madaniy merosini yorituvchi bosmaxonalar soni barmoq bilan sanarli edi. Ana shulardan biri toshkentlik mahalliy matbaachi G`ulom Hasan Orifjonovning 1907 - yilda ish boshlagan litografiyasi bo`lgan.

G`ulom Hasan Orifjonov 1874 - yilda Toshkentda tug`ilgan. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli tarixiy hujjatlarda Orifjonovni kitobfurush, ba`zi tadqiqotlarda yetuk xattot bo`lgan degan ma'lumotlar uchraydi. O`zbek xalqining ziyoli farzandi millat madaniyatini bir pog`onaga ko`tarish uchun kitoblarni ko`paytirish kerakligini tushunib yetadi va mustaqil matbaa ochishga ko`p bor harakat qiladi. O`sha davrda Chor hukumati mahalliy millat vakillarining noshirlilik yumushlariga bo`lgan qiziqishlarini qo`llab-quvvatlamas edi. Shuning uchun G`ulomjon 1898 - yilda o`z uyida “Muqovaxona ustaxonasi”ni tashkil etadi. Bu ustaxonada eski, muqovasi yirtilgan kitoblar ta'mirlanar; rus zodagonlariga tegishli bosmaxonalarda chop etilgan mahalliy tildagi kitoblar uchun muqovalar tayyorlanar edi.

Muqovasozlik ustaxonasida, sahhoflardan tashqari, xattotlar, lavvoh va musavvirlar ham mehnat qilar edi. Bu kadrlarni G`H. Orifjonov uzoqni ko`zlab, ya`ni bo`lajak toshbosmaxonaga mo`ljallab ishga yollagan edi. U Toshkentda faoliyat ko`rsatayotgan matbaalarning ish tajribalarini chuqr o`rganadi, tahlil qiladi. Noshirlar kitobni chop etishdan oldin Peterburgdagi Bosh nazoratchi qo`mitasining ruxsatini olish uchun majburiy nusxalarni yuborish, yo`llangan kitoblardan biriga Bosh nazoratchining ruxsat raqami va muhri bosilgandan so`ng asar ustida ish boshlash lozimligini

yaxshi bilishgan. Bunday rasmiy ruxsatnomani olish uchun kamida bir yarim – ikki yil vaqt sarflanar edi. 1906-yilning avgust oyida Toshkentning Kallaxona mahallasida istiqomat qiladigan G`H. Orifjonov toshbosmaxona ochishga ruxsat so`rab Turkiston general-gubernatoriga iltimosnoma bilan chiqadi. O`lka gubernatorining rasmiy o`tinchiga muvofiq 1907 - yilning 28 -iyulida, Peterburgdagi Matbuot ishlari bo`yicha boshqarmaning toshbosma ochishga ruxsat bergen rasmiy hujjatiga binoan, G`ulom Hasan o`z hovlisida litografiya ochadi⁸. Savdogar tog`asi Qosimboy hoji bilan hamkorlikda Moskvadan 700 rublga dastgoh oldiradi, keyinchalik faoliyatini kengaytirish uchun Leypsigdan “Kenig Bauer” va “Karl Krauze” firmalaridan qo`shimcha bosma uskunalarini sotib oladi. Toshkentda faoliyat ko`rsatayotgan o`ndan ortiq bosmaxona va tipo-litografiyalar- ning xo`jayinlari Osip Alekseyevich Portsev (1888 - yil), Semyon Ivanovich Laxtin (1877 - yil), Viktor Fyodorovich Postuxov (1876 - yil), Vasiliy Mefodiyevich Ilyin (1899 - yil), Pavel Dementyevich Nemtinov (1901 - yil) va akauka Kamenskiylar bilan yaqin aloqada bo`ladi.

G`ulom Hasan Orifjonov o`z toshbosmaxonasida 1908-1912 - yillarda “Shohnomayi Firdavsiy”, A.Navoyning “Devon”i, Muqimiyning tanlangan she`rlar to`plami, Fuzuliyning “G`azaliyot”i, Hofiz Sheroziyning devoni, Mashrabning “Mabdayi nur” asari, o`zbek xalq og`zaki ijodi namunalari: “Nasriddin Afandi”(1908-1910), “Malikayi Dilorom”(1912), “Go`ro`g`li Sulton”, “Gulfarah”, “Tohir va Zuhra” kabi yigirmaga yaqin nomda kitoblarni nashrdan chiqaradi, jadid adiblar bilan hamkorlik qilib, o`quv qo`llanmalarini qayta-qayta nashrdan chiqaradi. Shunisi e'tiborliki, 1911 - yilda “G`ulomiya” bosmaxonasida “Robinzon hikoyasi” (“Ro`mon”) nomli kitob bosilib chiqqan. Daniel Defoning mashhur asarini rus tilidan Muhammad Fozilbek qisqartirib tarjima qilgan.

Dastlab Orifjonov toshbosmaxonasida 12 kishi ishlagan. Toshbosmaning birinchi mutaxassislari bo`lgan Danilin va Vasilyevlar kelishgach, bosma mashinalarga avval 25,

⁸ Boboxonov A.O`zbek ziyolisi tashkil etgan shaxsiy matbaa. //Jahon adabiyoti jurnali, 2008, №6

keyinchalik 40 kilovatli neftda ishlovchi motorlar o`rnataladi. Shundan so`ng toshbosma mashinalar elektr – bug` yordamida ishlaydigan bo`ladi. Mutaxassislarining soni yigirmaga yetadi. G`ulom aka malakali ishchilariga, shogird bolalarga haftalik ish haqini har payshanba berib turgan. Juma kuni bosmaxonada dam olish kuni bo`lgan.

1918 - yilda Orifjonovning "Gulomiya" litografiyasи va O.A. Portsev bilan V.M. Ilyinning tipografiyalari xalqniки deb e`lon qilinadi hamda yangi ishchilar davlati hisobiga o`tkaziladi. G`H.Orifjonov toshbosmaning yangi boshqaruvchilaridan biri bo`lib, vaqtinchalik o`z bosmaxonasida ishda qolganligi ma'lum, lekin uning 1921–1947 - yillardagi hayoti hozirgacha bizga noma'lum. O`zbek noshirchiligining ilk qaldirg`ochlaridan biri bo`lgan G`H. Orifjonov yetmish uch yoshida (1947 - yilda) vafot etgan. 1917 - yilgacha uning "G`ulomiya" va "Orifjonov" toshbosmaxonasida ikki yuzga yaqin kitob juda ko`p nusxalarda nashr qilingan. Ularni o`rganish o`zbek tadqiqotchilarining faxrli burchidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Litografiya so`zi qanday ma`noni bildiradi?
2. Toshkentda qachon birinchi litografik bosmaxona ishga tushirilgan?
3. Toshkentda ochilgan ilk xususiy nashriyotlar tarixi haqida ma'lumot to`plang.
4. Xiva xonligida matbaachilik qanday yo`lga qo'yilgan edi?
5. Internet materiallaridan foydalanib G`ulom Hasan Orifjonov faoliyati haqida ma'ruza tayyorlang.

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlod, 2010.
- 2.Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko`chirgan xattotlar. – T: Fan, 1991.
- 3.Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
- 4.Ziyodov Sh. Markaziy Osiyoda ilk toshbosma kitoblar nashri tarixidan. T: Sharqshunoslik, 2009 №14.

4-mavzu: Nashr turlari. Faksimil nashrlar

Reja:

- 1. Ma'naviy ehtiyojdan kelib chiqub tayyorlanadigan nashrlar.*
- 2. Ilmiy ehtiyoj tufayli tayyorlanadigan nashrlar.*
- 3. Ta'limiylar ehtiyoj nashrlari.*
- 4. Faksimil nashr.*
- 5. Fixrist.*

Tayanch so'z va iboralar: nusxalarni saralash, ilmiytanqidiy matn, yig'ma-qiyosiy matn, ilmiy-ommaviy matn, bayoz, kashkul (majmua), tarixiy asar, faksimil nashr, fixrist.

Har bir yozma yodgorlikni nashrga tayyorlashning tartib – qoidalari, talablari bor. Matnshunoslik nashr uchun material yetkazib beruvchi soha bo`lgani uchun u arxeografiya fani bilan bevosita birlashib ish olib boradi. Arxeografiya esa qadim va o`rta asrlarda yaratilgan asarlarning nashr etish tartibini belgilab beradi. Kitobda, albatta, so`zboshi, arxeografik kirish (yoki muqaddima), matnshunoslik tadqiqoti beriladi; tegishli o`rnzlarda esa ilmiy apparat deb nomlanadigan izoh va ko`rsatkichlar, ilovalar, bibliografiya berilishi lozim. Ular yozma meros namunasini kitobxonga to`g`ri va oson yetib borishiga xizmat qiladi.⁹

Asar matni ***ma'naviy ehtiyoj, ilmiy ehtiyoj, ta'limiylar ehtiyoj*** (xrestomativ material)ga ko`ra nashrga tayyorlanadi. *Ma'naviy ehtiyoj* bo`yicha: 1) transliteratsiya nashrlar; 2) tarjima nashrlar; 3) tabdil nashrlar; 4) nasriy bayon amalga oshiriladi. Bunday nashr turida qisqartirishlarga yo`l qo`yiladi. *Ilmiy ehtiyoj* bo`yicha ilmiy-tanqidiy nashr, yig`ma-qiyosiy nashr, faksimile-nusxa nashri, akademik nashr, diplomatik nashrlar amalga oshiriladi. Bunday nashr qo`lyozmaning barcha nusxalari jalb etilgan holda tayyorlanadi, nashr matnshunoslik tadqiqoti va ilmiy apparat bilan ta'minlangan bo`ladi. *Ta'limiylar ehtiyoj* bo`yicha ilmiy-tanqidiy nashr, yig`ma-qiyosiy nashr, faksimile-nusxa nashri, akademik nashr, diplomatik nashrlar amalga oshiriladi. Bunday nashr qo`lyozmaning barcha nusxalari jalb etilgan holda tayyorlanadi, nashr matnshunoslik tadqiqoti va ilmiy apparat bilan ta'minlangan bo`ladi.

⁹ M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012.52-6et.

ehtiyoj nashrlariga maktab, litsey, oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan xrestomatiyalar kiradi. Ma'lumotlar xronologik tartibda joylanadi. Xrestomatiyalar ijtimoiy buyurtma bo'yicha saralab tuziladi.

Nashr uchun asar matnini tiklash (tuzish) ishi shu asarning saqlanib qolgan nusxalarini aniqlab, ularning ro'yxatini tuzib olishdan boshlanadi. Bu ishni turli fondlarning tavsif kataloglaridan boshlagan ma'qul:

- Sobraniye vostochnykh rukopisey AN UzSSR (11 tomlik).
- Katalog fonda Instituta rukopisey IR AN UzSSR (2 tomlik).
- Katalog vostochnykh rukopisey AN TadjSSR kataloglaridan.
- Muzeylarning qo'lyozma fondlari, katalog va kartoteka kartochkalaridan.
- Xorijiy (Moskva, Sankt-Peterburg, London, Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston) qo'lyozma fondlari monografik (kitob) kataloglaridan; (imkon bo'lsa - kartoteka kartochkalaridan).
- Shaxsiy arxivlardan.
- O'rta asr manbalari ustida ish olib borilgan yirik monografik tadqiqotlarning bibliografiya va ko'rsatkichlaridan;
- Internet saytlari ma'lumotlaridan qidiriladi.

Bu ishlarning natijasida: 1) mazkur manbalarda uchragan asarlarning nomi, saqlanish o'rni, saqlanish raqami kabilardan iborat ro'yxat yuzaga keladi; 2) ayni paytda shu o'rinnlardagi ma'lumot matnlari ko'chirib olinadi va ulardan ma'lumotlar bazasi hosil qilinadi; 3) hosil bo'lgan ro'yxatdan ularni qo'lga kiritish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi, ya'ni qo'lyozmalardan mikrofilm, fotokopiya olish, skanerqilish yo'libilan nusxa olinadi. Buish O'zbekiston qo'lyozma fondlarining mas'ulxodimlaribidan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Xorijiy fondlardagi qo'lyozmalarning nusxalarini qo'lga kiritishning rasmiy kanali yo'q. Bunday nusxalarni elchixonalarning madaniy markazlari, xalqaro ilmiy anjumanlarning o'sha mamlakatdan kelgan

qatnashchilari orqali shaxsiy iltimos qilish yoli bilan qo`lga kiritiladi. Tadqiqotchi o`sha mamlakatlarda tashkil qilinadigan ilmiy konferensiyalar- da shaxsan qatnashish chog`ida bu ishni qilishi mumkin. Ba`zan mumtoz adabiyot olimlari arxivida ham shunday nusxalar uchrab qoladi.

Asar ko`p nusxalarda saqlanib qolgan bo`lsa, matnshunos ulardan foydalanib, eng ishonchli matnni yuzaga keltirishi kerak bo`ladi.

1. Buning uchun, avvalo, mavjud nusxalarning barchasini yig`ib olish kerak (qo`lyozma, fotonusxa, kseronusxa, mikrofilm, nashr nusxa va h.k.).

2. Nusxalarni ko`rib chiqishning dastlabki bosqichi:

- davrini, o`rnini aniqlash (yil, shahar);

- o`zaro aloqadorlik darajasini aniqlash (muallif nusxasi, asl nusxa, ko`chirilgan nusxalar).

3. Nusxalarni xillash tartibi:

- benuqson // nuqsonli;

- to`la // to`la bo`lmagan;

- o`zgartirib ko`chirilgan // o`zgartirmay ko`chirilgan va h.k.

4. Tayanch nusxa belgilab olish (eng qadimiyl, benuqson va to`la saqlangani). Keyingi barcha ishlar shu nusxa atrofida olib boriladi.

Nusxalarning aloqadorlik darajasini belgilash:

- Musavvada (qoralama) - muallif tomonidan yozilgan;

- Oqqa ko`chirish - kotib yoki muallif tomonidan ko`chirilgan;

- Kitobat 1 - kotib tomonidan muallif nusxasidan ko`chirilgan;

- Kitobat 2 - boshqa kotib tomonidan o`zidan oldingi kotib nusxasidan ko`chirilgan;

-Kitobat 3 - yana boshqa kotib tomonidan o`zidan oldingi kotib nusxasidan ko`chirilgan va h.k. Xillash jarayoni bir tayanch nusxa va bir necha yordamchi nusxalarni tayin qilib olingach, nihoyasiga yetadi.

Yozma yodgorliklar nashrinining har biri o`z xarakteriga

ko`ra turlicha ilmiy ma'lumotnomalar (ilmiy apparat) berilishiga muhtoj bo`ladi. Ilmiy nashrlar ilm-fanning ma'lum bir sohasining keyingi rivojlanishi uchun o`zidan oldingi materiallar bilan ta'minlash uchun yaratiladi. Jumladan, adabiy merosning ilmiy nashri adabiyotshunoslikning nazariy masalalari, til va adabiyotning rivojlanish bosqichlarini uning alohida namoyandalari hayoti va ijodini yoritishda bebaho manba hisoblanadi. Bu ma'lumotnomalar asar yoki kitob haqida imkonи boricha ko`proq tasavvur olishga yo`naltirilgan bo`ladi. Asar va uning matnidan oladigan ma'lumotlarimizni to`ldiradi. Ma'lumotnomalar nashrga muallif, tadqiqotchilar va noshirlar tomonidan kiritiladi. Ular quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- so'zboshi (nashrga tayyorlovchidan)
- tadqiqot
- kirish
- sahifa osti izohlari.
- ilovalar:
 - asarlar ko`rsatkichi;
 - ismlar ko`rsatkichi;
 - geografik nomlar ko`rsatkichi;
 - qiyin so`zlar lug`ati...

So`zboshida asarning adabiyot tarixida tutgan o`rni, muallifning shaxsiyati, asar nusxalarining saqlanganlik darajasi, matnni qayta tiklash va chop etishda ularning qay biri qay darajada e'tibor topgani xususida ma'lumot beriladi. Tabdil yoki ommabop nashrlarda so'zboshi berilmasligi ham mumkin. Ammobuishni ma'qul deb topishmaydi. Matnshunoslik tadqiqoti — ilmiy nashrning arxeografik kirishidan keyin beriladi. Unda bir so`z bilan aytganda, matn tarixi berilgan bo`ladi. Tadqiqot, ko`pincha, faksimil, akademik va ilmiy - tanqidiy matn nashrlarining uzviy qismidir. Misol tariqasida matnshunos olima M. Hamidovaning matnshunoslik tadqiqotidan parcha keltiramiz: «Ma'lumki, ilmiy-tanqidiy matnda qo`lyozmalar harfiy qiyosi jarayonida aniqlangan farqlar tasnifi va ularning matniy tadqiqi eng asosiy rol o`ynaydi. Har bir tekstologik farqni

unga talqin bermasdan, yorqinlik kiritmasdan turib istifoda etish mumkin emas. "Talqini berilmagan manbashunoslik faktini yaroqsiz deb hisoblamoq kerak, tadqiqotchining shunday yondashuvigina muallif matnini ishonchli tarzda tiklashga imkon beradi", - deb yozgan edi rus sharqshunosi D.S.Lixachev. Bu manbashunoslik ilmining eng muhim prinsiplaridan biridir. Matn tuzish jarayonida aniqlangan tekstologik xarakterdagi barcha saxv va matniy tafovutlarni uch guruhga tasniflab o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Kompozitsion o`zgarishga olib kelgan farqlar.
2. Imloviy xatolar.
3. Matnni ma'noviy buzilishga olib kelgan tafovutlar.

Kompozitsion o`zgarishlar deyilganda, matndagi voqealar bayonining izchilligiga putur yetkazadigan kattakichik matniy tushirmalar, qisqartmalar va kirimtalar nazarda tutiladi. Tayanch nusxa sifatida istifoda etiladigan qo`lyozmada shunday kamchilik mavjud bo`lganda, ular yordamchi nusxalar matni qiyosi asosida to`ldira boriladi. Imloviy xatolar borasida shuni aytish kerakki, agar ular matn mazmuniga jiddiy zarar yetkazadigan bo`lsa, albatta farq sifatida olinishi lozim. Chunki so`zlarda birgina nuqtaning tushirib qoldirilishi yoki orttirilishi yoxud harfning tushirib yozilishi natijasida ular butunlay aks ma'noni bildiruvchi lafzlarga aylanishi matnshunoslik ishlari amaliyotida juda ko`p kuzatilgan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida "Bijin topsa yer to ichiga sig`ar; // Ne qolsa ovurtiga borin yig`ar" bayti mavjud. Baytniig ikkinchi misrasidagi "ovurt" - "lunj" ma'nosini beruvchi so`z dostonning Abdujamil kotib ko`chirgan nusxasida (UzR FA SHI №5018, 1484/85 y.) «o`rniga» shaklida xato yozilgan. Bayt mazmuniga e'tibor qilinsa, maymun tabiatiga xos bo`lgan salbiy sifat tasvirlanyapti, ya'ni maymun topganini to`yguncha yeb, qolganini lunjiga to`plar ekan. Tasvirdan maqsad maymun emas, balki boylikka xirs qo`yan maymunsifat baxil insonlarni tanqid qilishdir. Shu sabab Navoiy "ovurt" so`zini tabiat hodisalari, hayvonot dunyosi voqealarini sinchkovlik bilan kuzatishi natijasi o`laroq juda o`rinli qo`llagan. Demak, o`z-

o`zidan ravshanki, "o`rniga" so`zi bayt mazmunini ham, Navoiy aytmoqchi bo`lgan muhim fikr mohiyatini ham ochish uchun xizmat qila olmaydi. Matniy xato "ovurt" so`zidagi "te" harfining bir nuqtasi kam qo`yilishi natijasida sodir etilgan".¹⁰

Sahifa osti izohlari so`zboshida kam uchraydi, tadqiqot qismida ko`proq bo`ladi. U, albatta, muayyan tartibga bo`ysungan holda beriladi. Asosiy matnosti izohlarida ularning kimniki ekani aniq ajralib turishi kerak. Ilovalar — nashrda matndan keyin berilib, asosan, izoh va ko`rsatkichlardan iborat bo`ladi. Izohlanayotgan material imkon bersa, ular alifbo tartibida joylashtiriladi (asarlar, ismlar, geografik nomlar... ko`rsatkichlari - alifbo tartibida; muallif asarlari ro`yxati - yozilgan yillari tartibida v.b.). Ilovalar ham barcha nashrlarda berilavermaydi. Qiyin so`zlar lug`ati - ikki xil usulda beriladi: biri — sahifa ostida, ikkinchisi nashr oxirida. Bu usullarning muvofiqrog`i nashrning xarakteriga qarab tanlanadi. Sahifada lug`atlar ko`payib ketgudek bo`lsa, nashr oxirida bergen ma'qul. Lug`at ham barcha nashrlarda uchrayvermaydi.

Muallif asarining mo`tabar qo`lyozma nusxasi mavjud bo`lsa, uning faksimil nashri yangi tadqiqotlar uchun bebaho manba sanaladi. Ayniqsa, ilmiy-tanqidiy matnlarni tayyorlashda turli davlatlarda saqlanayotgan qo`lyozma asar nusxalarining faksimil nashrlari nihoyatda asqotadi. Faksimil nashr qo`lyozma yozuvi, imlosi, bezaklari, strukturasi kabi asar matni tarixini oydinlashtiruvchi jihatlarni aniqlash ishlarini osonlashtiradi. Bunday nashrlarda qo`lyozmaning tavsifi, mundarija va tegishli ko`rsatkichlar bo`lishi, lug`at qo`lyozmalarida so`zlarning alifbo tartibida berilgan ochqichi bo`lishi shart. 1968 - yili Hamid Sulaymon A. Navoiyning "Ilk devon"ining 1465-1466 -yili mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko`chirilgan qo`lyozmasining faksimilini nashr ettirdi. Ilk devonning faksimilida qo`lyozmaning xati yirik nasta'liq uslubida, Xurosonning oliy navli ipak qog`oziga qora siyohda yozlgan. Xattotning xati asar matnini aniq ifodalagan, deyarli barcha harflarni aniq o`qisa bo`ladi. "Navodir un-

¹⁰ Nodir manbalar // Sharq mash`ali, 1999, №1-2. -B.36.

nihoya” fotokopiyasida esa biroz xiraliklar mavjud bo’lib, bu xususda Suyuma G`aniyeva shunday fikr bildirgan:” Xatning yozilish uslubi haqida aytish kerakki, u professional kotib xatiga o’xshamaydi. Masalan, alif, kof, lom harflari o’ng tomonga moyil qlib yozilgan. Misralarning notejisligi esa xatning mistarsiz yozilganidan belgi beradi. Lekin, shubhasiz, xat kitobat san’atini puxta egallagan odamning qo’li bilan yozilgan...harflarning ust va ostki nuqtalari alohida-alohida, aniq va dona-dona qo’yilishi eski o’zbek tilidan xabardor bo’lmagan forsiyzabon kotiblarga yengillik tug`dirish maqsadida qilinganidan dalolat beruvchi omil deb qarash mumkin.”¹¹ Faksimil nashrlarning yana bir go’zal namunasi A.Navoiyning Oqquyunli davlatida yashagan muxlislari tomonidan tayyorlangan devoni bo’lib, Aftondil Erkinov tomonidan topilib, nashr etilgan.¹²

Hozirgi kunda dunyodagi barcha kutubxonalar o’z zahiralaridagi manbalarni elektron ko`rinishda e’lon qilmoqda. Ushbu imkoniyat qo’lyozma asarlarning raqamli nusxalarini olish, kelishgan holda faksimil nashrlarini amalga oshirish va tadqiq qilish ishlarini yo’lga qo’yishni birmuncha osonlashtiradi.

Fixrist har bir qo’lyozma manbaning asosiy belgilari, xususiyatlari va tarkibi haqidagi muayyan tartibga solingen ma’lumotlar majmuidir. Sharq qo’lyozmalarini to’liq yoki qisqacha tavsif qilishning aniq qoidalari mavjud emas. Yevropada sharqshunos olimlar tomonidan tuzilgan fixristlar o’tgan asrnинг о’ртalarida o’zbek matnshunoslari uchun qo’llanma rolini o’ynadi. O’zbekistonda sharq qo’lyozmalarining to’liq tafsiflarini o’z ichiga olgan birinchi fixrist O’zR FAning “Fan” nashriyoti tomonidan 1952 - yilda “Собрание восточных рукописей Академии наук Уз ССР” nomi bilan nashr qilingan. Tavsif quyidagi tartibda berilgan:

1. Asarning nomi.
2. Muallif nomi.
3. Qisqacha ta’rif (annotatsiya)

¹¹ Навоий дастхати, Наводир ун-ниҳоя./Нашрга т.сўзбоши муаллифи С.Фаниева.-Т.:Фан,1991

¹² Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:201959-bet.

4. Asarning yozilgan yili.
 5. Kitobning nomi.
 6. Ko`chirish yili.
 7. Asarning boshqa nusxalari dunyodagi fondlarda yoki kutubxonalarda mavjud-mavjud emasligi.
 8. Asarning yozilgan yoki ko`chirilgan yilini aniqlash imkonи bo`lmasa, bu haqda ma'lumot berish.
 9. Asarning mazmuni uning sarlavhasidan anglashilib turganda yoki mazmuni unchalikahamiyatga molik bo`lmasa annotatsiya bermaslik.¹³
- Tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sinoning (980 - 1037) to`rt yuz ellik oltita asar yozgani ma'lum. Nemis olimi K. Brokelman Ibn Sinoning 250 ta asari bilan shaxsan tanish bo`lgan. Sh.Kanavati uning 276 ta asari fixristini tuzgan. Eron olimi Said Nafisiy Ibn Sinoning 456 ta asari nomini keltirib, undan 258 tasi bizgacha yetib kelganini ko`rsatadi. O`zR FA SHI fondida esa buyuk olimning 50 ta qo`lyozma asari saqlanmoqda. Bu fonddagi asarlar fixristini sharqshunos olima B.A. Vahobova tuzishga muvaffaq bo`lgan. Ibn Sino asarlarining fixristini tuzishda olima uning mukammal bo`lishiga harakat qilgan.

B. A.Vahobova fixristni tuzishda, asosan, quyidagi masalalarga diqqat qiladi:

1. Qo`lyozmaning ashyo raqami.
 2. Asar nomi.
 3. Asarning boshlanishi.
 4. Asarning tugallanmasi.
 5. Qo`lyozma haqidagi har xil ma'lumotlar (qog`ozi, xati, sahifasi va boshqalar).
 6. Nuqsoni.
 7. Ko`chiruvchisi haqida ma'lumot.
 8. Ko`chirish yili.
 9. O`lchovi.
 10. SVR hamda boshqa fixristlardagi ma'lumotlar.
- Namuna sifatida bitta tavsifni keltiramiz: 9770/1

¹³ M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslilik va matnshunoslilikning nazariy asoslari, T.:2012,89-b.

المسائل المحدودة

«Считанные вопросы»

Трактат представляет собой пятнадцать вопросов по медицине, заданных Ибн Сине и его ответы на них. В данном списке он фигурирует под неправильным названием, написанным позже другой рукой (Трактат вопросов и ответов). Эти вопросы и ответы касаются таких разделов медицины, как причина боли, вызванная другой натурой, горячие опухоли и применяемые против них средства, прощупывание пульса; биение пульса; среднее состояние между болезнью и здоровьем; разъяснение и уточнение отдельных медицинских терминов; причины жажды и пр. Начало после басмалы:

هذا مسائل معدودة من اعمال الشیخ الرئیس ابی علی
ابن سینا فیض الله روحه الخ

Список написан насталиком на желтоватой бумаге восточного производства. Название трактата и начало написаны киноварью; пайгири. На полях поправки тексту. Переписчик Йусуф б. Шайх Фатх Мухаммад б. Ниъматулла, известный как Шамсабади (л.676.)

Дата переписки — рамадан 1129/август 1717 г. (там же). 5л. (16.-5а. 18x25). Указ: СВР, VI, № 4341. Др. списки Вгоск. зирр1, 827/95; Канавати, № 146; Маҳдави, с.29622.¹⁴

Fixrist oxirida, odatdagidek, kitoblar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati berilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Faksimil nashrning o`ziga xos belgilarini aniqlang.
2. A.Navoioining qaysi asarlarining faksimil nashri mavjud?
3. Nashrning qanday turlari mavjud?
4. Fixrist nima?

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon

¹⁴ M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012.104-бет

II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.

2. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko`chirgan xattotlar. – T.: Fan, 1991.

3. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019

4. Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

5-mavzu: Manba va matnlarni klassifikatsiya qilish

Reja:

- 1. Matnni tiklash jarayonida qo'llanadigan metod va usullar.*
- 2. Tarixiy manbalar klassifikatsiyasi.*
- 3. Adabiy manbalar klassifikatsiyasi.*
- 4. Matnlar klassifikatsiyasi.*

Tayanch so'z va iboralar: matn, asar, qo'lyozma, nusxa, dastxat, qoralama, oqqa ko'chirma, ko'chirma nusxa (kopiya), arxetip, variant, matn tarkibi, matn tarixi, matn tanqidi, arxeografik kirish, matniy tafovut, izoh va ko'rsatkichlar, nashr turlari, tamoyil.

Adabiyot tarixi, til tarixi kabi fanlar yozma yodgorliklar matni asosida yuzaga keladi. Yozma yodgorliklarni muomalaga, istifodaga kiritish esa matnshunoslikning zimmasidadir. Adabiyot tarixi, til tarixining tadqiqot obyekti to'laligicha matnshunoslikning ham tadqiqot obyektidir. Faqat matnshunoslik adabiyot tarixiga material yetkazib berishda ba'zan oldinda, ba'zan orqada yuradi, ya'ni adabiyot tarixi matni hali chop etilmagan yoki tarjima qilinmagan asarlar yuzasidan ham ish olib boradi.

Ma'lumki, fan "yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faolyatni ham, bu faoliyatning mahsuli — olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi, inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi". Fanlarning hosil bo'lishi yuzasidan olimlarning olib brogan kuzatuvlariga ko'ra, soha bo'yicha yetarli amaliy baza yuzaga kelgandan keyingina ilmda fan — predmet sifatida shakllana oladi. Matnshunoslik amaliyotida hozir shunday baza bor. Matnshunoslikning o'zi yaqin paytlargacha avvaliga adabiyotshunoslikning bir qismi, to'g'riro'i adabiyot tarixining tarkibiy bir qismi bo'lib kelgan edi. U ham endi o'zaro aloqadorlikda amalda bo'lgan bir olam tushunchalarga, qo'lyozma kitoblar davri; litografik bosma

kitoblar davri; poligrafik nashrlar davri kabi tarixiy bosqichlarga: matn tuzish prinsiplari (ilmiy va ommabop nashrlar), tuzilgan matnlarni ommalashtirish prinsiplari, yozma yodgorliklarni ilmiy tadqiq qilish prinsiplari kabi tamoyillarga ega bo`lgan bir butun fanni tashkil etadi. Matnshunoslik amaliyotida, avvalo, uning umumiy mezonlar va me`yorlarni tashkil etuvchi asosiy *tushunchlari* va *tamoyillarini* e`tiborga olish, ulardan o`z o`rnida foydalanish, to`g`ri qo`llash lozim bo`ladi. Ammo bu umumiy mezonlar va me`yorlar, tushuncha va tamoyillar o`zbek matnshunos- ligida, o`zaro aloqadorlikda, nazariy jihatdan to`liq ishlab chiqilmagan va tartibga solinmagan. Soha mutaxassislari esa o`z ilmiy ishlarini nazariy tayyorgarligi yetarlicha bo`lgan o`quvchilarga mo`ljallagani uchun nazariy terminologiyani o`rni bilan ishlatib ketaveradilar. Bu terminologiya ma`lumotnomma, lug`at va ensiklopedik nashrlarda tarqoq holda mavjud. Ammo o`rganish chog`ida ularni mohiyatiga ko`ra turkumlashtirib, o`zaro aloqadorlikda tushuntirish lozim bo`ladi. Chunonchi, “ilmiy apparat” bilan “konyektura” so`zlari mohiyatiga ko`ra bir tushuncha, lekin ikkinchisi usul hisoblanadi. **Ilmiy apparat** – matniy tafovutlar joy olgan sahifaosti izohlar. Keng ma`noda arxeografik kirish, matniy tadqiqot, matnning berilish tartibi, izoh-u sharhlardan iborat nashr ma`lumotnomasining umumiy nomi hisoblanadi. **Konyektura** – matnshunosning matndagi o`qilishi qiyin, bузilgan joylarni, asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib, o`z mulohazalarigagina asoslanib tuzatishidir.

Demak, matn, asar, qo`lyozma, nusxa, dastxat, qoralama, oqqa ko`chirma, ko`chirma nusxa (kopiya), arxetip (yozma yodgorlikning eng qadimgi, odatda, noma'lum bo`lgan, ammo boshqa nusxalar uchun asliyat vazifasiga o`tagan nusxa), variant, matn tarkibi, matn tarixi, matn tanqidi, arxeografik kirish, ilmiy apparat, matniy tafovut, izohlar, ko`rsatkichlar, nashr turlari kabi tushunchalarning har biri o`ziga alohida e`tibor talab etadigan *nazariy* tushunchalardir.

Metod va usullar: qo`lyozmaning yozilgan sanasini belgilash, atributsiya (asarning muallifi, yaratilish vaqtini va o`rnini aniqlashtirish), interpolyatsiya (hoshiya yozuvlari),

konyektura, nusxalar tasnifi, matn tuzish, uni sharhlash, kotib yo'l qo'ygan xatolarni va uning bilib - bilmay kiritgan o'zgartirishlari ustida hukm chiqarish, qo'lyozmani nashrga tayyorlash metodikasi kabilar matnshunosdan *amaliy* yondashuvni talab etadigan ishlar - matnshunoslikning asosiy *metod va usullari* jumlasiga kiradi.

Matnshunos asosan uchta maqsaddan birini nazarda tutadi. Matnshunoslik tamoyillari ham shu maqsadlardan kelib chiqadi:

1. **Matn tuzish prinsiplari.** Matnshunoslikning ijtimoiy mohiyati o'tmish yozma yodgorliklarini qayta hayotga qaytarish, asar taalluqli bo'lgan soha tarixini xronologik material bilan ta'minlashdan iborat. Bu yo'lda qilingan ishlarning oliy shakli yozma yodgorlikning *ilmiy-tanqidiy matnini* tayyorlab nashr ettirishdir. (Tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, fan tarixi sohasi mutaxassislari o'z ilmiy faoliyatida bunday materialga eng ishonchli manba sifatida qaraydilar.) Shu bois, matnshunoslar muayyan asarning *ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplarini* puxtalab olib, ishning oxirigacha unga amal qiladilar (bunday materiallar alohida maqola shaklida ham chop etiladi). Matn tuzish sohasida sharqshunos - matnshunoslar eng ko'p duch keladigan holat asar matnining arab yoki fors tilida ekanligidir. Bunday asarlarning *ilmiy izohli tarjimasini* tayyorlash ham matnshunoslik ishlari jumlasiga kiradi. Klassiklarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabilarning merosi shu taxlit hayotga qaytgan. Yetuk manbashunos olim I.Abdullayev qo'lyozma manbalar matnini tayyorlashning quyidagi shakkarda bo'lishini qayd etgan:"Arab, fors yoki eski o'zbek yozuvi imlosida yozilgan manbaning *bir qo'lyozma asosidagi matnini*, bir qancha qo'lyozmalar asosidagi *yig'ma matnini* yoki dunyoda saqlanayotgan hamma nusxalari asosida *tanqidiy matnini* tayyorlash. Bunda matn tarixi, muallifi, uning o'rganilish tarixi va to'la tavsifidan iborat so'zboshi yoziladi, so'ngra izohlari bilan asar matni chop etiladi»¹⁵.

2. **Yozma yodgorlikni ommalashtirish prinsiplari.**

¹⁵ M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012.104-бет.

Ommalashtirish asar matnini chop etishdangina iborat bo`lmay, undan foydalanish yo`riqnomasini yaratishni ham o`z ichiga oladi. Bu ish asar matnini tuzgan, nashrga tayyorlagan matnshunosdan mukammal tarzda amalga oshirishni taqozo etadi (nashrga asar matni bilan birga arxeografik kirish, matn tanqidi, izoh va ko`rsatkichlar kabi qo`shimcha - tanitma materiallar ilova etiladi). Rus matnshunosligida bunday materiallarni D.S.Lixachev obrazli qilib, "konvoy" deb atagan. Qadimda bu maqsadlar uchun mashhur asarlarga katta-katta sharhlar yozilgan, asar matnidagi hoshiya yozuvlaridan foydalanishgan. Hozirgi paytda asar matni nashrdan chiqqach, tuzuvchi - matnshunos boshlagan ishni boshqa tadqiqotchilar davom ettiradilar. Nashrga taqrizlar yoziladi. Matndagi hamon uchrab turadigan xatolar, noto`g`ri tushunishlar yuzaga chiqadi. Manbashunos - mutaxassis asar nashriga soha mutaxassislari tomonidan bildirilgan va e`lon qilingan fikrlarning barchasidan xabardor bo`lishi, keyingi nashrlar uchun ularni nazarda tutishi lozim.

3.Yozma yodgorliklarni ilmiy tadqiq etish prinsiplari.

Bu prinsiplarga ko`ra tadqiqot obyekti yuzasidan ma'lumot manbalari doirasini belgilab olish lozim bo'ladi: asarning yurtimizda va xorijda saqlanayotgan qo`lyozma nusxalari, asarning yurtimizda va xorijda chop etilgan nusxalari, muallif haqidagi bosma nashrlar, muallif haqida qo`lyozma manbalar, tazkiralari, asar va muallif haqidagi ilmiy tadqiqotlar.

Yozma yodgorliklar yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish uchun mazkur asar matni tarixini yaxshi bilish kerak. Muayyan asar matni haqidagi barcha ma'lumotlar yigindisi *matn tarixi* deyiladi. Biror asar matnini qo`lyozma va bosma nashrlari asosida, eng ishonchli tarzda, tiklash, avvalo matnshunoslik tahlilini taqozo etadi. Bu tahlil natijasida matnshunoslik tadqiqoti yuzaga keladi. Matnshunoslik tahlilini esa, matn tarixi ma'lumotlarisiz amalga oshirib bo`lmaydi, chunki bu ma'lumotlar asarning shakli va mazmuni haqida aniq tasavvur olish uchun material beradi. Misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, prof. M.Imomnazarovning doktorlik dissertatsiyasi

himoyasida Amir Xusrav Dehlaviyning Pokistondasaqlanayotgan qo`lyozmalarini tadqiqotga jalb qilmagani xususida gap bo`ladi. Dissertant o`z javobida matnshunoslik sohasida bu asarlarning matnlari hali chop etilmaganini ta'kidlaganida mutlaqo haq edi. Dissertasiya adabiyotshunoslik tadqiqoti bo`lgani uchun bu uzr qabul qilinishi mumkin. Ammo matnshunoslik tadqiqotlari uchun bu holat tadqiqotdagi kemtik yer bo`lib qolgan bo`lar edi. Demak, soha mutaxassislarining fikricha, ma'lumot manbalari doirasini bu turkum ma'lumotlar bilan imkon boricha kengroq ta'minlash tadqiqotning to`laqonli bo`lishini ta'minlaydi. Shundagina manbaning har tomonlama mukammal tahlilini amalga oshirish mumkin bo`ladi.¹⁶

Klassifikatsiya- ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o`zaro bir xil tushunchalar sistemasidir. Bu atamaning sinonimi arabcha tasnif so`zi hisoblanadi. **TASNIF** (arab. — saralash, tartibga solish) - har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo`lib, uning vositasida shu fan doirasida to`plangan bilimlar qat’iy tartibga solinadi. Ma'lumki, manbashunoslik fani ijtimoiy fan sohasida , asosan, ikki xil bo`ladi: tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Tarixiy manbalar ularning umumiy xarakteri, o`tmishni o`zida aks ettirishiga ko`ra quyidagi olti guruhga bo`linadi:

1. Yozma manbalar:

1. Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar va h. – jami 34 xil hujjat turlari).

2. Narrativ yozma manbalar (Narrativ –lot. *qissa, hikoya*) : tarixiy, geografik, kosmografik, biografik, agiografik, memuar asarlar, sayyoh va elchilarining esdaliklari. Aksariyat yozma asarlar nasrda yozilgan. Firdavsiyning “Shohnomas”si, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”si she’riy shaklda – masnaviyda yozilgan.

2. **Moddiy (ashyoviy) manbalar**: ibridoiy odamlar yashagan va dafn etilgan joylar, mehnat va urush qurollari, turli inshootlar, uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar (kishilik

¹⁶ M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012, 16-18-betlar.

jamiyatining qariyb 40 ming yillik tarixi).

3. **Etnografik manbalar**: xalqimizning kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan manbalar (xalq, qabila, urug` nomlari, urf-odatlar, kishilarning turmush tarzi,...). Etnografiya fani shug`ullanadi.

4. **Lingvistik manbalar**: tilning lug`at boyligidagi tarixiy so`zlar, atamalar. Lingvistik manbalar ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotini o`rganishga yordam beradi. Etimologiya sohasining obyektidir.

5. **Xalq o`zaki adabiyoti**: mif va afsonalar, qissa va dostonlar. Og`zaki adabiyotning ildizi ibtidoiy jamaa va ilk feodalizm tuzumiga borib taqaladi. Tabariy, Mas`udiy, Beruniy, Firdavsiy, Ibn al-Asir, Koshg`ariy asarlari orqali ayrim namunalari bizgacha yetib kelgan. Masalan: Kayumars, Jamshid, Siyovush, To`maris, Shiroq haqidagi afsona va qissalar. Folklorshunoslik fani shug`ullanadi.

6. **Mo`jaz rasm – miniatyuralar**: X-XIX asrlar davomida qo`lyozma asarlar mo`jaz rasmlar bilan ziynatlangan. Ularda rassom yashagan tarixiy davr haqida ma'lumotlar jamlangan. Masalan, Kamoliddin Behzodning Bibixonim masjidi qurilishiga bag`ishlangan miniatyurasida XV asrga oid qurilish jarayoni, mehnat qurollari, ustalar tasviri berilgan.

Sharq yozma manbalarini klassifikatsiya qilish, ya`ni turkumlashning aniq bir qoidasi hozirgacha ishlab chiqilgan emas. Shu kungacha qo`lyozma asarlar *tiliga ko`ra, qaysi fan sohasiga oidligiga ko`ra, mazmuniga ko`ra, qayerda va qachon yozilganiga ko`ra* tasniflangan va kataloglari tuzilgan.

1. **Kelib chiqish joyi bo`yicha**: 1) o`zimizda yaratilgan manbalar; 2) xorijiy manbalar (Yevropa sayyohlarining qaydlari va asarlari).

2. **Tili bo`yicha**: 1) forsiy manbalar; 2) arabiy manbalar; 3) turkiy manbalar.

3. **Davri bo`yicha**: qadimiy, o`rta asr, yangi davr va hozirgi zamonga tegishli manbalar.

4. **Shakli bo`yicha**: og`zaki, yozma, etnik, moddiy (ashyoviy).

5. Janri bo'yicha: memuarlar, tarixiy xronika, xatlar va yozishmalar, hujjatlar, xorijiy xronikalar (Qadim Xitoy xronikalarida Turkiston tarixi kabi), arxiv fondlari.

6. Yozuv materialiga ko'ra: bitiktoshlar, teridagi yozuvlar, kitobalar (bino peshtoqidagi yozuvli bezak) va qog'ozdag'i manbalar.

7. Yozmalarining mazmuniga ko'ra turlari: tarixnavislik, ilmiy manbalar, falsafiy manbalar, diniy manbalar, tasavvufiy manbalar, adabiy manbalar.

Bir guruh olimlar esa ularni *rasmiy hujjatlar, tarixiy asarlar, geo - kosmografik asarlar, biografik asarlar* kabi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladilar.

Manbalarni avtograf (muallifning o'z qo'li bilan yozilganligi) va ko'chirilgan nusxa ekanligiga qarab tasniflash hollari ham kuzatiladi.

O'zbek matnshunosligi tarixida ko'p nusxali matn tarixini tiklashning umumiy nazariy tamoyillari ishlanmagan bo'lsa-da, bu masalada muayyan manbagagina xos tajribalar, yondashuvlar kuzatiladi. Shu tajriba va yondashuvlarni tanqidiy o'r ganib, ishonchli matnni tiklashning quyidagi to'rt tamoyilini sanash mumkin:

1) xillash (*ko'p nusxali matnni turlarga ajratish: qo'lyozma, toshbosma, bosma*);

2) tasniflash (*xillangan matn turini sanalar bo'yicha ajratish: asr, yil, oy*);

3) qiyoslash (*qo'lyozmalarining xati va matn to'liqligi solishtiriladi: badxat, xushxat*);

4) saralash (*qiyos natijasida saralangan nusxalarning matn butunligi aniqlanadi*).

Matnlar **janr va nashr turlari** bo'yicha tasniflanadi. Janr turlariga ko'ra tasnifga:

- adabiy matnlar(*devon, doston, qasida va shu kabilar*),

- tarixiy matnlar(*tarix-yilnomalar, tazkira – esdalik, manoqib, vaqfiya va shu kabilar*),

- yozishmalar (*maktubot, ruq'aot, munshaot va shu kabilar*),

- diniy matnlar (*tafsir, ta'vil, fikh, kalom, tasavvuf va shu*

kabilar),

- fan sohalariga bag`ishlangan matnlar kiradi.

Turli to`plamlar, monografik risolalar, majmualar, bayozlar shaklida ko`chirilgan yoki toshbosma usulida chop etilgan asarlar *nashr turlari bo`yicha ham tasniflanadi*. Tasniflash matnshunos uchun muhim ahamiyatga ega. Zero, tadqiq etilayotgan matn turli janr va nashr turlariga xos belgilarga ega bo`lishi mumkin. Masalan, tazkiralarda biografik ma'lumotlar bilan birga she'rlardan parchalar, xatlardan namunalar yoki tarixiy lavhalar qorishiq keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnshunoslik nechta tamoyilga asoslanadi?
2. Qo`lyozma asarlar qanday belgilariga ko`ra tasniflanadi?
3. Qo`lyozma asarlar janriga ko`ra qanday tasniflanadi?
4. Nashriga ko`ra tasniflash nima?

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlod, 2010.
- 2.Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko`chirgan xattotlar. – T.: Fan, 1991.
- 3.Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
- 4.Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

6-mavzu: Matnshunoslikning tadqiq usullari. Hijriy yilni milodiyga tabdil qilishning oddiy formulalari

Reja:

- 1. Matnshunoslikning tadqiq usullari.*
- 2. Hijriy taqvim.*
- 3. Hijriy yilni milodiyga aylantirish formularasi.*

Tayanch so'z va iboralar: *tadqiq usullari, atributsiya, ateteza, konyektura, gloss, interpolyatsiya, tekstologik belgilar.*

Matnshunoslikning qo'lyozmalar bilan bog'liq tadqiq usullari zamonaviy adabiyotlar, adabiy arxiv materiallari, davriy matbuot tadqiqi bilan shug'ullanadigan matnshunoslik tadqiq usullaridan farq qiladi.

Bular quyidagilar:

1.Qo'lyozmaning o'lchamlarini hisoblash.

Manbashunoslik va matnshunos- likda tavsif qo'lyozmaning o'lchamlaridan boshlanadi. Qo'lyozma asarlarning o'lchami rus sharqshunosligida eni va bo'yini santimetr hisobida olingen uzunluk bilan belgilanadi. Yevropa sharqshunosligida esa inch (dyum) o'lchov birligi bilan hisoblash qoidaga kiritilgan. Masalan, 24 varaq, 15x22 cm; Book of 328 pages, 5 $\frac{1}{4}$ by 8 $\frac{1}{2}$ inches.

Satrlar soni va qatorlar uzunligi, varaqning boshqa o'lchamlarini aniqlash metodikasi XX asr boshlarida A. Klark tomonidan ishlab chiqilgan.

1.Atributsiya va ateteza. *Atributsiya* – matn muallifini aniqlashdir. Matnshunos matnning muallifini (masalan, g`azalning maqta'sidagi taxallus vositasida) matn klassifikatsiyasi, sanalarni belgilash, matnning yaratilish joyini aniqlash kabi bir qancha tekstologik tadqiq usullaridan foydalanib, muallif nomi va tarjimayi holini tiklashi mumkin. *Ateteza* esa muayyan asarning muallifi noto`g'ri ko`rsatilgan taqdirda, uni noo`rin mualliflikdan himoya qiladi. Bahs qilinayotgan muallifning barcha asarlari qiyosan o'rganilib,

hududiy va davriy, g`oyaviy va uslubiy, tekstologik jihatdan kompleks tadqiq amalga oshiriladi va xulosa chiqariladi. Masalan, "Gul va Navro'z" dostonining muallifi shu usul blan aniqlangan.

2.Konyektura yo`li bilan matnni tiklash. Matn kontekstidan kelib chiqib matndagi xato yozilgan o`rinlar yoki o`qib bo`lmas so`z va jumlalarni tiklash konyektura deyiladi.

3.Gloss va interpolatsiyalar tahlili. Gloss – qo`lyozma nusxalarning hoshiyalarida uchraydigan izohlar, to`ldirishlar, boshqa manbalarga havolalar, Qur`oni karim oyatlari yoki hadislardan keltirilgan misollardir. Ular asosiy matndan alohida bo`lib, umumiylar mazmunni to`ldiradi. Qo`lyozmadan nusxa ko`chirish jarayonlarida ayrim xattotlar hoshiyadagi bitiklarni asosiy matnga qo`sib yuborgan holatlar ham uchraydi. Bunday o`zboshimcha tahrir *interpolyatsiya* deyiladi. Interpolyatsiyani asosiy matndan ajrata olish matnshunos oldida turgan murakkab vazifa hisoblanadi.

4.Matnlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish). Matnlar janr va nashr turlari bo'yicha tasniflanadi. Janr turlariga adabiy (devon, doston, qasida va shu kabilar), tarixiy (tarix - yilnomalar, tazkira – esdalik, manoqib, vaqfiya va shu kabilar), yozishmalar (muktubot, ruq'aot, munshaot va shu kabilar), diniy (tafsir, ta'vil, fikh, kalom, tasavvuf va shu kabilar), fan sohalariga bag`ishlangan matnlar kiradi. Turli to`plamlar, monografik risolalar, majmular, bayozlar shaklida ko`chirilgan yoki toshbosma usulida chop etilgan asarlar nashr turlari bo'yicha tasniflanadi. Tasniflash matnshunos uchun muhim ahamiyatga ega. Zero, tadqiq etilayotgan matn turli janr va nashr turlariga xos belgilarga ega bo`lishi mumkin. Masalan, tazkiralarda biografik ma'lumotlar bilan birga she'rlardan parchalar, xatlardan namunalar yoki tarixiy lavhalar qorishiq keladi. Devon tartibiga amal qilmaslik esa uning majmuaga aylanib qolishiga olib keladi. Bayoz va tazkiralalar to`plam - antologiyalar guruhiiga kirsa-da, bayozning tarkibini asosan shoirlar ijodidan namunalar tashkil etadi.

5.Matnning yaratilish joyini aniqlash. Matn muallifi

aniq bo`lмаган holatlarda matnning yaratilish joyiga qarab muayyan xulosalarga kelish mumkin. Bunda matn voqealari bayoni, hoshiyalar va ochiq sahifalardagi qaydlar, muhrlar kabi matn tarixini ochishga imkon beradigan barcha imkoniyatlar o`ргaniladi. Matndagi sheva elementlari, fonetik, leksik, morfologik shakllar, muayyan hududga xos urf-odat, marosimlar matnning yaratilish joyini aniqlashda yaxshi ko`rsatkich bo`la oladi.

6.Tekstologik belgilarni aniqlash. Qo`lyozma asarlar ko`chirilish tarixining muayyan bosqichlarida boshqa nom ostida ko`chirilishi ham mumkin. Asarning xalq orasida mashhur bo`lgan nomi yoki shu janr guruhiga kiruvchi atamalar bunga sabab bo`ladi. Masalan, “Hidoya”, “Muxtasar”, “Vaqoye”, “Chor devon” kabilar. Asarning asl nomini tiklash uchun matnshunos o`zi tadqiq etayotga qo`lyozma asarning nusxalarini qiyosan o`ргanadi, saralash yo`li bilan matni aynan takrorlanayotganini ajratib oladi. Nomi bir xil matnlar o`rtasida farq bor – yo`qligini kuzatadi. Tekstologik belgilar o`rtasidagi mutanosiblikni belgilaydi. Tekstologik belgilar barcha tavsifiy alomatlar, tahrir izlarini o`z ichiga oladi.

7.Matnni tiklash (rekonstruksiya qilish). Matnshunos asosiy matnni tuzishda qo`lyozma asar nusxalarida uchraydigan farqlar, tushirib qoldirish yoki qo`shib yozish holatlariga duch keladi. Ularning tog`ri-yoki noto`g`riligini tekshirish va aniq to`xtamga kelgandan so`ng asosiy matnga tuzatish kiritish matnshunosdan katta mehnat talab qiladi.

8.Matnni sanalashtirish. Matnning sanasi bo`lмаган taqdirda matnshunos nusxalardagi tafovutlar, birlamchi variant haqida xulosa chiqarishga qiynaladi. Qo`lyozma asarning tavsifiy belgilari, qog`izi, hoshiyadagi qaydlar yordamida nusxaning sanasini taxminiy aniqlash mumkin.

9.Matniy tafovutlarni tahlil qilish usuli. Matniy tafovutlarni aniqlash usuli “asl” yoki “dastlabki” matnni tiklash jarayonida qo`llanadi. Matnshunos matn tarixidagi barcha davriy o`zgarishlarni kuzatib, ularning sodir bo`lish sabablarini aniqlashi juda muhim. Tahlil oddiy farqlarni aniqlashdan

boshlanib, oxirida umumlashtiruvchi xulosalarga kelish bilan tugaydi. Farqlar qo`lyozma nusxalari orasida, xronologik tartibda, makon va hudud tartibida guruhlashtirilgan holda qiyoslanadi. Matniy tafovutlar xattot va kotiblar tomonidan so`zni noto`g`ri o`qish sababli, shuningdek, muallif yoki kotib tomonidan ongli ravishda qilingan tahrir tufayli paydo bo`lgan bo`lishi mumkin. Matnshunos farqlarning sababini aniq belgilashi lozim.

10. Muallif matni xatoliklarini aniqlash. Ayrim ijodkorlar o`z asarlarini ko`chirish jarayonida xatoliklarga yo`l qo`yishi mumkin. Ayrim harflarning tushib qolishi, sanalarning noto`g`ri qo`yilishi kabi mexanik xatolar xattotlar faoliyatida ham aks etadi. Matnshunos xatoning muallif tomonidan ongli ravishda qilinmaganligini muallifning ilmiy-badiiy iqtidori, matn mazmuniga talabchanligi darajasini o`rganish orqali aniqlaydi.

11. Ko`chirishdagi xatoliklarni tahlil qilish. Kotiblar so`zni to`g`ri o`qiy olmasalar, asliyat husnixati xususiyatlarini yaxshi tushunmasalar, ko`chirish jarayonida ko`plab xatoliklarga yo`l qo`yadilar. Matnshunos tomonidan xolis aniqlangan xato qiyosiy tahlil orqali asosiy matnda tuzatib boriladi.

12. Matnni ongli ravishda o`zgartirish hollarini tahlil qilish usuli. Matn qasddan yoki beixtiyor o`zgartirilgan bo`lishi mumkin. Bunday holat xattot yoki kotibning “o`ta bilag`onligi” yoxud “shunday bo`lishi kerak edi” degan iddaoda matnni tuzatib ketishi natijasida yuz beradi. Matnshunos manbalarning xronologik yoshiga qarab farqlar dinamikasini tuzib chiqadi. So`ng manbaning ko`chirilish davri va hududini o`rganadi. Ushbu tahlillar o`zgartirishning qasddan yoki beixtiyor qilinganini aniqlab beradi.

13. Asosiy matn tuzish usuli. Asosiy matn tuzish - bu muallifning asl matnnini tiklash degani emas, buning ilojiyo`q, deyarli. Asosiy matn deganda, matnshunos tomonidan nashr uchun tayyorlangan qo`lyozma asarning so`nggi varianti nazarda tutiladi.

14. Qo`shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash usuli. Manbalar qiyosiy o`rganilganda, ko`pincha, bir

nusxadagi muayyan matn bo`lagi ikkinchi nusxada tushib qolgan bo`ladi. U chindan tushib qolganmi yoki, aksincha, qo`shilib qolganmi, buni matnshunos aniqlaydi. Ushbu tadqiq usuli har ikkala manbaning “qiyofadoshlarini” to`plash va saralashdan boshlanadi. Ikki guruh manbalarini o`rganish asnosida eng qadimiysi aniqlanadi, so`ng o`zgarishga uchragan manba davrigacha ko`chirilgan manbalardagi holat o`rganiladi. O`zgarishga uchragan nisbatan qadimiyroq manba uchragan taqdirda, uning tavsifiy, davriy va hududiy belgilarini o`rganish orqali o`zgarish bo`yicha xulosa chiqariladi.

15. Qo`lyozma nusxalar o`rtasidagi farqlar tahlili. Matnshunos qo`lyozma asar nusxalari ustida ishlar ekan, ularning qaysi matndan ko`chirilganligini aniqlashi nusxalar o`rtasidagi farqlarning paydo bo`lish sabablarini oydinlashtiradi. Bu jarayonda matniy o`zgarishlar xronologik tartibda guruhlashtiriladi va eng qadimi nusxalar bilan solishtiriladi. Ushbu tahlil natijasida asarning dastlabki variant haqida muayyan tasavvurga kelinadi.

16. Nusxalaro`rtasidagio`zarobog`liqlikvamunosabatni aniqlash usuli. Qo`lyozma va toshbosma usullarida chop etilgan asarlar o`rganilayotganida muayyan asarning qaysi matn assosida ko`chirilganini aniqlash ham muhim hisoblanadi. O`rganilayotgan asar yoki yagona nusxa bo`lsa, bu usul qo`llanmaydi.

Hijriy yilni milodiyga aylantirishning bir necha formulasi mavjud. Ma'lumki, har 33 yilda hijriy yil hisobi milodiy yil hisobidan bir yilga ko`payadi. Ayrim olimlar hijriy yil bilan milodiy yil o`rtasidagi farqni 32 yoki 32,5 deb oladilar. Xuddi shunday har xillikni 622 - yilda ham (621, 621,6) ko`rish mumkin. Hijriy – shamsiy yil oylari milodiy 622 - yilning bahorgi tengkunlik – 21 martidan boshlab hisoblanadi.

1-formula: Hijriy taqvim boshi 621 deb qayd etiladi. Hijriy yilni milodiyga aylantirish uchun hijriy yilni 33 ga bo`lish kerak. Sababi, yuqorida aytganimizday, har 33 yilda hijriy yil hisobi milodiy yil hisobidan bir yilga ko`payadi. Hosil bo`lgan sonni hijriy yildan ayirib, qolgan songa 621ni qo`shish lozim. Buning

formulasu quyidagicha:

$$\text{Hijriy} - (\text{Hijriy} : 33) + 621 = \text{Milodiy yil}$$

Masalan, 876 hijriy yilni milodiyga aylantirish ushun quyidagi amal bajariladi:

$$876 : 33 = 26,54$$

$$876 - 26,54 = 849,46$$

$$849,46 + 621 = 1470,46 \text{ (milodiy 1471-yil)}$$

Qoldiq bir birlik hisoblanib, yig`indiga qo`shiladi.

2-formula: Hijriy taqvim boshi 622 deb qayd etiladi: $(H + 622) - (H:33) = M$

Hijriy 876-yilni ushbu formulaga solamiz:

$$876 + 622 = 1498$$

$$876 : 33 = 26,54$$

$$1498 - 26,54 = 1471,46$$

$$\text{Hijriy } 876 = \text{milodiy } 1471-1472$$

3-formula: Hijriy taqvim boshi 621,6 deb olinadi. Ko`rib chiqilayotgan hijriy yil 0,97 ga ko`paytiriladi: $(H \times 0,97) + 621,6 = M$

Masalan, hijriy 1422-yilni milodiyga aylantirish:

$$(1422 \times 0,97) = 1379,34$$

$$1379,34 + 621,6 = 2000,94 \text{ (2001)}$$

Qoldiq sonni bir birlik deb hisoblab, yig`indiga qo`shamiz.

Milodiyni hijriya aylantirishning oddiy formulalari

Milodiy yilni hijriy yilga aylantirishning to`rt xil formulasi bor:

1-formula: $(M - 621) : 33 + (M - 621) = H$

Masalan, 1962-yilni hijriya aylantirib ko`raylik.

$$1962 - 621 = 1341$$

$$1341 : 33 = 40,64$$

$$40,64 + 1341 = 1381,64 \text{ (1382)}$$

Demak 1962-yil hijriyda 1382-yilga to`g`ri keladi.

2-formula: $(M - 622) + (M - 622) : 32 = H$

2003-yilni hijriya aylantirish:

$$2003 - 622 = 1381$$

$$1381 : 32 = 43,15$$

$1381+43,15=1424,15$

Milodiy 2003 -yil = hijriy 1424-1425

3-formula: Hijriy taqvim boshi 621,6 deb olinadi. Hijriy va milodiy yil o`rtasidagi farq 33 emas, 32,5 yil deb qayd etiladi.

$$(M - 621,6) : 32,5 + (M - 621,6) = H$$

Masalan, 2001-yilni hijriya aylantirish:

$$2001 - 621,6 = 1379,4$$

$$1379,4 : 32,5 = 42,44$$

$$42,44 + 1379,4 = 1421,84$$

Demak, 2001-yil = hijriy 1422-yil

4-formula. V. Sibulskiy o`zining sinxron jadvallar va izohlar to`plamida quyidagi formulani taklif etgan:

$$(M - 621) + (M - 621) : 32 = H$$

Olim hijriy va milodiy yil o`rtasidagi farqni 33 yil deb emas, balki 32 yil deb oladi. Shunga binoan hijriyni 32 ga bo`lganda hosil bo`ladigan qoldiqni hisobga olmaydi.

Quyida milodiy 1962-yilni ushbu formulaga tatbiq etamiz:

$$1962 - 621 = 1341$$

$$1341 : 32 = 41,9$$

$$1341 + 41 = 1382 \text{ hijriy yil}$$

Demak, m.1962 = h. 1382

Savol va topshiriqlar:

1. Matnshunoslikning tadqiq usullarini sharhlang.

2. Hijriy taqvim tarixi haqida qo'shimcha ma'lumotlar keltiring.

3. Hijriy yilni milodiyga aylantirishning nechta formulasini mavjud?

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Xalilov L. O`qish kitobi. T.: O`qituvchi, 1998

2. Jumaniyozov R. Eski o`zbek yozuvi. T.: O`qituvchi, 1989

3. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.: 2019.

7-mavzu: Qo`lyozma kitoblarning ichki tuzilishi va bezaklari

Reja:

- 1. Kitobat san'ati tarixi.*
- 2. Xattot faoliyati va ish qurollari.*
- 3. Lavvoh faoliyati.*
- 4. Mussavvir faoliyati.*
- 5. Sahhof faoliyati*

Tayanch so'z va iboralar: *kitobat san'ati, xattot, lavvoh, musavvir, sahhof, mistar, unvon, muqova.*

Islom madaniyatida, xususan, O`rta Osiyo madaniyatida yozma matnlarni kitob holiga keltirish san'at darajasiga ko`tarilgan. A. Murodovning “O`rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan” kitobida muslimon kitobat texnikasi haqida mukammal ma'lumotlar berilgan.

Qo`lyozma kitoblarda nasriy matnlar, odatda, gorizontal, biri ikkinchisiga parallel holda bitilgan. She'riy asarlar esa 10-20 qatordan, ustun tartibida bitilib, girdi hoshiyalar bilan o`ralgan. Ba'zan qo`lyozma sahifalariga geometrik shakllar, bodom, nok shakli, turli idish-tovoqlar, tumor ko`rinishli uchburchaklar, qush va boshqa hayvon rasmlari ishlanib, matn ularning atrofiga yoki oralariga yozilgan.

Sahifa matni bir yoki bir necha chiziqli zarhal, qora va boshqa rangli hoshiyaga o`ralgan. Kotib yoki o'quvchi hoshiyadan tashqariga zarur qaydlarni belgilab borgan. Ayrim diniy-falsafiy, ilmiy asarlar hoshiyasiga sharhlar ham bitilar edi. Sharhlar ba'zida satr oralig'idagi bo'sh joylarga ham yozilgan. Ayniqsa, keyingi asrlarga mansub qoiyozmalarda bunday sharhlarni ko'p uchratamiz. Qizig'i shundaki, ba'zan hoshiyaga boshqa original asar ham yozilgan.

Arab yozuvli qoiyozmalarda matn o'ngdan chapga yoki tepadan pastga qarab yozilgan. Bu, o'z navbatida, qatorlar soni, sahifalar, boblar, kitob jildidan kelib chiqqan. Qo`lyozma

uni hosil qiluvchi har biri 10- 12 varaqli daftarlар - juzlардан tashkil topgan. XIV asrdan e'tiboran varaqlarga *poygir* belgilari (varaqlar oldinma-ketinligini ko'rsatuvchi ifodalar) qo'yilgan. Keyinchalik, XVIII-XIX asrlardan sahifalarga *tartib ko'rsatkichi* qo'yila boshlandi (bu ehtimol Yevropa ta'sirida ro'y bergen bo'lishi mumkin). Har qaysi varaqning ikkinchi sahifasiga, hoshiyadan tashqariga o'tish belgisi - *hafiz* qo'yib ketilgan. Odatda, hafiz navbatdagi sahifaning bosh so'zidan iborat bo'lar edi. Kotiblar ushbu belgini ish jarayonida qulaylik bo'lsin deb o'ylab topganlar va bu narsa o 'z navbatida kitobdan foydalanuvchilar uchun ham juda qo'l kelgan. Arab yozuvida bitilgan asarlarning eng yirik tarkibiy kitobiy bo'linmalari sifatida *kitob va jild* nomlari ishlatilgan. *Qism, fasl, bob, maqolot* kabi nomlanishlar esa kitobning yoki jildning ichki, nisbatan kichikroq bo'laklari tushunchasini ifodalagan. Bibliografik va qomusiy asarlarda fan istlohi (termini) bilim sohalarining turi va xillariga nisbatan qo'llanilgan. Qism, bo'lim, bob va boshqa tarkibiy birliklar matn ichida odatda goh yirik yozuvda qator qilib ajratilgan, goh ularning nomiga maxsus sahifalar berilgan. Kotibning buyurtmasiga muvofiq lavvoh usta tomonidan ba'zan bu kabi ajratilgan satrlar yoki sahifalar maxsus naqsh bezaklar sifatida ishlanib, o'z o'rnida san'at namunasiga aylangan. Nomlar va bosh harflar qizil, zarhal ranglarda yozilib, jadval chizmalar, naqsh va naqsh lavhalar orasiga olingan.

Har qanday asar beistisno «Bismillohir rahmanir rahim» jumlesi bilan boshlanib, bu jumla musulmon xalqlari kitobat ishida hech qachon tarjima qilingan emas. Hozirgi zamon matnshunoslik fanida bu jumla qisqartilib «*bismillo*» deb qo'ya qolinadi, ruscha nashrlarda «*basmala*» deb beriladi. «*Bismillo*»dan keyin Ollohnинг sha'niga hamdu sano keladi, undan keyin uning payg'ambari Muhammad alayhissalom sharafiga *na't* keladi. Bu zaruriy unsurlar ham matnshunoslikda qisqacha qilib *hamdulloh* yoki *na't* deb yuritiladi. Har bir muallif ijodiy tarzda hamdulloh matni ichiga islom dini, islom jamoasi hamda mazkur asarga bag'ishlangan bilim sohasining maqtovlarini ham kiritishi mumkin bo'lган. Hamd, sano va

na'tdan keyin odatda «va ba'du» so'zi ishlatalib, shu yerdan kitobning asl muqaddimasi boshlangan. Shuning uchun hozirgi matnshunoslar biror asarning bosh qismini tavsif etmoqchi bo'lsalar undan ikki parchani keltiradilar. Birinchisi «hamdulloh» formulasining bosh qismi, ikkinchisi -« va ba'du» so'zidan keyingi dastlabki jumlalardir.

Asarning nomi va muallifning ismi-sharifi birinchi varaqning matndan xoli birinchi sahifasini band etgan. Ba'zan asar matni boshida shu varaqning orqa sahifasida alohida ajratilgan satrda berilgan. Ko'pincha asar nomi va muallif ismi-sharifi birinchi varaqning har ikki sahifasida kelishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, shu ma'lumotlar kitob matnining so'ngida *ta'rix (kolofon)* sifatida berilgan bo'lishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan holat deb muallifning ism-sharifi asarning birinchi sahifalarida kelishini atash mumkin. Ba'zan asarning nomi qo'lyozma egasi yoki kutubxonachi tomonidan asar muqovasi ustiga yoki yoniga yozilardi. Qo'lyozmaning asosiy matni birinchi yo ikkinchi varaqning orqa sahifasidan boshlanadi. Matn birinchi varaqning orqasidan boshlanganda uning o'ng yuzasi yumaloq yoki yulduzsimon gulbarchin naqsh bilan bezatiladi. Naqshning o'rtasiga oltin suvi, lojuvard, pistoqi, qizil va boshqa ranglar bilan quyoshsimon yumaloq lavh tasvirlanadi. Bu *shams* deb ataladi (arabcha *quyosh* demakdir). Shams o'rtasiga asarning nomi, muallif ismi sharifi kabilar husnixat usuli bilan joylashtirilgan. Agar shams o'rtasida faqat buyurtmachining nomi yozilgan bo'lsa, bu kitobning mansubligi, kimga tegishlilagini ko'rsatadi. Yevropa kitobat ishida bunday belgi *eksliris*, ya'ni «falonchining kitoblaridan» degan ma'noni bildiradi. Birinchi varaqning orqa sahifasi va ikkinchi varaqning oldi sahifasi yirik va chiroyli *unvon* bilan bezatilgan bo'lsa yoki har ikki sahifaga yaxlit bitta *naqshli bezak (frontispis)* chizilgan bo'lsa, kitob matni ikkinchi varaqning orqa sahifasidan boshlangan. Turonzamin qo'lyozmalarining ichki bezaklari uchun zarur hisoblangan unsur (element) sifatida unvonlar va frontispislar kulliyotlarda, dostonlarda, devonlarda bir necha joyda uchrashi mumkin. Bundan maqsad shuki, bular bir asarni

ikkinchisidan ajratish uchun maxsus xizmat qilgan. Masalan, "Xamsa"lar, Navoiy kulliyoti qo`lyozmalari («Xazoyin-ul maoniy» devonlar to`plami) va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Aytish lozimki, bir qo`lyozma ichida unvonlar va frontispislar bir-birini hech qachon takrorlagan emas.

Arab yozuvida tinish belgilari kamdan-kam qo`llanilgan. Odatda, gaplar matnning boshqa yirikroq bo`laklari singari sintaktik vositalar yordamida chegaralanadi va o`zaro birikadi. Tinish belgilari sifatida uchburchak shakldagi yulduzcha, kichik doiracha (ba`zan o`rtasida nuqta ham bo`ladi) kabi belgilar ishlatilgan. Ular bitta, juft yoki uchtagacha ketma-ket qo`yilgan. Ko`pincha tinish belgilari rangli bo`yoqlar, oltin suvi (hal) bilan bezak maqsadlarida ham qo`yiladi.

Arab yozuvida qisqa unlilar aks ettirilmagani, qo'sh undoshlar orfografiyasining yo'qligi tufayli unlilarni ko`rsatish va boshqa ba`zi orfografik ifodalami aks ettirish uchun satr ostida yoki ustida maxsus ishorat belgilari qo`llangan. Shuning uchun arab yozuvidagi matn ixcham va siqiq bo`lgan. Shu xususiyat arab yozuvida tayyorlangan kitob jildiga ko`p miqdorda asarlarni joylashtirish imkonini bergen. Kitobat ishidagi devon, bayoz, tazkira, majmua kabi to`plamlar hamda kulliyot, "Xamsa" kabi yirik to`plamlar, ortiqcha qiyinchiliksiz, bir jild hajmida joylasha olgan.

Husnixat ustasi - kotib kitobning eng asosiy ijrochisi va yaratuvchisidir. Xattotning matn ko`chirishi uchun dastlab yaxshi, *sifatli qog`oz* talab qilinardi. XV asrlarda eng sifatli qog`ozlar Samarcand va Buxoroda tayyorlangan. Sifatli qog`ozlar ikki xil bo`lgan: 1) faqat ipak loslardan tayyorlangan pishiq va silliqlikda tengi yo`q qog`ozlar; 2) ipak va kanopdan tayyorlangan qog`ozlar. Bu qog`oz pishiq, salmoqli va yaxshi ohorli bo`lib, "qog`ozi nimkatoni" deb ham atalgan. Qamish qalamdan qog`ozga siyoh tomib ketmasligi uchun dovotga, ya`ni siyohdonga *ipak los* solingan. Siyohda bo`kkan loslar qalamning yetarli miqdorda siyoh bilan ta'minlanishiga va kotibning bekam-u ko`sht ishlashiga yordam bergen. Xattotning ish qurollaridan yana biri *mistardir*. Mistar qalin karton qog`ozdan

yoki tikilgan bir necha varaq pishiq qog`ozlardan iborat bo`lib, unga yo`g`on ipak iplar tortib qo`yilgan. Iplar bir-biridan ma'lum va teng masofada parallel qatorlarda yoki qiya tortilib turgan. Xattot mistarni qog`ozning tagiga qo`yib, toza qo`li bilan qog`ozni bosadi, natijada, iplarning izi qog`ozga tushadi. Bu izlar maxsus chiziq o`rnini bosgan. Mistarning kattaligi qog`ozning hajmiga teng bo`lgan.

Buyurtma qilinayotgan kitob haqida barcha muzokara kotib bilan olib borilgan. U kitobning bor matnini ko`chiribgina qolmay, uning tuzilishi bilan bog`liq barcha unsurlarni rejalashtirgan. Bezak va miniaturalar uchun ochiq joylar va sahifalar ajratgan. Umuman, musavvir va lavvohning kitobni tayyorlashdagi ishlarini oldindan belgilab bergen. Kotib kitobning mazmuni va maqsadiga muvofiq u yoki bu xat xilini tanlagan. Sahifalar bo`ylab ustunlar va qatorlar sonini belgilagan. She`riy matnlarni kitob betlarida badiiy did bilan joylashtirish kabi vazifalarni bajargan. Masalan, yirik hajmli she`riy doston sahifada g`azal, mustazod, musaddas va boshqa kichik janrlardan farqli joylashtirilgan. Ruboiy, tuyuq, chiston, fard kabilar ham har bir asarni ajratib ko`rsatishga mo`ljallab bezaklar vositasida joylashtirilgan. Masnaviy, qasida, soqiy nomda kabi poetik asarlar ham o`ziga xos kompozitsiya talablariga muvofiq o`rin topgan. Qo`lyozma kitoblarda matnlar turli shakllarda: sidirg`a, ikki ustun, to`rt ustun, zina, romb, doira shaklida, qiya holda va boshqa geometrik shakllarda joylashtiriladi. Bunday shakllar ma'lum ma'noda bezak vazifasini ham o`tagan. Odatda g`azal, qit'a, ruboiy kabi lirik janrlar ikki ustun shaklida, dostonlar to`rt ustun shaklida bitilgan. Matn zina shaklida joylashtirilganda baytlarning birinchi misralari sahifaning o`ng tomoniga, ikkinchi misralari ularning ostiga chap tomonga surilgan holda yozilgan. Bo`s sh qolgan joylar turli bezaklar bilan bezatilgan.

Har bir xattot mayda va yirik harflar bilan yoza olgan. Yana xattotlar Turonzaminda keng tarqalgan *nasx*, *nasta`liq* va *suls* xat turlarini mukammal bilmog`i shart hisoblangan. *Nasx* xatida odatda Qur'on oyatlari, hadislar, hadislardan parchalar yozilgan. *Nasta`liq* xati bilan ko`proq badiiy adabiyot

va tarixiy asarlar ko'chirilgan. *Suls* xatidan esa ilmiy asarlarni ko'chirishda, badiiy asarlar namunalarining sarlavhalarini, bo'lim nomlarini, bob va ruknlarini ajratishda foydalanilgan. Bulardan tashqari Turon xattotlari tomonidan nasriy qissalar. yilnomalarni kabi asarlarni ko'chirish uchun *rayhoniyl* xatiga murojaat etilgan. Ba'zan badiiy-adabiy asarlar uchun *shikasta*, Qur'on parchalari va diniy-ahloqiy mazmunli asarlar uchun *muhaqqaq*, qonunchilik hujjatlari, farmon va buyruqlar uchun *tavqi'*, kundalik ish yuritish yozishmalari va maktub-munshaot uchun *riqo'* kabi xat turlaridan foydalanilgan.

Xattotdan keyin qo'lyozma tayyorlash jarayonining navbatdagi ishiga musavvir, naqqosh kasbidagi san'atkor kirishgan. Ijodiy faoliyati asosan serbezak asarlarda aks etsa ham, naqqosh-u musvvirlar kitobatishida alohida o'rincutganlar. Mo'jaz surat (miniatura) dastlab ingichka, nozik ochilgan qalam uchida qora bo'yoq bilan bo'lajak rasm chizgilarini, uning ishtirokchilari qiyofasini, kiyim, imorat, manzara, ko'plab turmush lavhalarini xomaki chizib olishdan boshlanadi. Kitob varag'ining kichkinaligi tufayli mo'jaz suratda bir sathlilik, uzoqlashuvchi orqa qatorlarni tasvirlamaslik, birinchi qatordagi tasvirlarning soyasini ifodalamaslik kabi o'ziga xos shartliliklar yuzaga kelgan va san`atda o'z qonunlariga ega bo'lgan. Mo'jaz surat ko'pincha mumtoz adabiyotning she'riy va nasriy asarlariga, tarixiy va tarixnavislik kitoblariga, kamdan kam hollarda ilmiy risolalarga ishlanardi. Mo'g'ul istilosining oqibatlari tugatilganidan keyin Turonzamin madaniy hayotida ro'y bergan yalpi ko'tarilish davrida o'tmish davrlar tavsiriy san'atining davomchisi bo'lmish mo'jazsuratchiliko'zining yangi yuksalish bosqichiga kirdi. Mo'jaz tasviriy san'at XIV asrning birinchi yarmida Turonzamin miniatura san'ati maktabining asoschisi bo'lgan samarqandlik rassom Ustod Gung tomonidan qayta tiklangan. Kitobiy miniatura rassomchiligi shu vaqtda Samarqand va Buxoroda baravariga paydo bo'ldi. Sharqda «Ustodun musavvirin» deb ulug'langan buxorolik mashhur rassom Jahongir Buxoriyning Samarqandda Ustod Gungdan bu san'at sirlarini o'rgangani ma'lum. Amir Temur saltanatining

ilk davridayoq (1370-yil) bu shaharlarda ko'plab mashhur rassomlar ishlamoqda edi. Hindiston, Yaqin va O'rta Sharqning turli o'lkalardan Temur keltirgan me'morlar, kotiblar, amaliy san'at ustalari Samarcandda to'plangan davrda Turon san'at mакtablari bilan ularga qo'shilgan yangi maktab va yo'nalishlar o'zaro jadal bir-birini boyita boshladi. XIV asr oxiri - XV asr boshlarida Samarcandda eng mashhur yirik ustalardan Xoja Abdulhay, Ustod Shamsiddin, Pir Ahmad Bog'ishamoliv, Junaid Naqqosh kabilar yashardi. Miniatura san'ati ulkan davlat arbobi va olim Ulug'bek (1394 - 1449) Samarcand taxtida o'tirgan davrda (1409 - 1449), ayniqsa, yuksak taraqqiyotga erishdi.

XV asrning birinchi choragi tugashiga kelib Samarcand va Buxorodan tashqari Hirot shahri ham miniatura san'atining markaziga aylanib qoldi. Ayniqsa, XV asr ikkinchi yarmida (Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrlari) Hirot miniatura maktabi ayniqsa tez rivojlandi va yuksak natijalarga erishdi. Hirot miniaturachilari orasida o'z ijodini 1430- yillarda boshlagan Miraki Naqqosh, Qosim Ali, Sulton Muhammad, Do'st Muhammad, Abdul Razzoq kabi atoqli san'atkorlar bor edi. Hirot mакtabining xususiyatini va uslubini belgilab berishda Sharqning buyuk rassomi, miniaturachi musavvir Kamoliddin Behzod (145 - 1535) yetakchi o'ren tutdi. Behzodning shakllanish davri Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyalar bosh bo'lgan demokratik ijodiy muhitda o'tdi (1480 - yillar). Buyuk shoirlarning insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan sharq mumtoz adabiyoti Behzod iqtidorini yanada yuqori cho'qqilarga olib chiqди. Behzodning san'atkor sifatidagi buyuk xizmati shundaki, u miniatura san'atining cheklangan, o'ziga xos shartliliklari doirasida turib nafaqat hayotning va uni o'ragan muhitning real manzaralari-yu turli-tumanliklarini, o'simlik va hayvonot dunyosini, kiyim-kechak, imoratlar, musiqa asboblari va hokazolarni, G'arbiy Eron miniaturachilik mакtabidagi bezak, hashamkorlikdan farqli ravishda, o'z davrining chin ma'nodagi qiyofasini chizishga muvaffaq bo'ldi. Behzod suratlarida shahar quyi tabaqalari hayoti, dehqonlar, hunarmandlar, saroy hayoti lavhalari, yuqori tabaqa peshvolari, amaldorlar va boshqa

ko'plab noyob tarixiy manzaralar o'zining real tasvirini topgan. Behzodning Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asariga, Alisher Navoiyning «Xamsa» siga kirgan dostonlarga, Sa'diyning «Bo'ston»iga, Nizomiyning «Iskandarnoma» dostoniga chizgan suratlari mashhurdir. Behzod miniatURA sohasidagina emas, balki psixologik portret ishlashda ham mashhur bo'ldi. Bu sohada uni G'arbiy Yevropaning eng mashhur rassomlari Memling, Dyurer, Golbeyn kabilar bilan tenglashtirishgan. Jomiy, Xotifiy, Sulton Husayn, Shayboniyxon portretlari Behzodning nozik chizmakashlik uslubidan dalolat beradi. Uning bu asarlari o'rta asr rassomchilik san'atining tengsiz namunalari sifatida g'oyat qadrlidir.

Ilmiy asarlarga ishlangan suratlar badiiy va tarixiy asarlardagi miniaturlardan farq qilib, bezak alomatlaridan xoli, asosan amaliy maqsadlarga xizmat qilgan. Uslub jihatdan chizmakashlik talablaridan kelib chiqib. badiiylik da'vosidan xoli bo'lgan. Chizma tasvir unsurlari aniq ifodalangan. Tibbiyat dorishunoslik (saydana), nabotot (botanika) ilmi, kimyo bo'yicha risolalarda kitoblarning u yoki bu qismidagi nazariy masalalarni izohlovchi turli-tuman tasvirlar ko'p miqdorda uchraydi. Bular orasida o'rta asrdagi har xil tibbiy asboblar - lantset, qaychi, kuydirgich asboblar, qisqichlar, tutqich, taxtakachlar, turli dorivor o'simliklar tasviri, buta, daraxt va boshqalarning ildiz, barg, novda, gul va mevalari, hayvon tasvirlari, qushlar, baliq kabilar, ba'zan odam tasvirlari ham teztez uchrab turgan. Masalan, samarqandlik kotib Muhammad Husayn bin al-Mirakiy tomonidan 1541- yili ko'chirilgan Xoja Zayniddin Attorning «Ixtiyorati badeiy» («Tanlangan dorivorlar») nomli kitobida 601 dona rasm bo'lib, ikki marta odam tasviri uchraydi.

Abdulla Shifosiyning (Xasr) «Kimiyo» risolasining XVII asrda ko'chirilgan qo'lyozmasida nafaqat javharlar va boshqa moddalar, balki ular saqlanadigan idishlar, qo'ra-o'choqlar, shisha quyishda foydalilanigan qoliqlar (tigl), kimyo asboblari, hatto o'rta asr kimyogarlarining mumiyoni bug'lab tozalash usullarini tasvirlashga ham urinilgan. Yana bir rasmida VIII-

IX asrlarda yashagan Turon tabobat olimi Jobir al-Kindiyning shogirdlari bilan mumiyo va boshqa dorilarni tayyorlash haqidagi suhbatи tasvirlangan.

Kotib ko'chirgan kitob rassom miniaturalarining varaqlari bilan birga lavvoх qo'liga tekkan. Lavvoх kitob tuzuvchi san'atkor bo'lib varaqlarni birlashtirish, daftarlash, tikib yig'ish bilan kitob jildiga tayyorlagan. Lavvoх odatda birinchi galda qo'lyozma sahifalarini, ba'zan matn ustunlarini rangli chiziqlarda ishlanadigan jadval ichiga olgan. Hoshiyalar rangli bo'lishi lozim bo'lgan hollarda lavvoх avval oq qog'oz sahifasidagi matnni jadvalga olgan, so'ngra kerakli rangli hoshiyani tanlab, ohista yopishtirib chiqqan. Hoshiya bilan matn jadvali orasida hosil bo'lgan chok ustidan chiroyli qo'sh chiziqli chilvir tasvir chizilgan va yagona rang-barang to'g'ri to'rtburchak matn maydoni va sahifa bo'lib shakllangan. Hoshiya bezagiga alohida ahamiyat berilgan. Matnning ikki chetidan keng hoshiya qoldirilgan. Ba'zan sahifaning uchdan birigacha hoshiya egallab, qimmatbaho serhasham qoiyozmalarda nozik naqshin islimiy yoki girih chizmalar bilan bezalgan. Ba'zan esa hoshiyalarda muayyan voqeabandlik yoki yovvoyi hayvonlar va qushlarning siluet tasvirlari ishlangan. Bu bezaklar suyuq qizil oltin eritmasi - *hal* bilan yoki rang eritmalari vositasida ishlangan. Hoshiyalarda qat'iy mutanosiblikda joylashgan bu kabi yopishtirma va chizma tasvirlar qog'oz betida o'ziga xos inkrustatsiya hosil qilardi. Ko`p hollarda sahifa va hoshiyalarga oltin eritmasini yengil sachratish orqali bezak berilgan. Sachratqi berilgach, ustidan qog'oz yaxshilab muhrlanib silliqlangan. Bu ishni ishqoriy qorishma vositasida *loklash* deyilgan. Yuksak did, me'yoriy tuyg'u, nozik his bilan bezatilgan qo'lyozma betlari va hoshiyalari muayyan kayfiyat paydo qilgan. Lavvoх bezaklarasi asar g'oyasining qo'shimcha ifoda vositalari bo'lgan, muallif fikrini aniqroq berishga ko'maklashgan, kitob matnining va umumiy mazmunining ajralmas qismiga aylangan. Keng hoshiyalar diqqatning bo'linishiga yo'l qo'ymas edi. Ular ko'zga dam berar, o'quvchi ruhiy holatiga osoyishtalik bag'ishlardi, yorqin bo'yoqlar xursandchilik uyg'otardi, matn mazmunini

singdirishga xizmat qilardi.

Qo'lyozma kitobni yaratish va badiiy bezash jarayonini muqovasoz-sahhof yakunlagan. Bu kasb egasi kitob varaqalarini yig'ib sahifalagan, birlashtirib tikkan va muqovaga olgan. Muqovaning bir necha unsurlari, qismlari bo'lgan: ustki va ostki qopqoqlar, qobirg'a. Qobirg'a qismi kitob to'plamini birlashtirib, qopqoqlar orasiga siqib turgan. Muqovaning asl maqsadi undagi matnni, qolaversa, kitob materiali - charm, qog'oz va boshqalarni namdan va turli buzilishlardan asrashga qaratilgan. Muqova qopqoqlari yog'och taxtachadan, papemashyedan yasalib, ustidan charm yoki mato qoplangan. Yana ko'p hollarda muqova toza sifatli butun charmdan ham ishlangan. XIV asr oxirlaridan boshlab muqova assosiga karton ishlatila boshlagan. XV-XVII asrlarda Samarqand, Buxoro, Hirot kitobat markazlarida kartondan muqova uchun keng foydalanilgan va bu sifat jihatidan yangi material sahhoflik san'atidan mustahkam o'rinni oldi. Shu bilan bir qatorda butun o'rta asrlar davomida chinor taxtachasidan ishlangan naqshinkor o'yma bezakli, ba'zan singdirma naqshin muqovalar rasm bo'lgan.

Kitobat san'atida quyidagi asosiy tushunchalar ham qo'llanadi:

1) *matn* - kitobning asosiy qismi, unga jadval, hoshiya yozuvlari, poygirlar kirmaydi;

2) *unvon-* ilk sahifaning yuqori qismiga joylashtiriladigan naqsh;

3) *lavh-* kitobat san'atida qo'llanadigan badiiy bezak; matn boshlangan sahifaning bosh qismiga chiziladigan naqsh. Agar qo'lyozmaning tarkibida bir nechta asar bo'lsa, lavhlar ham bir nechta bo'ladi;

4) *poygir-o'zidan* keyingi sahifaning shu so'z bilan boshlanishini bildirib keluvchi so'z bo'lib, sahifalar ketma-ketligini belgilash uchun bet raqamlari o'rniga ishlatiladi; o'ng sahifaning eng ostiga, chap tomonga joylashtiriladi;

5) *kolofon-* ichiga kotib nomi va muhri, qo'lyozmaning ko'chirilish va tugatilish sanasi, kotibning qo'lyozma so'ngida keltiradigan mulohazalari yoziladigan uchburchak shakl.

Hozirgi kunda qo`lyozma fondlarida saqlanayotgan kitoblarda poygir va arabiylardan tashqari har bir varaq alohida nomerlanadi. Bunday manbalardan foydalanganda qo`lyozmaning inventar raqami va varag`i ko`rsatiladi. Varaqning o`ng yuzi “a” harfi bilan, chap yuzi “b” harfi bilan belgilanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Kitobat san'ati tarixi haqida qo'shimcha ma'lumotlar to`plang.*
2. *Xattot faoliyati va ish qurollari haqida so`zlang.*
3. *Lavvoh faoliyati nimalardan iborat?*
4. *Mussavvir faoliyati qo`lyozma asarning qaysi turida ahamiyatli hisoblanadi?*
5. *Sahhof faoliyati necha bosqichdan iborat?*

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Hasaniy M. Sharq qo`lyozmalarini tavsiflash va fixristlash.
- T.:2004.
2. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019.
3. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik tarixidan. -T.:1971.
4. Ziyodov Sh. Markaziy Osiyoda ilk toshbosma kitoblar nashri tarixidan. T.: Sharqshunoslik, 2009 №14.

8-mavzu: Harfiy san'atlar. Abjad. Tarix. Muammo. Hurufi dalolat. Muhrlar

Reja:

1. *Harfiy san'atlar.*
2. *Abjad. Tarix.*
3. *Muammo.*
4. *Hurufi dalolat*
5. *Muhrlar.*

Tayanch so'z va iboralar: *harfiy san'atlar, abjad, tarix, muammo, hurufi dalolat, muhrlar.*

She'riyatda arab alifbosining har bir harfi shaklidan inson qiyofasi, xulq-atvorini tasvirlash ***kitobat san'ati*** deb atalgan va shoir mahoratidan darak berib, she'r badiiyatining bezagi deb qaralgan. *Alif* – to`g`rilik belgisi, yosh qomat; *dol-* qarilik, bukilgan qomatni ifodalaydi. *Jim* – mahbubaning zulfi; *nun* – mahbubaning qosh-ko`zi; *sin-* mahbubaning tishlari... Shoirlar xilma-xil shakllar yaratish, ulardan o`rinli foydalanishda bir-birlari bilan musobaqalashganlar. Harflar vositasida tasavvur uyg`otishning bir necha usullari bor. Lirik qahramon qiyofasini tasvirlashning 4 usuli:

1. Tashqi qiyofani tasvirlash usuli:

*Tushganim Majnun bila Farhod ayog`iga ko`rub,
Gah tanimni "nun" qilib, gohi qaddim "dol" aylamish.*

2. Lirik qahramonning ichki dunyosi - siyrati so`z o`yini shaklida ifodalanadi:

*Ko`nglimga dard kelgali xam bo`ldi qomatim,
Qadim magarki "dard" oyoqidag`i "dol"dur.(Bobur)*

3. Qahramonning ahvol-ruhiyasi biror so`zning barcha harflariga yangi so`zlar orqali ma`no berish usuli bilan ifodalanadi.

"Jon" imdag'i "jim" ikki dolingga fido,

*Andin so'ng "alif" toza niholingga fido,
"Nun"i dog'i anbarin hilolingga fido,
Qolgan ikki nuqta ikki xolingga fido. (A.Navoiy)*

4. Xat uslublari nomlaridan ham badiiy ifoda sifatida foydalanish.

*Havoyi xoki poying sharhini tahqiq edan mardum,
G'ubor ila bayozi didayi xunbora yozmishlar. (Fuzuliy)*

Abjad - arab alifbosidagi harflarni raqamlarga aylantirish usulidir. Arab alifbosi 28 harfdan iborat. Alifbodagi birinchi kelayotga 9 ta harf birlik sonlarni ifodalaydi. Shu tartibda o'nliklar, yuzliklar va mingliklar keltiriladi. Bu hisob *jumal hisobi* deb ham ataladi.

Arab yozuvi o'zining go'zalligi, xushxatligi bilan jahon xalqlarining e'tiborini doimo jalb qilib kelgan. O't mishda bu yozuv tarixiy yodgorliklar, ulkan inshootlar, osori atiqalar uchun naqsh, bezak vazifasini ham bajargan. Bulardan tashqari uning yana bir muhim vazifasi bor, u ham bo'lsa arab alifbosining raqam, son ma'nosini ifoda etish bilan bog'liqligidir. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, arablar (miloddan 2000 yil ilgari) o'z alifbolarini tuzishda qadimgi yozuvlar bo'lmish finikiya va oromiy yozuvlaridan harflar nomlarini va ular bilan birga har bir harfning raqamiy tengligini ham olganlar. Demak, abjad hisobining tartibi finikiya va oromiy yozuvlaridan kelib chiqqan. Lekin ularning alfavitida harflar soni yigirma ikkita bo'lib, to'rt yuzdan keyingi sonlarning ifoda qilinishida oxirgi harf «tav»ga oldingi harflardan birini qo'shib besh yuzdan minggacha bo'lgan son ifodalarini hosil qilganlar (Masalan: tavqof, tavresh, tavshin kabi). Arablar bu usulni biroz takomillashtirdilar. Ular oltita harf ixtiro qilib «saxaz» va «zazag» so'zlarini yasadilar. Bu atamalar besh yuzdan minggacha bo'lgan son ifodalarini hosil qilishga yordam berdi. Shu tariqa arablarda yigirma sakkiz harfni o'zida jamlovchi sakkiz atama (sun'iy so'z) hosil bo'lgan. Bular quyidagilar:

Abjad— alif -1, be -2, jim-3, dol-4 ;

Havvaz – he-5, vov-6, ze-7 ;

Hutti – 8 – he, to-9, yo-10 ;
Kalaman —kof -20, lom - 30, mim - 40, nun - 50 ;
Sa'ufas—sin - 60, ayn -70, fe -80, sod - 90 ;
Qarashat—qof - 100, re -200, shin - 300, te - 400 ;
Saxxaz— se - 500, xe - 600, zol -700 ;
Zazag`—zot - 800, zo(izg`i) - 900, g'ayn - 1000.

Mazkur atamalar muayyan bir ma'noni anglatmaydi, ular harflar mujassami xolos. «Abjad hisobi» ana shu atamalarning birinchisi nomiga qo'yilgan. Harflar vositasida son tushunchasini ifoda etish usuli esa «abjad hisobi» deb atalgan. Bu usul harflar sirasini yod olishda qulay bo'lgani sabab maktablarda maxsus o'qitilgan va abjad o'qiyotgan bolalar «abjadxon» deb atalgan. Eski o'zbek yozuvidagi forslar va turklar tomonidan keyinchalik kiritilgan to'rt harf ب، ج، ڦ، ڻ borasida abjad hisobi amalgalashirilayotgan matnda ushbu harflar ishtirok etayotgan bo'lsa, hisobda ularning shakldoshlari (ب، ج، ڦ، ڻ) dan istifoda etilgan. Abjadning kelib chiqishi haqida ham qat'iy bir fikr mavjud emas. «Abjadni hukamolar tartib bergenlar, hijo harflarining hammasi unda to'plangandir va ma'nisi yashiringandir» yoki «Abjad mashhur kishilar nomidan olingan» qabilidagi farazlar yuradi. Manbalarda keltirilishicha, arablar qadimda abjad atamalaridan hafta kunlarini nomlashda ham foydalanganlar. Abjad hisobining ixcham, lo'nda va qulayligi uning she'riyatda ham keng qo'llanishiga sabab bo'ldi. Biron muhim hodisa, voqealarning sodir bo'lgan vaqtini, qo'lyozmalarning yozib tugallangan yilini, mansabdor shaxslarga bag'ishlab yozilgan qasida va tarixlar sanasini berishda sonlar harflar bilan ifodalangan. Bu usul muayyan sanani she'riyatda ixcham holda ifodalashni ta'minlashi bilan birga, ularni esda tutishni ham osonlashtirgan. O'zbek va sharq she'riyatining asosiy an'analaridan hisoblangan qator she'riy san'atlar asosini ham ana shu abjad hisobi tashkil qilgan. Hatto bu usuldan foydalanib maxsus asarlar yaratilganki, ularning ayrim namunalari bizgacha yetib kelgan. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, abjad hisobi musiqa san'atida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan. XV asrda yashab ijod etgan mashhur musiqashunos Zaynobiddin

bin Mahmud al-Husayniy Navoiyning topshirig'i va unga atab yozilgan «Qonuni ilmiy va amali musiqiy» («Musiqaning ilmiy va amaliy asoslari») asarida cholg'u asboblaridan baland va past tovush hosil bo'lish sabablari, intervallar va ularning nisbiy munosabatlari kabi masalalarini yoritishda abjad usulidan foydalangan. Abjad hisobidan boxabar bo'lishning hozirgi davrda ham ahamiyati katta. Ajodolarimizdan bizgacha yetib kelgan qo'lyozma manbalari bilan shug'ullanadigan har bir shaxsning yozma yodgorliklar yaratilgan yoki nusxa ko'chirilgan yillarini aniq belgilashida hamda abjad hisobi bilan bog'liq muayyan she'rlar va harfiy san'atlarning tarixini aniqlashda abjad hisobidan yaxshi xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Tarix biron muhim voqealarning sodir bo'lgan vaqtini aniq ifodalaydigan maxsus nazmiy asar bo'lib, qofiyalanish va hajm jihatidan qat'iy bir qoidaga ega emas. Shu sabab u masnaviy, qasida, g'azal va boshqa janrlarda ham yozilishi mumkin. Tarixlar asosan qo'lyozma yodgorliklarning yozilishi, xotima topishi, nusxalar ko'chirilib tugallanishi, hukmdorlarning taxtga o'tirishi yoki chetlatilishi, harbiy yurishlar vaqtidagi g'alaba yoxud mag'lubiyat, madrasa, masjid, yirik inshootlarning qurilishi, ta'mirlanishi, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi bilan bog'liq voqealar munosabati bilan bitilgan. Tarix janri ba'zi xususiyati bilan muammoga o'xshab ketadi. Muammoda biron nom yashirib berilsa, tarixda biron raqam, sana yashiringan bo'ladi. Raqamlarni she'rga kiritish vazn nuqtayi nazaridan qiyin bo'lgani sabab, shoirlar abjad hisobiga murojaat qildilar. Ya'ni ro'y bergan voqealarning sanasini harflar orqali ifodalash usulini qo'llab ta'rixlar yaratdilar.

Tarix yozishning bir necha talablari mavjud:

1. She'rda zikr etilajak sana aniq bo'lishi kerak.
2. Raqamlarni hosil qiluvchi harflar yig`indisi muayyan ma'noni anglatishi lozim. Tarix muddasining muayyan bir leksik birlikni ifodalashi bilan bir qatorda uning she'r matniga mos kelishi shoirdan katta mahorat talab qiladi. Masalan, qozi Ixtiyoriddin Mo'min Mirzo vafotiga "xarobi mulk", ya'ni "mamlakat xarob bo'ldi" so'zini tarix qilgan. Abjad

bo'yicha harflarni raqamlarga aylantirib qo'shsak, ushbu tarix moddasidan hijriy 903 - yil chiqadi.

3. Tarix moddasi kam sonli bo'lsin. Masalan, Alisher Navoiy Shoh G'arib Mirzo mast holda vafot etgani uchun "maxmur" so`zini ta'rix qilgan. Undan abjad hisobi bo'yicha hijriy 886 - yil chiqadi.

Tarixning bir necha turlari mavjud: 1. **Suvariyy tarix** - sana aniq ko'rsatilgan tarix, bunda abjad hisobi kerak bo`lmaydi: *Chu tarixi yilni onglay dedim tuz, //Sekiz yuz seksan erdi dog'i to'quz yuz.* ("FSh").

2. **Ma'naviy tarix** – abjad hisobida so'zga aylantirilgan tarix moddasining ma'nosi mavzuga mantiqan mos keladi. O'quvchi harflarni songa aylantirib, barchasini qo'shamdi. Yig'indi hijriy sanaga teng bo'ladi. Masalan, Mavlono Darveshalining Alisher Navoiy vafotiga bag'ishlangan tarixi quyidagicha edi:

*Dar motami on qidvai arbobi vusul,
Abnoyi zamon shohu gado gashti malul.
Hijrat ba rasul kard on sayyidi qavm,
Tarixi vafoti ust "Hijrat ba rasul".*

(Tarjimasi: U haqqa yetishganlar peshvosi motami bilan shohdan tortib gadogacha, barcha olimlar qayg'uga cho'mdi. U qavm sayyidi payg`ambar oldiga hijrat qildi. Shuning uchun "hijrat ba rasul" vafoti tarixi bo'ldi.)

She'rdagi "hijrat ba rasul" birikmasidagi harflar ifodalagan sonlarni aniqlab qo'shib chiqsak, 906 raqami hosil bo'ladi. A.Navoiy hazratlari hijriy 906-yilda vafot etgan. Tarix moddasi butun bir misrani tashkil qiluvchi tarixlar *tarixi tomm* deb atalgan.

Muammo arab tilidagi *a'mo* so'zidan olingan bo'lib, «ko'r qilingan», «yashiringan» degan ma'nolarni anglatadi. U she'riy janr sifatida o'zining qat'iy qoidalariga ega bo'lib, asosan bir, ikki baytdan iborat bo'lgan tugal ma'noli she'rdir. Muammoda biron nom (asosan kishi nomi) harflar orasiga yashiringan bo'ladi va u sarlavhada aniq ko'rsatiladi. Shu bilan birga she'rda uning yechimi bilan bog'liq bo'lgan turli imo-ishoralar ham beriladi. O'quvchi muammoni mavjud maxsus qoidalar asosida

tahlil qiladi va yechimini topadi. Muammoning yechimi arab harflarining yozilish holatiga asoslanadi. Uning yechimida birinchi navbatda mantiqdan kelib chiqiladi. Buning uchun ma'nodosh va shakldosh so'zlarni aniqlash, bir tildagi so'zning boshqa tildagi ma'nosini topish, badiiy san'at ilmiga murojaat qilib, arab alifbosidagi harflarning shakli, ramziyligiga e'tiborni qaratish, muammo qilingan so'zlardagi harflar o'rnnini almashtirish, yil hisobi, burj va abjad hisobidan foydalanish lozim bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchidan ishorat qilib o'tilgan harflarni aniqlab, ularni o'z o'rniga tartib bilan to'g'ri qo'yish va ulash ham talab qilinadi. Ana shundagina muammo jumbog'i to'g'ri yechiladi. Muammo, ko'pincha, ikki ma'no asosiga quriladi: birinchisi- tashqi, chalg`ituvchi ma'no; ikkinchisi - ichki, asosiy ma'no bo'ladi.

Adabiyotimizda XIV-XV asrlar muammo janrining gurkiragan davri sifatida qayd etiladi. Lekin muammoning dastlabki namunalari qachon va qaerda paydo bo'lgani masalasiga hali ham aniqlik kiritilganicha yo'q. "Islom ensiklopediyasi" dagi ma'lumotga ko'ra, arablar mazkur janrning ilk ijodkorini mashhur aruzshunos Xalil ibn Ahmad deb biladilar. Ajam olimlari esa dastlabki ijodkorni Ali Ibn Abu Tolib deb faraz qiladilar. O'zbek adabiyotida ham XV asrning I yarmiga qadar, shoirlarning muammo janrida ijod qilganliklari noma'lum, ammo adabiyotimizda, xususan Lutfiy ijodida, muammo janrining ilgaridan, ya'ni Navoiyga qadar ham mavjud bo'lganiga ishora qiluvchi misralar mavjud. Navoiy davrida muammonavislik juda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Navoiyning «Devoni Foniy» asari tarkibiga shoirning 373 ta fors -tojik tilidagi muammosining, "Navodir ush-shabob" devoniga 52 ta o'zbekcha muammosining kiritilishi bu davrda muammonavislikning kamolot bosqichiga ko'tarilganini isbotlaydi. Shoirning mana bu mashhur muammosi mazkur janrning eng yaxshi namunasi hisoblanadi: *Bu gulshan ichra yo'qtur baqo guliga sabot, // Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.* Baytda تداعى (saodat)dan (ot)ni chiqarish kerakligiga ishora qilinmoqda. Shunda Sa'd qoladi va u «yaxshilik», «baxt»

ma'nolarini beradi. Dunyoda hech narsa boqiy emas, hamma narsa o'tkinchi, shunday ekan, chiroyli amallar bajarib yaxshi ot goldirishga urunish lozimligini uqtirmoqda shoir.

Alisher Navoiyning fors tilida yaratilgan "Mufradot" asariga 121 ta muammo kiritilgan bo`lib, shoir unda muammo yechishning 15 qoidasi va 48 xil usulini misollar bilan ko`rsatib bergen.

Hurufi dalolat harflarga mazmun bag`ishlash san'atidir. Alisher Navoiy asarlarida harflarga mazmun bag`ishlash juda ko`p uchraydi. "Hayrat ul-abror" dostonida "bismilloh" so`zi shunday sharhlangan: *B – bashorat, Sin – salomat, Mim – maqsad, Alif – sham, Lom – livoyi zafar, H – huviyat*. "Farhod va Shirin" dostonida esa Farhod ismi quyidagi beshta so`z bilan izohlangan:

*Firoqu rashku hajr ila ohu dard,
Biror harfibtidodin aylabon fard.*

Muhrlar bilan shug'ullanish fanda sfragistika – (yunon. Sfragis - muhr) deyiladi. Muhr va tamg`alar manbashunoslikda muhim ahamiyatga ega. Muhrlardan davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, san'ati va adabiyoti, tarixi bilan bog`liq ma'lumotlarni olish mumkin. Muhrlar haqidagi qimmatli ma'lumotlar Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asarida ham keltirilgan. Mahmud Koshg`ariy 20 dan ortiq rasmli yozuv tasvirlarini ilova qilgan: ular turkiy xalqlarning o`tmishi, mentaliteti va ezgu maqsadlarini aks ettirgan; davlat nishoni vazifasini bajargan; quldorning o`z qullariga bosadigan xususiy tamg`asi bo`lgan; avloddan avlodga qoladigan hukmdorlik belgisi va sulola ramzi bo`lgan. Dunyo davlatchiligi tarixida muhrlar bilan bog`liq voqealar ko`proq tarixiy shaxslar haqidagi hikoya va qissalarda keltirilgan. Rivoyatlarga ko`ra, Bobil hukmdorlari uzukning ko`ziga muhr qo'yib, qo'llariga taqar ekanlar. Muhrdagи yozuvlar imzo vazifasini bajarsa-da, sohibining hayotiy shiorini anglatgan. Qadim yahudiylar podshohi Sulaymon payg`ambar barmog`idagi uzugiga "Bu dunyo o'tkinchidir" deb yozib qo'yilgan ekan. Amir Temurning uzugiga "Rosti-rusti", ya'ni "yuksalish to`g'rilikda" deb yozilgan bo`lib, uning shiori

taraqqiyotning garovi bo`lganadolatni qaror toptirish ekanligini anglatadi. Xitoyda amaldorlar muhrga o`zlari uchun tumor - muqaddas hisoblangan hayvonning rasmini solib, kamarlariga taqib yurganlar. Payg`ambarimizning kumush uzuklari ko`ziga "Muhammad Rasululloh" deb yozilgan edi. Alisher Navoiyning muhriga "Bu dunyodan g`arib va faqirdek yashab o`t" degan hadis o`yib yozilgan.

Muhrdagi yozuvlarni o`qish muayyan tajribani talab qiladi. Undagi so`zlar tepadan pastga yoki pastdan tepaga, ba`zan o`rtadan yuqori va quyiga qarab o`qiladi. Samarqandning Bog`ishamol qishlog`idan topilgan uzukning ko`ziga "Ali" so`zi to`rt marta yozilgan bo`lib, harflar abjad hisobi bilan raqamlarga aylantirilsa, hijriy 440 - yil (milodiy 1048-yil) kelib chiqadi.

Muhrlarda shaxs ismi, otasining ismi, unvoni, fazilatlari she`riy usulda ham keltirilgan. So`zlar chiroyli naqshlar ichiga yozilgan.

Qo`lyozmalarga urilgan muhrlar egalik huquqini anglatadi. O`ziga to`q odamlarning shaxsiy muhri bo`lib, hujjatlarga, shaxsiy kutubxonasi dagi qo`lyozma kitoblarga bosganlar. Shu muhrlarni o`rganib manbashunoslar qo`lyozmaning tarixini yoritganlar. Ayrim kishilar o`zlari mutolaa qilgan kitobga ham muhr bosganlar. Bu, o`z navbatida, ushbu qo`lyozma kimning nazaridan o`tganligini ham aniqlab beradi.¹⁷

Savol va topshiriqlar:

- 1. Abjad hisobi nima?*
- 2. Abjad hisobida sonlarning harflar bilan ifodalanishini izohlang?*
- 3. Tarix san'ati qaysi lirik janrlarda qo'llanadi?*
- 4. A.Navoijning turkiy tilda yozgan muammolari qaysi devonda berilgan?*
- 5. A.Navoijining "Xamsa"sida qaysi ismlar ma'nosi hurufi dalolat san'ati bilan sharhlangan?*
- 6. Manbashunoslikda muhrlar qanday ahamiyatga ega?*

¹⁷ Sirojiddinov Sh.Matnshunoslik saboqlari.- T.:2019,60-62-b.

O'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ashirboyev S., Azimov I. Rahmatov M. va G'oziyev A. Eski o'zbek tili va yozuvni praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O'qish kitobi. T.: «O'qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozushi. T.: «O'qituvchi», 1989 y
4. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari.T.:2019
- 5.Rajabova B. Mushtarak adabiy hodisaar, Toshkent,2019, 30-bet.

9-mavzu. Temuriylar davri matnshunosligi. Alisher Navoiy davridagi kitobat san'ati va xattotlik. Navoiy asarlariga bag`ishlangan lug`atlar

Reja:

- 1. Temuriylar davri matnshunosligi.*
- 2. Alisher Navoiy davridagi kitobat san'ati va xattotlik.*
- 3. Navoiy asarlariga bag`ishlangan lug`atlar.*

Tayanch so`z va iboralar: kitobat san'ati, xattotlik, miniatura, musavvir, xattot, sahhof, Boysung`ur Mirzo, "Shohnoma", Ibrohim Mirzo, tazkira, lug`at, kutubxona, qo`lyozmalardan nusxa olish, ilmiy-tanqidiy matn.

Navoiy va Bobur so`z san'ati bilan birgalikda falsafa, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, me'morlik, shaharsozlik ravnaqiga, el-yurt ma'murligi, farovonligiga katta hissa qo'shgan. Qalam ahli bilan birga rassomlar, usta va hunarmandlar, olimlar, bilimga chanqoq yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ilm o'rghanish yo`lidagi intilishlarini rag`batlantirishga alohida e'tibor qaratgan. O`z davrining yetuk san'atkorlari, musavvir va xattotlari kabi Behzodning ijodiy kamolotida ham Alisher Navoiyning ma'naviy ko`magi muhim ahamiyatga egadir. Bu jihatlar shoir bobolarimiz qoldirgan ijodiy meros, tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum.

Hirotda, ayniqsa, Shohruh Mirzo hukmronligi davri(1397) dan boshlab fan va madaniyatga bo`lgan e'tibor kuchaydi. Bu yerdagи madaniy hayot Hirotding dovrug`ini butun Sharq mamlakatlariga yoydi. Shohruh, xotini Gavharshodbegim va o`g`li Boysung`ur Mirzo ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida chor atrofga mashhur bo`ldi. Temuriylar xonadonining ilm-u adab hamda san'at ahliga bo`lgan saxovatini eshitgan olim va shoirlar, mashshoq va me'morlar butun o'lkadan markazga tortilib kela boshladilar. Hirot tom ma'noda madaniyat markaziga aylandi. Ulusning ma'naviyati uchun zarur bo`lgan asarlarga e'tibor kuchaydi, yangilari yaratildi,

borlari tarjima qilindi, nusxalari ko`paytirildi. Ma'naviyat xazinasiga e'tiborning bunchalik ortishida Temurning nabirasi, Shohruhnинг o`g`illari—Samarqand hukmdori Ulug`bek va Sheroz hukmdori Ibrohim Sultonlardan keyingi uchinchi o`g`li Boysung`ur Mirzoning (1397 - 1434) xizmatlari katta bo`ldi. Hirot matnshunoslik maktabining yuksalishini uning fidokorona mehnatisiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Saroy muhitida yaxshi tarbiya topgan *Boysung`ur Mirzo* 17 yoshidanoq Mozandaron, Astrobod va Jurjon viloyatlarining hokimligiga tayinlandi (1414-yil). Shohruh katta o`g`li Ulug`bek bilan qanday faxrlansa, Boysung`ur Mirzo bilan ham shunday faxrlanardi. 1416-yilda Boysung`ur Mirzo Hirotgaga qaytib, otasining saroyida vazirlik lavozimiga tayinlandi. U davlat idora ishlarida faol qatnasha boshladi. 1420 - yil dekabr – 1421- yil may oylari Pekinga Shohruh, Ulug`beklar tomonidan yuborilgan elchilar qatorida Boysung`ur Mirzoning ham elchilari bo`lgan. Ulardan Biyosiddin Naqqosh nomli kishining kundaliklari o`z davrida Xitoy haqidagi eng mufassal va mashhur asar sifatida tan olingani yosh shahzodaning o`z atrofidagi qanday odamlarga ishonch bildirganini namoyish etuvchi bir dalildir. Mirzo Ulug`bek ilmi nujum va handasada o`z davrida yagona bo`lgani kabi, Boysung`ur Mirzo she'riyat va xatda o`z davrining eng mashhur kishisi edi. Forsiy tildagi adabiyotga bo`lgan mehri tufayli Boysung`ur Mirzo Amir Xusravning she'rularini to`plashda, Firdavsiy, Sa'diy, Nizomiy kabi o`nlab daho san'atkorlarning asarlarini xalq orasida keng yoyishda alohida jonbozlik ko`rsatgan. Tarixchi olim Bartold Boysung`ur Mirzoni Shohruhnинг o`g`illari ichida eng yuksak forsiy ma'lumotlisi deb ataydi. Yosh Boysung`ur Mirzo saroyda vazirlik vazifasini ado etish bilan birgalikda ilmga tashnaligi tufayli kitoblarga alohida e'tibor berdi. Saroyning Humoyun kutubxonasiidagi kitoblar sonini keskin ko`paytirib, uning qoshida maxsus kitobat guruhini tashkil etdi. Zamona tarixchilarining xabar berishlaricha, bu mehnat jamoasi 40 nafar atrofida bo`lib, u yerda mashhur xattotlar, naqqosh va musavvirlar, sahhof va muzaxxislar ilmiy va ijodiy ish olib bordilar. O`g`illarining bu

ishini Shohruh ham, Gavharshodbegim ham juda ma'qullab turdilar. Shohruhning o'zi ham Mavlono Ma'ruf kabi xattotlarni Sherozdan Hirotg'a ko'chirib kelib, bu kutubxonada kitoblar ko'chirish vazifasiga tayinladi. Sulton Boysung`ur Mirzo kutubxonasingning xattotlari qo'lyozma kitoblarda hurmat bilan tilga olinadi. Ulardan biri bo'lgan Ahmad Rumiy ko'p fozil kishilar bilan suhbatlashishga moyil bo'lgan. Ularning ilmu ma'rifat haqidagi bu suhbatlari doimo kitoblarga borib taqalgan. Boysung`ur Mirzo kutubxonasingning xattot va mirzolaridan boshqa biri Hoji Maqsud har bir qalamda (xat turida) shuhrat qozongan edi. Sulton Boysung`ur Mirzo kitobat guruhiga mansub bo'lgan boshqa bir xattot Shame Boysunqoriyga shoirlar o'z devonlarini nasta'liq xat bilan ko'chirishni buyurar edilar. Sultonning bu xattotga hurmati baland bo'lgan.

Boysung`ur Mirzo 1420- yilda Eron Ozarbayjoniga, 1431- yilda Astrobodga hokim qilib yuborilgan bo`lsa-da, bu yo`nalishdagi faoliyatini to`xtatmadı. 1425/1426 - yillar uning sa'y-harakati va so'zboshisi bilan «Shohnoma»ning qirqqa yaqin qo'lyozma nusxalari muqoyasa qilingan mukammal nusxasi (hozirgi mezon bilan aytganda ilmiy- tanqidiy matni) yuzaga keldi. Jozibali suratlar bilan bezatilgan bu nusxalardan biri hozir Tehron muzeyida saqlanadi. Bu nusxa bir necha asrlardan beri «Shohnoma»ning yangi nusxalarini yaratish va tarjimalar qilish uchun eng ishonchli manba sifatida tan olib kelinganini keyingi asrlarda ko'chirilgan nusxalar ko'rsatib turibdi. «Shohnoma»ning tarjimalari ustida ish olib borgan tadqiqotchilar tarixda mashhur bo'lgan turkiy tarjimalardan 1781-yilda amalga oshirilgan Xomushiy tarjimasini mana shu nusxdadan qilingan deb hisoblaydilar.

Bundan tashqari o'sha davrlargacha tarqoq holda bo'lган Amir Xusrav Dehlaviyning ulkan poetik merosini «jamlashda» Boysung`urning jonbozlik ko'rsatganini, natijada 120 mingdan ziyodroq bayt hajmida she'rlari to`planganini Davlatshoh Samarqandiy mamnuniyat bilan tilga oladi. Eron adabiyotshunos olimi Malikushshuar Bahor ham «Sabkshunosi» asarida Boysung`ur Mirzo tuzgan matnshunoslar guruhi xizmatlariga

yuqori baho bergen: «Sa'diydan keyin «Guliston» kabi asarlar ham omma uchun tarjima qilinib, fors tilining hammabop darsliklaridan biriga aylandi. Boysung'urning hijriy VIII—IX asr temuriylar davrida Hirot va Xurosonning husnixat ustalari guruhi «Guliston»ni ko'chirish bilan ko'p mashg'ul bo'lganlar. Boysung'ur Mirzo zamonida xattotlar «Guliston» ni bir qancha nusxada Sa'diy zamonidagi mashhur xattot Yoqut Mustasmiy nomi bilan ko'chirganlar va shunday nusxalardan bizgacha yetib kelganlari mavjud». Bu jumlalardan ko'rinish turibdiki, mazkur guruh kitob ko'chirish uchun nusxa tanlashda iloji boricha muallif zamonasidagi nusxalarni tanlashga harakat qilishgan. Boysung'ur Mirzoning buyrug'i bilan yana «Faraj ba`da shiddat»ning tarjimasi, «Nusxat ul-arvoh» kitoblari ko'chirilgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Bu davrdagi ilmiy, adabiy-madaniy merosga bo'lgan munosabat arab yozuvining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Tarixda nasta'liq xatining ravnaq topishi va shuhrat qozonishi ayni shu Hirot matnshunoslik maktabining faoliyati bilan bog'liq. Ma'lumki, xatning bu turiga nasx xati asos qilib olingan. Avvaliga nasx xati harflarini kichraytirish va kaltalatish yo'li bilan o'zgara bordi. Dastlab, (XIV asr) bu xatni ingichka xat turi nomi bilan atab kelishgan. XV asrda bu xat isloh qilinib, o'zining qat'iy shakliga ega bo'ldi. Bu xatda tanilgan dastlabki xattot temuriylar davri husnixat san'atining faxri hisoblangan Mir Ali Tabriziy edi. U nasta'liq xatining ixtirochisi (voze'), «Qiblat ul-kuttab» (kotiblar peshvosi) degan laqab bilan shuhrat qozondi.

Devon, risola va maktublar ta'liq xati bilan ko'chirilayotgan bir vaqtida Mir Ali nasta'liq xatini ixtiro qiladi hamda ta'lix xatiga nasx xatini qorishtiradi. Shuning uchun ham uning xatiga «nasxi ta'lix» nomi beriladi. Bu xat xattotlar orasida juda tez yoyilib, Tabriziyning shogirdlari doirasi borgan sayin kengaya boradi. Shogirdlari orasida uning o'z o'g'li Mir Abdullo ham bor edi. Uning shogirdlaridan ikki kishi - biri Mavlono Ja'far Shohruh Mirzo zamonida xushxatlikda nom chiqargan. Ikkinchisi, Mirabulxay kitobat san'atida, insho va tahrirda tengi yo`q kotib bo`lib, Sulton Abu Said zamonida inshonavislik

shu kishiga topshirilgan edi. Shogirdlaridan (kuyovi) Amir Muhammad Badriddingga ham Mir Ali Tabriziyning hurmati baland bo`lgan. Keyinchalik Sulton Husayn Boyqaro huzurida faoliyat ko`rsatgan Mir Ali Hiraviy va Mullo Ja'far Tabriziyalar ham bu xat bilan shuhrat qozonishdi. Ular ham bu xatga islohotlar kiritishdi. Boyqaro saroyida Sulton Muhammad va Sulton Ali Mashhadiylar bu xatni qiyomiga yetkazdilar.

Kitobat san'atida temuriy shahzodalarining o`zlarini ham yaxshiginafaoliyatko`rsatishgan. Xattotliksan`atigamehribaland Boysung`ur Mirzo talaygina kitoblarni qalamdan chiqarish bilan birga Mashhadda qurilgan, onasi Gavharshodbegim nomi bilan atalmish masjid devorlariga suls yozuvida xitobalar bitgan (bu yozuvlar hozir ham qisman saqlanib qolgan). Uning ulug` tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning ta`limini olgan akasi Mirzo Ibrohim (1431 - yilda vafot etgan) ham olti xil xatda tengi yo`q xattot edi. Mashhur xattot Yoqut uslubiga taqlid qilib, xat san'atida undan o`tib ketgan edi. U yozgan xat qoldiqlarining ba`zilari o`zi hokimlik qilgan Sherozdagidan qadimiylardan hozir ham qisman saqlanib qolgan. Keyinchalik Shoh G`arib Mirzo va Sulton Husayn Boyqaroning to`ng`ich o`g`li Badiuzzamon ham xattotlik bilan shug`ullanishgani ma'lum.

Shohruh davrida uning saroyida asos solingenan hamda XV asr davomida dovrug` taratgan Hirot matnshunoslik muktabi va u yerda fidokorona mehnat qilgan kishilarning xizmatlari tufayli adabiy-madaniy merosga e'tibor kuchaydi, borlari yig`ilib, nusxalari ko`paytirildi, tarjima qilindi, yangilari yaratildi, miniatyura san'ati yuksak darajada ravnaq topdi, xat turlari takomillashib, nasta'liq xati yuzaga keldi va anchagina qo`lyozma nusxalar silsilasi uzilmay keyingi avlodlarga yetib keldi. Xattotlik qadim Sharq san'atining behad kamol topgan turlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo xattotlik san'atining esa boy tarixi bor. XIV-XV asrlarda o`lkamiz kitobatchiligining ravnaqi beqiyos bo`ldi. Bu davrlarda dunyoda kitob chop etadigan bosmaxonalar yo`q edi. Shuning uchun ham, ayniqsa, Sharqda xattotlik san'atiga qiziqish hamda xattotlarga ehtiyoj nihoyatda katta bo`lgan. Adabiyot va ilm ahli yaratgan bebahon

asarlar kotiblar mehnatining sharofati bilan bizgacha yetib keldi. Bu qo`lyozma asarlar o`zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi uchun tadqiqot manbayi bo`lib xizmat qiladi. Z. Hamidovning “Navoiy xattotlari” nomli maqolasida qayd etilishicha, qadim Sharq qo`lyozmalari orasida Mir Alisher Navoiy asarlari salmoqli o`rin egallaydi. Navoiy ijodini o`rganish, asarlarini oqqa ko`chirish uning o`z zamonasidayoq boshlangan. Navoiyning asarlari o`zi yashab turgan yurtdagina emas, balki bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham dastxat sifatida keng tarqalgan edi. Jumladan, shoir “Xamsa” ustida ishlaganida uning yozib tugatilgan qismini mashhur xattot Abdujamil kotib peshma-pesh oqqa ko`chirgan. Shoir o`zining yirik tazkirasi “Majolis un- nafois” asarida xattotlik san`atiga yuqori baho berib, uni puxta egallagan Sulton Ali Mashhadiy, Mavlono Soyimiyl, Mavlono Sayfiy, Mavlono Sher Ali, Shayxzoda Puroniy, Mavlono Voysiy, Mavlono Kotibiy va Abdujamil kotib Hirotiy kabi mashhur kotiblarni faxr bilan tilga oladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bizgacha yetib kelgan Alisher Navoiy asarlari qo`lyozmalarining juda ko`pchiligi qadimiy ilm-fan maskanlari Buxoro va Shahrisabzda kitobat qilingan. Qavomiddin Munirov va Abdulla Nosirov kabi sharqshunoslar tartib bergan “Alisher Navoiy qo`lyozma asarlari katalogi” (Toshkent, 1970) dagi ro`yxat ana shundan dalolat beradi. XIV-XIX asrlar Buxoroda san`atning barcha turlari keng rivoj topgan davr bo`ldi. Bu yerda Pirmuhammad Sufi Buxoriy (XV asr), Miraz Buxoriy (XV asr), Sulton Muhammad Buxoriy (XV asr), Abdurahmon Barqiy Munshiy (XV asr) kabi xattotlardan iborat xattotlik san`atining maktabi vujudga keldi. Zotan, yozuv tizimi va kitobat madaniyatining mavjudligi, uning rivojlanish saviyasi u yoki bu xalq ma`naviy qimmatini belgilovchi muhim omildir.

Alisher Navoiy davri kitobat madaniyatining yuksak taraqqiyot bosqichi ham bo`ldi. Navoiyning o`zi esa buyuk madaniyat arbobi sifatida kitobat ishi rivojiga o`zining barakali va serqirra hissasini qo`shdi. Avvalo shuni alohida aytish lozimki, Alisher Navoiy o`z davrining qomusiy allomasi sifatida xattotlik san`atini ham yaxshi bilgan, o`zi ham barcha asosiy

arab yozuvi turlarini mahorat bilan egallagan edi. U qo'lyozmalarni badiiy bezashga, matn taqsimotiga oid qonun-qoidalarning, kitob ishlab chiqarish jarayonlariga tegishli masalalarning chuqur bilimdoni bo'lgan. Yuksak badiiy did egasi buyuk alloma-shoir mahorat bilan bezak berilgan qoiyozmalarni nihoyatda qadrlagan, ko'plab iste'dodli xattotlarga homiylik qilgan. Bunday xattotlar qatorida mashhur Sulton Ali Mashhadiy, Abduljamil kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Muhammad binni Nur, Sulton Muhammad Xandon, miniaturachi musavvir Kamoliddin Behzod ismlarini keltirish mumkin. Jumladan, Behzodning ijodiy kamoloti XV asrning 80 - yillaridagi Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar yaratgan va boshchilik qilgan xalqchil ruhdagi ijodiy muhitning bevosita ta'sirida shakllandi. Alisher Navoiy arab tili va tilshunosligi, poetikasi, so'fizm ta'limoti, fiqxni chuqur egallagan olim, Qur'on va din ta'limotiga oid adabiyotlarning bilimdoni bo'lgan. U so'nggi 800-1000 yillar davomida qadimiy tillarda hamda fors, turkiy va arab tillarda yaratilgan mumtoz diniy, adabiy-badiiy, tarixiy, jo'g'rofiy, falsafiy, filologik, tibbiy kitoblar olamida o'zini nihoyatda erkin sezар, o'z zamonasi adabiy jarayonining barcha o'ziga xos, ichki muammolarini dohiyona anglab yetar edi. Alisher Navoiyning arab imlosidagi sharq qo'lyozmalari kitobat va matn xususiyatlarining naqadar nozik bilimdoni bo'lganligi uning "Navodir un-nihoya" va "Badoyi' ul-bidoya" nomli dastlabki devonlari hamda o'zining ichki tuzilishi jihatidan biron sharq xalqlari adabiyotida uchramaydigan "Chor devon", ya'ni to'rt devondan tashkil topgan "Xazovin ul-maoniy" asarlar to'plamini yaratish jarayonida o'z aksini topdi. O'z davri kitobat dunyosi va muomalada bo'lgan qo'lyozmalar haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan Alisher Navoiy o'z zamoni yirik kitobshunoslari safidan o'rın oldi. Shoirning shaxsiy mablag'lari hisobiga qurilgan ulkan kutubxonada o'n ming jilddan ortiq qo'lyozma kitoblar jamlangan bo'lib, unda Navoiyning ukasi Darvesh Ali kitobdor lavozimini bajarar edi. Kutubxonaning binosi "Unsiya" deb nomlangan mashhur arxitektura kompleksiga kirar va Navoiyning o'zi "Unsiya" da

istiqomat qilardi. Mashhur tarixchi Mirxon'd o'zining Turon va Xuroson tarixiga oid yetti jildlik "Ravzat us-safo" asarini Alisher Navoiyning maslahatiga ko'ra va u ma'qullagan reja asosida yaratgan. Ma'lum bo'lishicha, Navoiy Mirxon'dga faqat ma'naviy ko'mak berish bilan cheklanmay, balki ish uchun barcha moddiy imkonivatlarni ham yaratib bergen. Jumladan, tarixchiga "Xalosiya" madrasasidan qulay va shinam xonaqoh ajratib berilgan. U Navoiyning shaxsiy kutubxonasidan bemalol foydalanish imkoniga ega bo'lgan va tarix ustida ishlash vaqtin mobaynida barcha zaruriy narsalar bilan to'liq ta'minlanib turgan. Bundan tashqari, Navoiy Mirxon'dga tez-tez qimmatli sovg'alar tortiq qilar edi. Navoiyning mana shunday g'amxo'rligi va ko'magidan madrasada istiqomat qilib, biron ijodiy yoki ilmiy ish bilan shug'ullanigan boshqa shoir va olimlar ham bahramand bo'lar edi. Mirxon'dning nabirasi yosh tarixchi Xondamir shular jumlasidandir. Navoiyning boy kitob xazinasidan Xondamir ham keng foydalandi. Shu yerda ishlash jarayonida 20 yoshlik chogidayoq Xondamir kutubxonaning boy tarixiy manbalariga tayanib o'zining dastlabki ikkita tarixiy asarini yaratdi. Ularning biri Alisher Navoiyning hayot yo'liga bag'ishlangan va yosh olimning buyuk zamondoshiga chuqur ehtirom va samimi minnatdorchilik his-tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan "Makorim ul-axloq" asaridir. Alisher Navoiy bilimdon kitob muxlisi va jiddiy kitob to'plovchi - bibliofil sifatida qimmatbaho va go'zal bezakli qo'lyozmalarni to'plab bordi. Buxoro, Hirot va Samarqandning eng usta va iste'dodli xattot, lavvoҳ va sahhoflari Navoiy maxzani uchun kitoblar yaratar edilar. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, Sulton Ali Mashhadiy Sulton Husayn Boyqaro va Navoiylar uchun ko'plab kitoblar ko'chirib bergen. Jumladan, xattot shoh uchun kuniga o'ttiz baytdan, Navoiy uchun yigirma baytdan matn ko'chirib berar ekan. Turon-u Turkiston shaharlarining mashhur xattotlari Navoiy buyurtmasi bilan yuzlab jild Qur'oni karim hamda shoirlar, faylasuflar, tarixchilar, tabiblar va boshqalarning asarlarini ko'chirganlar. Bu kitoblar Navoiyning shaxsiy kutubxonasiga kelib tushar yoki uning tomonidan boshqa

shaxslarga tortiq qilinib, ularning kutubxonasidan o'ren olar edi. Keng adabiyotshunoslar doirasida ma'lum bo'lgan faktlardan biri: Tehronda 1829 -yilda vahshiylarcha o'ldirilgan muxtor vakil, ya'ni rus elchisi Aleksandr Sergeyevich Griboyedov xuni uchun to'langan tovon jumlasiga kirgan kitoblar orasida Sulton Ali Mashhadiy tomonidan 1465- yili (Navoiy 24 yoshligida) ko'chirilgan va oliy darajada bezakli Navoiyning "Devon" ("Ilk devon") she'rlar to'plami ham bor edi. Bu qo'lyozmani prof. Hamid Sulaymon 1968- yilda faksimile uslubi bilan nashr ettirgan. Alisher Navoiy xattotlik va miniatura san'atlarining bilimdoni, ko'plab shoir, olim, kitobat san'ati ustalarining homiysi bo'lishi bilan birga, juda keng miqyosda xayriya ishlari bilan shug'ullandi. Masalan, u Hirot, Astrobod, Mary, Isfizor, Saraxs kabi shaharlarda madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurdirish bilan birga ularning atrofini obodonlashtirish, ichini esa jihozlash ishlarini ham nazaridan chetda qoldirmas edi, madrasalar qoshida esa kutubxonalar uchun asos yaratari edi. Navoiyning ishchonchli vakillari uning ko'rsatmasi bilan bu kutubxonalarga kitobfurush va sahhoflardan kitoblar sotib olar, kitobat ishi bilan shug'ullanuvchi mutahassis kishilarni qog'oz va boshqa yozuv ashyolari bilan ta'minlab turar edi. Navoiyning mashhur "Majolis un- nafois" ("Nafis yig'inlar") tazkirasini, bu asarning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi - o'quvchilarga shoir, xattot va kitobat ishining boshqa vakillari haqida turli xil ma'lumotlar berishiga ko'ra, biobibliografik asarlar qatoriga ham qo'yish mumkin. Alisher Navoiy tazkirasida bu toifadagi asarlar uchun an'anaviy bo'lgan o'z davri shoirlari va adiblarining hayoti va ijodiga oid, ularning asarlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. "Majolisun nafois"da Navoiy o'zigacha o'tgan ijodkorlarga bir bo'lim bag'ishlaydi. So'ngra esa o'ziga zamondosh bo'lgan shoirlar va fozillar to'g'risida ma'lumot beradi. "Bu kitobda o'zbek va tojik tillarida she'r yozgan shoirlar baravar ko'rsatilgan. Navoiy shoirlarni qaysi tilda yozganiga qarab ajratmaydi. Bu iste'doddaming ko'pi ham o'zbek, ham tojik tilida she'r yozganliklari inobatga olinsa, bunday

yondashuvning to'g'ri ekani ochiq ko'rindi," - deb yozadi navoiyshunos olim, akademik Azizzon Qayumov. Navoiy Mavlono Muhammad Tabodgoniy to'g'risida yozar ekan, uning "Qasidai Burda"ni muxammas qilgani, Xoja Adulloh Ansoriyning "Manozil us-soyirin" asariga sharh yozgani to'g'risida xabar beradi. Mavlono Husayn Xorazmiy to`g'risida so'zlab Navoiy bu kishining "Maqsadi aqso" ("So'nggi maqsad") nomli asari borligi, uning Jaloliddin Rumiyning masnaviysiga sharh bitgani, "Qasidai Burda"ga Xorazmiy o'zbek tilida sharh yozganini bildiradi. Yana bu kishining "o'zga musannafoti" (asarlari) borligini ham yozadi. "Nasoyim ul - muhabbat" asarida Navoiy turli davrlardagi mutafakkirlar va shoirlar to'g'risida hikoya qiladi. Shunda ularning qanday asarlar yaratganliklari to'g'risida ham so'z yuritadi. Nizomiy to'g'risidagi maqolada Navoiy yozadi: "Alarning besh masnaviysi, "Panj ganj"ga mashhurdir... "Iskandarnoma" tarixiki, alarning kitoblarining oxiridur, besh yuz to'qson ikki ekandur (592 hijriy yili - 1195-1196 milodiy yili)". Hofiz Sheraziyni ta'riflar ekan, Navoiy: "U g'ayb tilini biluvchi va sirlami tarjima qiluvchidir. G'ayb sirlarini va haqiqatning ma'nosini so'z kiyimining go'zalligi orqali va majoz (dunyoviylik) libosida ko'rsatadir... Hofiz devonidan yaxshiroq hech bir devon yo'q..." Navoiy o'z do'sti, maslakdoshi, ustoz va piri Abdurahmon Jomiyni (1414-1492) juda e'zozlar, barcha ezgu ishlarda bu ulug` shoir va mutafakkirni ibrat deb bilar edi. Mutafakkir o'zining ayrim asarlarida Jomiy qalamiga mansub ijod namunalarini alohida qayd qilib o'tadi. Jomiy to'g'risidagi bunday ma'lumot Navoiyning "Majolis un- nafois" tazkirasida ham bor. "Nasoyim ul muhabbat"da Navoiy o'z ustozni Jomiyga maxsus maqola bag'ishlagan. Alisher Navoiyning shaxsan Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan "Xamsat ul- mutahayyirin" asari shaxsiy biobibliografik ko'rsatkichlar (yevropacha personaliya kitob turiga) toifasiga kiradi. Kitob muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Muqaddimada Jomiyning hayoti, nasl-nasabi, Jomiy va Navoiyning birinchi bor tanishuvlari haqida hikoya qilinadi. Birinchi maqolatda ikki buyuk shaxs hayotida birga kechgan hamda do'stlik va ijodiy

hamkorlik haqida guvohlik beruvchi damlar xususida fikr yuritiladi. Ikkinchi maqolat ularning bir-birlariga yo'llagan qator maktublari va ularning yozilish sabablari haqida. Nihoyat, uchinchi maqolatda Jomiy yaratgan 36 ta asar ro'yxati keltiriladi, ulaming yozilish tarixi bayon etiladi. Ma'lumki, Jomiy va Navoiy qator asarlari bir-birlaridan ilhomlanib, yoki to'g'ridan-to'g'ri bir-birlarining maslahatlari bilan yaratilgan. Bu maqolatda Navoiy chuqur hurmat va o`ziga xos alohida tavoze' va nazokat bilan ana shunday ijodiy hamkorlik misollarini keltiradi. Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til to'g'risidagi muhokama") asarida shoirning o`zi yozgan asarlari to'g'risidagi ma'lumoti mavjud. "Muhokamat ul- lug'atayn"da Navoiy kitobat qilingan o'z asarlarining qisqacha ro'yxati - bibliografiyasini ham keltirgan. Tarixiy manbalar tahlili va keltirilgan misollar shuni ko'rsatib turibdiki, Alisher Navoiy o'zining kundalik hayotida muttasil kitobat ishi va kitobat san'atining turli sohalariga juda yaqin bo'lgan va o'z ijodi va faoliyati bilan milliy Turonzamin kitobat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Jahon adabiyotining buyuk klassik adibi Alisher Navoiy asarlari tili XVI asrdayoq o`rganila boshlangan. Toli Imoniyning «Badoyi al-lug'at», muallifi hozircha aniqlanmagan «Abushqa», «Lug`ati Navoiy», Mirza Mehdixonning «Sangloh», «Lug`ati Amir Navoiy», «Xamsa bo xalli lug`at», «Dar bayoni lug`ati Navoiy», «Xolli lug`ati Xamsayi Navoiy» va boshqalar shular jumlasidandir. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ular turkshunos olimlarning ilmiy tekshirishlari natijasida ma'lum bo`la boshladi: A.Vamberi («Abushqa», Budapest, 1862), V.V. Vilyaminov-Zernov («Abushqa», Sankt-Peterburg, 1868), Fazlullaxon («Chig'atoycha-forscha lug`at», Kalkutta, 1825), Shayx Sulaymon Buxoriy («Chig'atoycha-turkiy usmoniy lug`at» Istanbul, 1882), Ignas Kunash («Chig`atoycha-nemischa lug`at», Budapest, 1942), Dj. Kloson («Sanglox», London, 1960), Karl Menges («Mirza Mehdixon», Mayns, 1956), A.K. Borovkov («Bada'i al-lug'at», M. - L., 1961) kabi olimlar mazkur yodgorliklarni chop etishgan. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarining keng kitobxonlarga mo`ljallab chop etilgan 15 jildlik

nashriga lug`at ham tuzilgan. Bu S. Ibrohimov va P. Shamsiyevlar yaratgan «Alisher Navoiy asarlari tilining lug`ati»dir. Bularidan tashqari «Alisher Navoiy asarlarida sinonimlar masalasiga doir» (M.Rahmatullayeva), «Alisher Navoiy tilining dialektal asoslar» (X.Doniyorov), «Alisher Navoiy lirkasida qo`shma so`zlar» (B.Bafoyev), «Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarining leksikasi» (I.Nosirov), «Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» asarining leksiko - semantik va lingvopoetik tadqiqi» (Z.Hamidov), «Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug`ati chig`atoyi va turkiy usmoni» lug`atining leksikografik tadqiqi» (N.Husanov) kabi qator mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, bular ulug` shoir asarlari tilini yanada chuqurroq o`rganishda foydali manba bo`lib xizmat qilmoqda. O`tgan asrining 70-yillarda E.I.Fozilov rahbarligi va bevosita ishtirokida Alisher Navoiy asarlarining mukammal lug`atini tuzishga kirishilgan edi. Natijada 1982-yili 4 jildik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati» yaratildi va 1983-1985 yillarda «Fan» nashriyotida chop etildi. Lug`at ishtirokchilarining mehnatlari har bir jilda qayd qilingan. Jumladan, E.I. Fozilov - ishning rahbari, lug`atning ilmiy leksikografik prinsiplarini ishlab chiqqan, qadimgi turkiy (o`zbek) so`zlarning lug`aviy ma`nosini talqin qilgan, ayrim asarlar bo`yicha tuzilgan glossariy (lug`at), sharh va izohlarni manbalar asosida so`z va ma'nolar bilan to`ldirib, birlashgan lug`at-maqolalar qilib tuzgan. XVI-XX asrlarda Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug`atlardagi so`z izohlarini qiyosiy tekshirib chiqqan, «Alisher Navoiy asarlari tili izohli lug`ati»ning tuzilishi va undan foydalanish tartibini yozgan (I jild, 3 sahifa). Ushbu ishni amalga oshirishda olimga Qutbiddin Muhiddinov, Jafar Eftixor, Yusufxon Shokirov, shoir Chustiy, J. Lapasov, Abdullajon Yunusov, Noilaxon Rasulova, Ahmadjon Karimovlar yaqindan yordam ko`rsatganlar.

Savol va topshiriqlar:

1. *Shohruh Mirzo davrida kitobat san'atining rivojiga qanday omillar ta'sir qildi?*
2. *"Shohnoma" ning ilmiy-tanqidiy matni qanday amalgaga*

oshirildi?

3. Boysung`ur Mirzo va Ibrohim Mirzolarning Samarcand va Hirot xattotlik maktabi rivojiga qo`sghan hissasini so`zlab bering.

4. Alisher Navoiyning milliy kitobat madaniyatini rivojlantirishdagi roli.

5. Alisher Navoiy asarlari asosida qanday izohli va tarjima lug`atlar tuzilgan?

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fixristi. – T.: Yangi asr avlodи, 2010.
2. Murodov A. O`rta Osiyo xattotlik tarixidan. -T.:1971
3. Hasaniy M. Sharq qo`lyozmalarini tavsiflash va fixristlash. - T.:2004
4. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
5. Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

10-mavzu: XVI-XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan davrda matnshunoslikning rivoji

Reja:

- 1. XVI-XIX asrning birinchi yarmiga oid o`zbek tilidagi manbalar tasnifi.*
- 2. XVI-XIX asrning birinchi yarmiga oid o`zbek tilidagi tarixiy manbalar.*
- 3. XVI-XIX asrning birinchi yarmidagi matnshunoslik sohasining yutuqlari.*

Tayanch so'z va iboralar: tarixiy matnlar, tarixchi-matnchi, Xorazm va Qo`qon tarixchilik maktabi, Shayboniyxon, Muhammad Solih, Abulg`ozzi Bahodirxon, Ogahiy, Munis.

XVI asrda madaniy markaz Hirotdan Samarqand va Buxoroga ko`chdi. Hunarmandchilik va savdo rivojlandi. Rabot, sardoba, karvonsaroylar qurildi. Madrasalar barpo etildi. Movarounnahr va Xurosonning barcha hududlaridan Samarqand va Buxoro musiqa maktablarida ta'lif olish uchun Muhib Ali Qonuniy, Hasan Kavkabiy, Yusuf Dutoriy kabi ijrochi va bastakorlar ilm istab kelishgan.

Ushbu davrda rassomlik, naqqoshlik va miniatura san'ati o`zining yangi bosqichiga ko`tarildi. Ayniqsa, "Boburnoma"ga, "Tavorixi guzida - Nusratnama"ga va Muhammadmurod Samarqandiy tomonidan "Shohnoma"ga chizilgan miniaturalar diqqatga sazovordir. Bu asarlardagi ruhiy manzaraning, tarixiylikning chuqurligi davrning qiyofasini tasavvur etishimizga ko`maklashadi. Mahmud Muzahhib, Rustam Naqqosh kabi rassomlarning asarlari esa XVI-XIX asrlarda yashab ijod qilgan rassom va naqqoshlarning san'ati qay darajada rivoj topganining isbotidir.

Xattotlik san'ati ham rivojlandi. Bu davrda Mavlono Sulton Ali Ubahiy, Mavlono Mir Ali Kotib, Mir Abdulla, Mir Husayniy, Sulton Mirak Munshiy kabi mashhur xattotlar tomonidan ko`chirilgan noyob kitoblar davr ma`naviyati, madaniyatini

yuksaltirishda munosib o`rin egallagan. Shunisi diqqatga sazovorki, bizgacha yetib kelgan Alisher Navoiy asarlari qo`lyozmalarining juda ko`pchiligi qadimiy ilm-fan maskanlari Buxoro va Shahrisabzda kitobat qilingan. Qavomiddin Munirov va Abdulla Nosirov kabi sharqshunoslar tartib bergan "Alisher Navoiy qo`lyozma asarlarikatalogi" (Toshkent, 1970) dagiro`yxat ana shundan dalolat beradi. XIV-XIX asrlar Buxoroda san`atning barcha turlari keng rivoj topgan davr bo`ldi. Bu yerda xattotlik san`atining maktabi vujudga keldi. Pirmuhammad Sufiy Buxoriy (XV asr), Miraz Buxoriy (XV asr), Sulton Muhammad Buxoriy (XV asr), Abdurahmon Barqiy Munshiy (XV asr), Mirali Hiraviy (XVI asr), Said Abdullo Buxoriy (XVI asr), xattotlik nazariyasini to`g`risida kitob yozgan olim va xattot Darvish Muhammad ibn Do`stmuhammad Buxoriy (XVI asr), Mavlono Inoyatillo kotib (XVII asr), Mirza Abdurahmon (XVIII asr), Fozil Devona (XIX asr), ma`rifatparvar adib va olim Ahmad Donish va boshqalar Movarounnahrning mashhur xushxat xattotlari sifatida Buxoroda qalam surdilar. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq qo`lyozmalarini markazida Alisher Navoiy asarlarining 500 dan ortiq qo`lyozma nusxalari saqlanayotir. Shundan 120 nusxa buxorolik mashhur xattotlar dastxatiga mansub. Jumladan, "Xazoyin ul-maoniy" asarining qirqqa yaqin nusxasi, "Xamsa" ning yigirma yetti nusxasi Buxoroda ko`chirilgan. Bulardan tashqari, "Xamsa" dagi "Hayrat ul-abror" dostoni 1838/1839 - yillarda Sayyid Nafas tomonidan ko`chirilgan. "Layli va Majnun" dostoni 1829/1830 - yili Muhammad Rajab ibn Abduvali tomonidan, "Sab'ai sayyor" dostoni Muhammad Latif ibn Muhammad Sharif tomonidan XIX asrda Buxoroda alohida kitobat qilingan. Alisher Navoiy umrining so`nggi yillarida yozgan "Lison ut-tayr" asarining o`ndan ortiq nusxasi Buxoroda kitob holiga keltirilgan. U "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Xamsat ul- mutaxayyirin", "Vaqfiya", "Tarixi muluki Ajam", "Arbain", "Risolayi muammo" kabi asarlari ko`plab nusxada ko`chirilgan. Xususan, Shahrisabzda "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Tarixi muluki Ajam"

kabi asarlari xushxat dastxat bilan oqqa ko`chirilgan. Hozir Navoiyning Shahrisabzda ko`chirilgan o`ttizga yaqin noyob nusxalari saqlanmoqda. Masalan, 1874/1875-yillarda mullo Muhammad Sherlibek Shahrisabiziyy tomonidan shoirning "Xazoyin ul-maoniyy" asari nasta'liq xatida qora tushda ko`chirilgan. "Xamsa" esa 1833/1834 -yillarda Abdulqayum kotib va Muhammad Yunusxo`ja ibn Boboxo`ja Shahrisabiziyy tomonidan oqqa ko`chirilgan. Bu nusxa Alisher Navoiy "Xamsa" sining XIX asrda ko`chirilgan nusxalaridan ancha to`liq va mukammalligi bilan ajralib turadi. "Lison ut-tayr" 1823/1824 -yillarda Yormuhammad qori Shahrisabiziyy tomonidan nasta'liq xatida qora siyohda ko`chirilgan. Xulosa o`rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharqning buyuk shoiri Alisher Navoiy asarlarining jahoniy shuhratida buxorolik va shahrisabzlik adabiyot muxlislari - mashhur xattotlarning munosib hissasi bor. Bu qo`lyozmalar o`quvchiga rang-barang ma'lumotlar berish bilan birga Navoiy asarlarini mukammal o`rganishda ijodiy rol o`ynab kelmoqda.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida Bobur, So`fi Olloyor, Huvaydo, Gulxaniy, Amiriyy, Nodira, Uvaysiy, Munis va Ogahiy asarlari ko`p nusxada ko`chirildi. Masalan, dunyo kutubxonalarida Z.M. Bobur devonining 9 ta qo`lyozmasi mavjud. Shulardan sakkiztasi: Fransiya, Turkiya, Hindiston va Angliyada saqlanayotgan nusxalar XVI-XVIII asrlarda ko`chirilgan. So`fi Olloyor (1663-1721) ning eng mashhur asari "Sabot ul-ojizin"ning dunyo kutubxonalarida ko`plab nusxalari mavjud. Birgina O`zbekistonda – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida 131 ta qo`lyozma, 53 ta toshbosma nusxalari saqlanadi. Ulardan eng qadimiy qo`lyozma milodiy 1810-yilga, toshbosmaning eng qadimiysi 1847-yilga tegishli. Asarlari ko`p nusxada ko`chirilgan shoirlarning yana biri Xo`janazar G`oyibnazar o`g`li Huvaydo(1704-1780/81)dir. Tasavvuf va naqshbandiya tariqati talablariga qat`iy amal qilib yashagan va she`rlarida insonni komillikka da`vat etgan sufiy shoirning ijodiy merosini nabirasi Salohiddin Soqib bir joyga jamlab, mukammal devon holiga

keltirgan. Mana shu devon XIX asrda qayta-qayta ko`chirilgan.

XVIII asrning I yarmida Qo`qon adabiy muhiti tashkil topa boshlagan. Amir Umarxon hukmronligi davrida tarixnavislik, tazkiravavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari dunyoga kelgan. Mazkur davrda ham ko`plab qo`lyozmalar ko`p nusxada ko`chirildi. Lutfiy, Navoiy Amiriy devonlaridan iborat "Muhabbatnoma" majmuasi Turkiya sultoniga sovg`a tariqasida yuborilgan. 1836-1837 yillarda Muhammadalixon buyrug`iga binoan xattot Dabir tomonidan Fuzuliy devoni ko`chiriladi. Amir Umarxon - Amiriyning mukammal devoni nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Leningrad (Sankt-Peterburg) kutubxonalarida saqlanmoqda. O`zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi Tekstologiya va publikatsiya bo`limining katalogida shoir devonining 26 nusxasi hisobga olinib, ilmiy tavsif berilgan.¹⁸

Temuriylar davridan boshlab Mavarounnahrning siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida turkiy tilning nufuzi ortib bordi. XVI asrdan boshlab eski o`zbek tilida ham ilmiy asarlar yaratila boshladi. Shayboniylar hukmronligi davridan boshlab tarix ilmida o`zbek tilida yozilgan asarlarning soni tobora ortib bordi. O`zbek tilida bitilgan tarixiy asarlar Shayboniylar davlati, Xiva va Qo`qon xonliklari tarixiga bag`ishlangan edi.

XVI asrning boshida yaratilgan muhim tarixiy manbalardan biri muallifi noma'lum "Tanlangan tarix" hisoblanadi. Asar Shayboniyxonning topshirig`i bilan saroyga yaqin bo`lgan tarixnavislardan biri tomonidan yozilgan, deb taxmin qilinadi. "Tanlangan tarix" asari mustaqil ikki qismidan iborat: "Tarixi guzida" va "Nusratnoma". Birinchi qismda O`guzxon va qadimgi turklar, Chingizzon va uning avlodlari tarixi, ikkinchi qismida esa Shayboniyxon tavalludidan to uning Mavarounnahrni istilo qilishigacha Dashti Qipchoq va O`rta Osiyoda sodir bo`lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilingan. Asarning "Nusratnoma" qismi muhim qimmatga ega. Unda Shayboniyxon qo`shinining tuzilishi, etnik tarkibi, ko`chmanchi o`zbeklarning

¹⁸ Jumaxo`ja N. Adizova I., O`zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. T.: Noshir, 2019, 244-bet.

Movarounnahr viloyatlarida qilgan yovuzliklari to`g`risida ishonchli ma'lumotlar bor. Farg`ona viloyatining ko`chmanchi o`zbeklar tomonidan bosib olinishi faqat "Nusratnoma" da to`liq va t`g`ri yoritilgan.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" tarixiy dostoni, Abulg`oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk", Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorx", "Jome ul-voqeoti Sultoniy", "Gulshani davlat" va "Shohidi Iqbol" kabi tarixiy asarlari yaratildi.

1511-yilda Eron qo'shini Xorazm hududidan quvib chiqarilgach, taxtga Shayboniylar sulolasidan bo`lgan Berka Sultonning o`g`li Elbarsxon o`tiradi. Xorazm mustaqil davlatga aylanadi. Uendi Xivaxonligidegan nomni oladi. Xiva adabiy muhiti Xiva xonligi saroyida shakllandi. Uning gullab yashnagan davri XIX asrga to`g`ri keladi. Kitobat va xattotlik san'atining o`ziga xos mактаби ham vujudga keladi. Qo`lyozmalarni ko`chirgan kotiblar asarning janriga ham e'tibor bera boshladilar. "Bayozi g`azaliyot", "Bayozi muxammasot" kabi alohida janrlardan iborat majmular ham ko`chirilgan. Shermuhammad Munis xattotlik san'atining nazariy – ilmiy qoidalariga bag`ishlangan maxsus risola – "Savodi ta'lif"ni yaratdi. Darhaqiqat, Munis iste'dodi qirralaridan biri xattotlikdir. Hayoti davomida o`ziga manzur bo`lgan bir necha noyob asarlarni, jumladan, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" (1794-yilda), "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" (1797-yilda) asarlarini kitobat qilgan. Shoир "Savodi ta'lif" risolasining yozilish sabablari, tarixi haqida asarning o`zida ma'lumot beradi. Asar 1804 - yilning dekabrida (hijriy 1219-yil, ramazon oyida) yozib tugatilgan. Asarning hajmi 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda uch qismga bo`lib o`rganish mumkin.

1. Muqaddima qismi (Hamd, na't, asarning yozilish sabablari, qalam ta'rifi, xat ta'rifi, yozuv asboblarining qulayligi, tayyorlash mahorati kabi masalalarni o`z ichiga olgan 18 ta kichik bob).

2. Asosiy qism (Arab harflarini yozish yo'llari, usullari va

mahoratiga e'tibor qaratilgan 22 ta kichik bob).

3.Xotima qismi.

Risola muallifi arab harflarining murakkab shakllarini juda sodda uslubda o`rganish yo`riqnomasini yaratdi. U harflarni turli jonzotlarga, jihozlarga o`xshatib, talabalar tasavvurini tiniqlashtiradi. Masalan, "to" harfining yozilish shaklini otga minib ketayotgan kishiga o`xshatsa, "zo" harfini qushga o`xshatadi.

Xiva adabiy muhitida tarjima ishlariga katta e'tibor qaratildi. Arab, fors va usmonli turk tillaridan jahon adabiyotining nodir namunalari tarjima qilindi. XIX asrda 170 dan ortiq noyob asarlar o`zbek tiliga mahorat bilan o`girilgan. Birgina Ogahiyning o`zi 20 ga yaqin badiiy, tarixiy, ilmiy-axloqiy asarlarni tarjima qilib, erkin tarjima mакtabini shakllantirgan.

Savol va topshiriqlar:

- 1.XVI-XIX asrning I yarmida Buxoro xattotlik maktabida qaysi asarlar ko'p ko'chirilgan?
- 2.Qo'qon xattotlik maktabiga kimlar homiylik qilgan?
- 3.Xiva xattotlik maktabining vakillari haqida ma'lumot to'plang va ma'ruza tayyorlang.

O'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. – T.: Noshir, 2019.
2. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik tarixidan. – T.:1971
- 3.Madraimov A., Fuzailova G., Manbashunoslik. – T.:2008.

11-mavzu: Porso Shamsiyev - adabiy manbashunos va matnshunos

Reja:

- 1. Porso Shamsiyev hayot yoli.*
- 2. Porso Shamsiyevning o'zbek matnshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi.*
- 3. Olimning o'zbek adabiyotshunosligiga qo'shgan hissasi.*

Tayanch so'z va iboralar: muharrir, matnshunos, tarjimon, ilmiy-qiyosiy nashr, ilmiy-tanqidiy matn.

Porso Shamsiyev— navoiyshunos va matnshunos olim (1897.10.02, Buxoro—1972.21.03, Toshkent). Filologiya fanlari doktori (1970), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1972). Buxoro madrasalarida tahsil ko'rgan. 30-yillarga qadar madrasa, maktab va maorif yo'nalishidagi muassasalarda xizmat qilgan. O'zbekiston Davlat nashriyoti (1931 — 36) va O'quv - pedagogika nashriyotida muharrir (1936—40), O'z FAN nashriyotida muharrir (1941—45), Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1945—72). «Adabiyotdan ish kitobi», «Adabiyot darsligi», «O'zbek tili darsligi», «O'qish kitobi» (1- va 2-kitoblar) muallifi. Navoiyning «Muhokamat ul - lug'atayn», «Majolis un-nafois», «Mahbub ul- qulub» va b. asarlarining ilmiy-tanqidiy matnnini nashrga tayyorlagan hamda shoir asarlarining 15 jildligini nashr etishda faol qatnashgan. «Xamsa»ning ilmiy-tanqidiy matnnini yaratib, mazkur matn yuzasidan amalgalashirilgan tekstologik tadqiqotlarini doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoya etgan. Porso Shamsiyev bundan tashqari, Xondamirning «Makorim ul- axloq» asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan, Boburning «Boburnoma» (S. Mirzayev bilan hamkorlikda) asarining ilmiy nashrini yaratgan, 5 kitobdan iborat «O'zbek adabiyoti» majmuasini tuzish, tahrir etish va izohlar yozishda ishtirok etgan. Porso Shamsiyev Britaniya muzeyida saqlanayotgan va Abdujamilga nisbat berilgan «Tuhfat ul- salotin» asari mikrofilmini o'rjanib, uning

Navoiy g'azallaridan olingan va Abdujamil xattot tomonidan ko'chirilgan shohbaytlar ekanini va mavzu bo'yicha 45 faslga bo'linganini aniqlagan. Porso Shamsiyev G'afur G`ulomning 4 jildli «Tanlangan asarlar»i va 2 jildli «Adabiy-tanqidiy maqolalar»ini ham nashrga tayyorlagan. P. Shamsiyev, shuningdek, S.Ibrohimov bilan hamkorlikda «O'zbek klassik adabiyoti lug'ati» (1953) va «Navoiy asarlarining lug'ati»ni tuzgan (1972). Toshkent ko'chalaridan biriga Porso Shamsiyev nomi berilgan.

Yosh olim, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) G'iyosiddin Shodmonov Porso Shamsiyevning ilmiy merosini chuqur o'rghanib, 2015-yilda "Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos" mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Quyida yosh olimning "Porso Shamsiyevning hayot yo'li va ilmiy merosi" nomli maqolasini to'liq keltirishni joiz deb topdik:

"O'zbek matnshunosligi ravnaqini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porsoxon Shamsiyevning salmoqdur xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Olim o'zbek matnshunosligining asoschilaridan biri sifatida qariyb 50 yil mobaynida mumtoz shoirlarimiz, xususan Alisher Navoiy asarlarini to'plash, o'rganish va nashrga tayyorlash ishlari bilan muttasil shug'ullanib kelgan, ko'plab asarlarning matnini yaratgan olimdir.

Porso Shamsiyev 1897- yil 10-fevralda Buxorodagi Xoja Porso mahallasida tavallud topdi. U avval mahalladagi maktabda, so'ngra madrasada tahsil ko'rди. Mehnat faoliyatini o'zi tug'ilib o'sgan joy – Buxoroda amirlik davridayoq ilm-ma'rifatni egallashga da'vat etuvchi maqolalari bilan boshlagan, devonda yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanar, yoshlarni xat o'rganish, ma'rifatli bo'lishga undar edi. 30-yillarda nashr etilib, bir qancha vaqt maktablarda darslik sifatida qo'llanilgan "Adabiyotdan ish kitobi", "Adabiyot darsligi", "O'zbek tili darsligi", birinchi va ikkinchi "O'qish kitobi" kabilar Porso Shamsiyevning yuqorida aytilgan ilmiy va amaliy faoliyatining isbotidir. XX asrning 30-yillariga qadar madrasa, maktab va

maorif yo'nalishidagi muassasalarda xizmat qilgan olim 1931-1936 yillarda O'zbekiston davlat nashriyoti, O'quv pedagogika nashriyoti (1936-1940), O'zFAN nashriyotida muharrir (1941-1945), Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1945-1972) lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Porso Shamsiyev qator olim-u shoirlar bilan bir safda turib, ko'plab ishlarni amalga oshirdi. U Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Boqiy domla (A.Nasriddinov), Hodi Zarif, Anisiy, Muinzoda, Charxiy kabi olim, fozil va shoirlarning do'sti va hamkori edi. Ustoz mehnatni juda sevadigan va qadrlaydigan kishi edi. Toliqmay mehnat qilishni ham, shu mehnatning rohatini totishni, uning zavqi-gashtini surishni ham bilardi. Davralarda joy tanlamas, aksar yoshlar orasida bo'lishni xush ko'rар, nihoyatda samimi, muruvvatli va mehribon inson edi. Doim barchaga yordam berishga tayyor, yoshlardan foydali ko'mak va ilmga oid qimmatli maslahatlarini ayamaydigan kishi sifatida shogirdlar xotirasida muhrlanib qoldi. Olimning ajoyib xislatlaridan yana biri qilayotgan har bir ishiga erinmasdan jiddiy e'tibor qaratishidir. Ustozning eng yaqin shogirdlaridan biri navoiyshunos olima Suyima G'aniyeva shunday xotirlaydi: "Ustoz bilan birga mehnat qilgan paytlarimiz bir narsadan hayratlanardim. Domla o'zi juda yaxshi biladigan so'zlarni ham lug'atdan bir qarab olardi.

— Lug'at ko'rish yaxshi odatga aylanishi kerak. Kutilmagan bir so'zning ma'lum bo'lмаган bir qirrasini bilib olasiz, bilganingiz esa xotiraga naqshlanib boraveradi, – deb aytardi.

Yana bir kuni olima ustozining oldiga "rind" so'zining lug'aviy ma'nosini bilish maqsadida ko'mak so'rab keladi: "O'zimdagи lug'atlar qoniqtirmadi chog'i, ertasiga ustozga murojaat qildim. Anchagina tushuntirgach, qo'liga lug'at olib varaqladи. U yerda "rind – shariat qoidalarini johillik yuzasidan emas, balki ongli suratda inkor qiluvchi ziyrak, hushyor, ozod fikrli odam", deb izohlangan ekan... Ustoz o'shanda chiroyli tabassum bilan hazilomuz:

— E-ha, o'zimiz ekanmiz-da! – degan edi".

30-yillarning oxirida hukumat ko'rsatmasiga binoan

Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish maqsadida shoir hayoti va ijodini o'rganish, uni keng xalq ommasiga yetkazish uchun ommaviy nashr ishlari jadal sur'atda amalga oshirila boshlandi. Tashkiliy ishlarga shoir Hamid Olimjon rahbarlik qilardi. Respublikadagi yetuk ilmiy kuchlar, mumtoz adabiyot bilimdonlari bu qutlug' va mas'uliyatli ishga jalg qilinadilar. Hamid Olimjon Porsoxon Shamsiyevni ham ilm dargohiga olib kiradi. Ustod Sadriddin Ayniy, Boqiy, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Uyg'un, Amin Umariy, Hodi Zarif kabi olim va shoirlar jamoasi buyuk alloma Alisher Navoiy merosini toplash, o'rganish va ayrim asarlarini ommaviy nashrga tayyorlashga qizg'in kirishib ketadilar. Bu jarayonda Porso Shamsiyev birinchi marta Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", keyinroq "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Munshoat", "Vaqfiya", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardascher" kabi ilmiy-nasriy asarlarini va "Xamsa" tarkibidagi beshinchi doston "Saddi Iskandariy"ni nashr ettiradi. Porsoxon domlaning ilmiy biografiyasi mazmunini olim tomonidan yaratilgan darslik va xrestomatiyalar, ilmiy-ommabop nashrlar, ilmiy-tanqidiy matnlar va maqolalar tashkil etadi. Bulardan tashqari, "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at", "Navoiy asarlari lug'ati" (Sobirjon Ibrohimov bilan hammualliflikda) kabilarning yaratilishi ham olimning Navoiy asarlari bo'yicha olib borgan ko'p yillik matnshunoslik tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Bu lug'atlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

P. Shamsiyev matnshunoslik faoliyatining yana bir o'ziga xos jihatni uning o'zbek adabiyoti namoyandalari, jumladan, G'afur G'ulom asarlarini nashrga tayyorlash jarayonida ko'rindi. Olimning G. G'ulom bilan do'st va hamkorligi g'oyat samimiyligi va samarali kechganini shogirdlari ko'p bora ta'kidlashgan. 1953-1957 yillari uning to'rt jildlik majmuasi ko'p jihatdan Porso Shamsiyevning sa'y-harakatlari natijasida yuqori saviyada tayyorlandi. Olim buni shoir tavalludining 50 yilligiga bag'ishlagan edi. Matnshunos olim Alisher Navoiy

asarlari haqida, adabiy aloqalar xususida anchagina ilmiy maqola va taqrizlarning muallifidir. U Abduqodir Hayitmetov bilan hamkorlikda yana bir xayrli ishni amalga oshirdi. Matnshunos 1958-yili o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos iz qoldirgan ajoyib so'z san'atkori Boborahim Mashrab ijodidan ba'zi namunalarni to'plab nashr ettirdi. Bu Mashrab ijodini o'rganishdagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Olim undagi she'rlarni "Devoni Mashrab" kitobining, asosan, XIX asrda ko'chirilgan va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan litografiya nashrlaridan tanlab oldi. Kitobga shoirning 49 ta g'azal, 3 ta mustazod, 6 ta muxammas va 1 ta musaddasi kiritilgan.

Porso Shamsiyevning matnshunoslikdagi faoliyati faqat mumtoz adabiyot namoyandalari, xususan, Alisher Navoiy asarlari bilan chegaralanib qolgan emas, albatta. Ustoz olti tomlik "O'zbek adabiyoti" (xrestomatiya, Toshkent 1958-1968) va "O'zbek poeziyasi antologiyasi" (besh jildli, Toshkent, 1961-1962) ning nashrlarida ham faol qatnashdi. Ayniqsa, olim S. Mirzayev bilan birgalikda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini arab alifbosidan tabdil qilgani va to'liq nashrini amalga oshirgani matnshunoslikdagi katta voqeа bo'lgan edi. Bu kitoblar keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim manbaga aylandi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiyning Navoiy, Navoiyning esa Jomiy haqida yozganlarini yig'ib, alohida so'z boshi bilan "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" nomli to'plamni e'lon qilgani ham tahsinga loyiq .Ushbu kitob Alisher Navoiyning ulug' fors-tojik shoiri va olimi Abdurahmon Jomiy haqida o'zining turli asarlarida bayon qilgan qimmatli va tarixiy fikrlari yig'indisidir. Bu to'plamda kitobxon Jomiy bilan Navoiy orasidagi yaqin munosabat, chin do'stlik va hamkorlikka oid eng muhim ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan birga, mavlono Jomiyning hayoti, ilmiy va adabiy faoliyatining ayrim lavhalari bilan ham tanishishga tuyassar bo'ladi.To'plamning yana bir muhim jihat shundaki, uning ichida Navoiyning Jomiyiga bag'ishlab yozgan va ilmiy jamoatchilik uchun g'oyatda zaruriy manba bo'lgan "Xamsat ul-mutahayyirin" asari ilk

marotaba nashr ettirilgan edi. Bundan tashqari, P. Shamsiyev tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. U Navoiyning bиринчи biografi Xondamirning “Makorimu-l-axloq” asarini fors tilidan o’zbekchaga tarjima qilib, keng jamoatchilikka taqdim etdi. Keyinchalik bu tarjima bir necha marotaba nashr ettirildi.

1972-yilda ustozning 70 yillik yubileyi keng nishonlandi. Olim ko’p yillik samarali mehnatlari uchun “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi” unvoni bilan taqdirlangan edi. Porso Shamsiyev 1973- yilning 23- martida vafot etdi.

Olim tomonidan nashrga tayyorlangan va tugallanmay qolgan bir qator matnshunoslik tadqiqotlari chop etilmay goldi. Xususan, “Xamsa” dostonlarining ilmiy- tanqidiy matnnini bir jildda chop ettirish, Abduljamil kotib tayyorlagan “Tuhfat us-salotin” asari, mumtoz asarlarning ko’p jildli izohli lug’ati, Navoiyning “Layli va Majnun” va “Saddi Iskandariy” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida), Navoiyning barcha asarlaridagi hikoyatlardan tuzilgan to’plam shular jumlasidandir. Olim vafotidan so’ng uning tugallanmay qolgan yoki tayyor bo’lib, nashr etishga ulgurmagan ishlarini shogirdlari ustoz xotirasi uchun yakunlab qo’ydilar. Xususan, Abduljamil kotibning “Tuhfat us-salotin” asari 2007- yil Suyima G’aniyeva tomonidan nashr qilingani bunga misoldir. Mehnatsevarlik Porso Shamsiyevga xos xususiyat edi. Yarim asr mobaynida ming bosma taboqdan ortiq asarlar bevosita P.Shamsiyevning ishtiroki yoxud tahriri ostida nashr etilishining o’ziyoq uning ulkan mehnatsevarligidan dalolat berib turibdi”.¹⁹

Savol va topshiriqlar:

1. Porso Shamsiyev matnshunoslik faoliyatini qachon va qayerda boshlagan?

2. P. Shamsiyev A. Navoiyning qaysi asarlarining ilmiy- tanqidiy matnnini tuzgan?

3. Olim zamonaviy shoirlardan kimlarning asarlarini nashrga tayyorlagan?

4. P. Shamsiyevning adabiyotshunoslikka oid darsliklari

¹⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/porso-shamsiyev-abdurahmon-jomiy-va-alisher-navoiy.html>

ro'yxatini tuzing.

O'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Hasaniy, A. Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012.
2. A. Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik.T.: 2008.
3. G'. Shodmonov. Porso Shamsiyev-adabiyotshunos va matnshunos. Magistrlik dissertatsiyasi. Qarshi DU.- Qarshi, 2015.
4. [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/porso-shamsiyev - abdurahmon-jomiy-va-alisher-navoiy.html](https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/porso-shamsiyev-abdurahmon-jomiy-va-alisher-navoiy.html).

12-mavzu: Tarixiy asarlarning tuzilishi va o`ziga xosligi

Reja:

- 1. Tarixiy asarlarning tuzilishi va o`ziga xosligi*
- 2. Alisher Navoiy – tarix ilmining bilimdoni.*
- 3. "Tarixi muluki ajam" asarining tuzilishi.*

Tayanch so`z va atamalar: tarixiy asar yozish an'anasi, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki ajam", anbiyo, hukamo, peshdodiyalar sulolasi , kayoniyalar sulolasi, ashkoniyalar sulolasi, sosoniylar sulolasi.

Tarixiy asarlarni yozish juda uzoq muddat va chuqur izlanishlarni talab qilgan. Ular asosan podshohlarning topshirig`iga muvofiq ma'lum bir shaxslarga buyurilgan. Tarixiy asarlarda yirma-yil voqealar "zikr"larga, ya'ni bayon, tafsilot ma'nosida keluvchi sarlavhalarga ajratiladi. Ayrim hollarda muhim voqealar alohida zikr etiladi. Bunday sarlavhalar asosiy matndan ajralib turishi uchun qizil siyohda yirik suls xati bilan yozilgan.

Tarixiy asarlar, qoidaga binoan, olamning yaratilishi, payg`ambarlar tarixidan boshlanadi. So`ng asta-sekin muqaddaslashtirilgan ulug` podshohlarga, kitobni buyurgan shohlar, homiylik qilgan shaxslarga o`tiladi. O`tmishda barcha tarixchilar o`zlaridan oldin yozilgan asarlardan o`z kunlarigacha bo`lgan davr tarixini yozishda to`g`ridan to`g`ri ko`chirish orqali foydalanganlar. Bu usul fanda *kompilyatsiya*, ya'ni o`zlashtirish deyiladi. Ko`p jildli mashhur asarlarning barchasida ushbu usul qo'llangan, faqat muallifning o`zi yashagan davr haqidagi qismi ilmiy ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiyning olim sifatidagi faoliyati uning nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki tarixshunoslikka doir asarlari bilan ham belgilanadi. U ushbu fan taraqqiyotiga o`zining "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluki ajam" asarlari bilan ulkan hissa qo'shdii .

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" risolasi

islom dini manbalariga asoslangan asar bo'lib, payg'ambarlar - rasul va nabiyalar hamda hakim zotlar - allomalar tarixiga bag'ishlangan. Shu ma'noda asarni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Anbiyo - payg'ambarlar tarixi.
2. Hukamo - hakim zotlar tarixi.

Dastavval, Odam Ato (a.s.) qissasi hikoya qilinadi. Unda Odamning yaratilishi, Iblisning Oliy dargohdan quvilishi, so'ng Odam va Momo Havoning yer yuziga tushirilishi bilan bog'liq hikoyalar keltiriladi. Navoiy payg'ambarlarni an'anaga binoan ikki guruhga bo'ladi: rasul va nabiyalar. Rasullarga Alloh kitob va sahifa nozil qilgan bo'lib, ular "mursalin" nomi bilan ataladi. Nabiyalar esa faqat vahiy olgan paygamarlar bo'lib, ularga kitob nozil qilinmagan (tushirilmagan).

Alisher Navoiy payg'ambarlar haqida so'zlab, ularning yashagan davrlariga to'xtaladi, aniq yillarni keltiradi (Masalan, Maxoyil binni Kushon 865 yil yashagan). Shuningdek, payg'ambarlarning ahli ayoli, farzandlari, kasb-u kori haqida ma'lumot beriladi. Payg'ambarzodalarning hammasiga ham payg'ambarlik maqomi berilmagan, ularning ba'zilarigagina Allohdan vahiy tushgan. Masalan, Odam Atoning nevarasi Anush, uning o'g'li Qinon kabilar bu sharafga noil bo'la olmaganlar. Shu tariqa muallif oltmishdan ziyod payg'ambar va payg'ambar avlodlarining hayoti, tarjimayi holini batatsil yoritadi.

Zikr etilganlar sirasida "Qur'on"da nomi tilga olingan barcha payg'ambarlar, Luqmoni Hakim, Zulqarnayn kabi vahiy tushgan yo tushmagani ixtilofli bo'lgan valiy zotlarni ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur asarda bir zamonda bir necha payg'ambarlar yashagani ham aytildi. Masalan, Is'hoq (a.s.) vafot etgan yili Yusuf (a.s.)ning Misr hokimi bo'lgani va hokazo. Shuningdek, "Qur'on"da tilga olingan "Ashobi kahf" qissasi ham mazkur asardan o'rin olgan.

Payg'ambarlar qissasi hajman o'zaro farqlanadi. Ba'zi payg'ambarlar, masalan, Xizr (a.s.) haqida qisqa ma'lumot bilan cheklanilsa, Yusuf (a.s.), Ibrohim (a.s.), Muso (a.s.) va Iso (a.s.) larning hayotiga doir juda ko'p voqealar bayon qilinadi. Alisher

Navoiy Yusuf (a.s.) haqidagi qissani bayon qilishga kirisharkan, Firdavsiy, Tusiy va Abdurahmon Jomiylar ham mazkur mavzuda doston yozganlarini aytib, o'zining ham turkiy tilda masnaviy yozish niyati borligini bildirib o'tadi.

Mazkur qismda keltirilgan ma'lumotlarning bosh manbasi Qur'oni karim bo'lib, muallif o'z fikrlarini asoslash uchun muayyan oyatlarni havola hilib boradi. Yana bir e'tiborli jihatni, Alisher Navoiy payg'ambarlarning iyemoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlaydi. Masalan, Ayyub (a.s.)ning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to'smaganini aytarkan, bu bilan sevgi va do'stlikning sobit bo'lishi haqidagi g'oyalarini bayon qiladi.

Asarda har bir payg'ambar qissasidan so'ng muayyan she'riy parchalar keltiriladi. Shoир ularni "masnaviy", "ruboiy", "bayt", ba'zan esa "she'r" yoki "nazm" nomlari ostida berib boradi. Mazkur she'riy parchalarda qissasi hikoya qilingan payg'ambar nomi tilga olinadi va falsafiy xulosalar chiqariladi.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining ikkinchi qismi hukamolar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, bu qism umumiylashtirilgan taxminan to'rtdan bir qismini tashkil etadi. Hukamolar tarixi anbiyolarnikiga nisbatan qisqa bo'lib, umumiylashtirilgan. Alisher Navoiy Luqmoni hakim, Fishogur (Pifagor), Jomosb, Buqrot (Gippokrat), Buqrotis, Suqrot (Sokrat), Aflatun (Platon), Aristotilis (Arastu), Balinos, Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolemey) kabi yunon faylasuflari va Sodiq, Buzurgmehr kabi fors hakimlarining - jami o'n uch nafar olimning tarixini qisqacha yoritadi. Har bir hikoyadan keyin an'anaviy tarzda bir bayt she'r ilova qilib boriladi.

Biz mazkur asardagi payg'ambarlar bilan bog'liq an'anaviy voqealarni "Qisasi Rabg'uziy" va "Shajarayi turk" kabi turkiy tilda yaratilgan boshqa ko'plab asarlarda ham uchratamiz. Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asari din tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, bu o'rinda muallif din tarixi hamda yunon falsafasi bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" ("Arab bo'limgan shohlar tarixi") asari o'z davri nuqtai nazaridan ilmiy dalillarga

asoslangan risola hisoblanadi. Asarda Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi batafsil hikoya qilinadi.

An'anaga muvofiq tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda "Nizom ut-tavorix", "Jome ut- tavorix", "Nasihat ul-muluk", "Jovidon xirad", "Odob ul-arab va al-furus", "Guzida", "Muntaxab", "Devon un-nasab" kabi manbalardan foydalanadi va Banokatiy, imom Muhammad Tazzoliy, Tabariy, Abu Ali Miskavayx, Qozi Barzoviy kabi tarixchi olimlarning nomlarini keltirib, ma'lumotlarni ularning asarlaridan olganini aytib o'tadi. Shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma" siga ko'proq murojaat qiladi. Iskandar haqidagi qissada esa xamsanavislар Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy larning qarashlarini keltirib o'tadi.

Alisher Navoiy masalaga nuktadon muarrix - tarixchi olim sifatida yondashar ekan, har bir ma'lumotning aniq va asosli bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Alisher Navoiy peshdodiylar sulolasiga mansub 11, kayoniylar sulolasidan 9, ashkoniy sulolasidan 15, sosoniylar sulolasidan 28, jami to'rt suloladan 63 hukmdorning nomlari, ularning tarjimayi holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma'lumotlarni taqdim etadi. Deyarli har podshoh qissasidan keyin an'anaga muvofiq "she'r" nomi ostida qissa mazmuniga uyg'un baytlar ilova qiladi. Bundan tashqari, to'rt sulola hukmdorlari haqidagi qissalarning so'ngida ham umumiy yakunlovchi masnaviylar mavjud. Alisher Navoiy mazkur asarida tarixga oid juda qiziqarli va ahamiyatli ko'plab ma'lumotlarni beradi. Balx, Bobil, Nishopur, Mary, Samarqand va yana o'nlab shaharlarni bunyod qilgan shohlar, Navro'z bayramining kelib chiqishi, ro'zaning paydo bo'lishi, butparastlikning sabablari bilan bog'liq voqealar shular jumlasidandir.

Hazrat Navoiy shohlar haqida so'zlar ekan,adolatli sultonlarni olqishlaydi, ularning xayrli taqdirini mamnuniyat bilan hikoya qiladi, zolim va mustabid hukmdorlarga salbiy munosabat bildirib, ularning ayanchli kechmishiga ibrat nazari

bilan boqishga undaydi. Masalan, Jamshid haqidagi hikoyada shoh Jamshid dastlab adolatli hukmdor bo'lganligini, keyinchalik esa o'z qudratiga ishonib, kibr-u havoga berilganligini va odamlardan o'ziga sig'inishini talab qilganligini qoralaydi.

Alisher Navoiy No'shiravoni Odil haqida ma'lumot berar ekan, uning sosoniyalar sulolasiga mansub o'n to'qqizinchi hukmdor ekanligini, otasining ismi Kubod bo'lganligini aytib, No'shiravonning adolatiga alohida urg'u beradi va bir qator mashhur hikoyatlarni ilova qiladi. Hikoyatlardan birida aytishicha, No'shiravon davrida bir kishi bog' sotib oladi. Bu bog'dan xazina topib olgach, bog' sotgan kishining oldiga borib, oltinlarni unga bermoqchi bo'ladi. Bog'ni sotgan odam: "Bog'ga qo'shib, yerni va undagi hamma narsani senga sotganman, oltinlar senga tegishli", - deb javob beradi. Ularning bu "mojarosi" No'shiravonning qulog'iga ham yetib boradi va u ikki kishini chaqirib, quda bo'lishni va xazinani barpo etilajak yangi oilaga berishni maslahat beradi. Bu hikoyatda hukmdor adolatli bo'lsa, xalqda ham insof-u iymon bo'ladi, degan falsafiy xulosa mavjud.

Alisher Navoiy Iskandar haqida to'xtalar ekan, uning tarixi ixtilofli ekanligini aytadi va garchi, u kayoniyalar sulolasi vakili sifatida keltirilsa- da, bu borada ham turli taxminlar mavjud, deb ta'kidlaydi. Shoir Iskandar va uning tug'ilishi, nas-nasabi to'g'risida gapira turib, Xusrav Dehlaviyning "Oyinayi Iskandariy" va Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnomasi" dagi ma'lumotlarni o'zining "Saddi Iskandariy"sida keltirgan ma'lumotlari bilan qiyoslaydi, o'rtadagi farqlarni aytib o'tadi. Samarqand, Hirot, Marv va Isfaxonni Iskandar buniyod qilgani bilan bog'liq ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi.

Navoiy nomlarini keltirgan 63 hukmdor ichida uch ayol podshoh ismiham zikretilgan bo'lib, ulardan biri - kayoniyarlarning oltinchi hukmdori HUMOY. U kayoniyalar hukmdori Bahmanning ayoli bo'lib, shoh vafot etganda homilador edi. Bahman jon berish paytida tojini ayolining qorniga qo'yadi va olamdan o'tgach, arkoni davlat Humoyni podshoh qilib ko'taradi. Xumoy o'g'il farzand ko'rgach, saltanatga mehri zo'rлиgi yoki o'g'lining

xavfsizligini o'ylab, uni sandiqqa solib daryoga oqizadi va sandiqqa o'g'lining podshohzoda ekanini anglatuvchi yoqtirlarni ham soladi. Taqdir taqozosi bilan o'g'li ulg'ayib, onasini topadi. Humoy unga davlat boshqaruvini topshiradi.

Alisher Navoiy tilga olgan keyingi ikki ayol podshoh sosoziylarning 27- va 28- hukmdorlari Turonduxt va Ozarmduxtdir. Shoир ularning taxtga chiqishi va hukmdorlik davri bilan bog'liq qiziqarli faktlarni keltiradi. Bu ikki ayol podshoh opa-singil bo'lib, 23-podshoh Xusrav Parvizning qizlari edi.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asari orqali tarix bilimdoni qiyofasida namoyon bo'ladi. Asardagi yuzlab geografik nomlar, yuzlab shaxslarning ismi-sharifi hamda yuzlab voqealar muallifning kuchli xotirasidan ham darak beradi.

Asarning xotimasi masnaviy tarzida bo'lib, 50 baytdan iborat. Unda Navoiy bevosita Shoh G'oziy - do'sti Sulton Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. Uning adolati va saxovatini, inson sifatidagi yuksak xulqini madh qiladi. Shohni yagona javharga qiyoslaydi va shuning uchun ham unga "Nazm ul-javohir" asarini bag'ishlab yozganini aytadi va kelajakda Husayn Boyqaro tarixini bitish niyati borligini bildiradi.

Xullas, Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari shoirning tarixchi olim sifatidagi yana bir muhim qirrasini ochish bilan birgalikda Sharq xalqlarining tarixidan kengroq xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'rta asrlardagi tarixiy asarlar bilan hozirgi kundagi tarixiy asarlarni solishtiring. Farq va o'xshash belgilarini sharhlang.

2. Navoiyning tarix faniga qo'shgan buyuk hissasi nimalardan iborat?

3. Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarini yaratishda qaysi tarixchilarning asarlariga murojaat qilgan?

O`qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
2. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012
3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik.T.: 2008

13-mavzu: Zamonaviy o'zbek matnshunosligi tendensiyalari

Reja:

- 1. Zamonaviy o'zbek matnshunosligining yutuqlari.*
- 2. Zamonaviy o'zbek matnshunosligidagi muammolar.*
- 3. Zamonaviy o'zbek matnshunosligi tendensiyalari*

O'zbek matnshunosligining ildizi teran. Turkiy tilda matn tuzish an'analari yuzaga kelibdiki, uning bilan izma-iz matn bilimi (matnshunoslik) ham paydo bo'la boshlagan; matn tuzishning yo'l-yo'riqlari, prinsiplari va nazariy asoslari ishlab chiqilib, fan sifatida yuzaga kelgan edi.

O'zbek matnshunosligi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha yuksalish bosqichini kechirdi. Ilk bosqichi VI-VIII yuzyilliklarga to'g'ri keladi. Uning izlarini, matnga ilmiy munosabat, tayanch hamda asosli matn tuzish borasida to'plangan bilim va tajribalarning amaldagi tadbiqini xoqonlar, davlat arboblari, sarkardalar xotirasiga bitilgan ko'hna monumental matnlarda — Ko'kturk bitiglarida kuzatamiz. Ko'kturk bitiglari o'tganlarning xotirasiga tiklangan yodgorliklar bo'lishiga qaramay, ularda matn tuzishning aniq prinsiplari ishlab chiqilgan edi. Adib va tarixchi Yo'llug' tigin 732 - yili, otasining topshirig'iga ko'ra, amakisi Kul tigin xotirasiga atab bitig yozgan. Oradan ko'p o'tmay, 735- yili o'z otasi Bilga xoqon xotirasiga atab o'rnatilgan bitigni yozishda ham xuddi o'sha yo'lni tutgan: hatto birinchi bitigdagи matnning katta bir bo'lagini olib, uni tahrir qilib, ikkinchi bitingga ham kiritgan. Yo'llug' tiginning matnshunoslikdagi yutuqlaridan biri shunda ediki, u tarixiy matn tuzish prinsiplarini ishlab chiqdi. Ulug' adib boshlab bergen an'ana keyingi davrlarda ham davom etdi.

Matnshunoslik tarixida temuriylar davri katta bir yuksalish bosqichi sanaladi. Bu davrda o'zbek matnshunosligida klassik asarlami o'rganish va ularning tayanch nusxalarini yaratish borasida katta yutuqlarga erishildi. Matnshunoslik tarixida ilmiy- tanqidiy matn tuzish tamoyillari ana shu kezlar

ishlab chiqildi. Bunga Boysung'ur mirzo qo'l ostida Firdavsiy "Shohnoma"sining tanqidiy matni yaratilganligi o'rnak bo'la oladi. Matn so'zboshisini ham Boysung'uming o'zi yozgan edi. Yoki Xo'ja Arslonxon qo'l ostida, uning ko'rsatmasi bilan Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga tegishli "Hibat ul-haqoyiq" asarining yig'ma matni yaratildi. Ushbu tayanch matnni 1444-yili Samarqandda Zaynulobiddin baxshi uyg'ur xatida tuzib chiqqan. Asarning qolgan nusxalari esa ushbu tayanch matn asosida yaratilgan.

O'tmisht matnshunosligining diqqatga sazovor muhim belgisi — an'anaviylik va uzlucksizlik, shu sohada to'plangan bilim va ko'nikmalar amalda qo'llab kelingani bilan o'lchanadi.

Hozirgizammon matnshunosligi o'tgan asrning 30-yillaridagi suronli davrlardan keyin yangidan, aytish mumkinki, yo'q yerda bo'y ko'rsatdi. Shunday esa-da, oz fursatda fanning ilg'or yutuqlarini egallab, katta mavqega ko'tarilib ulgurdi. Matnshunosligimizda o'tgan davr ichida katta ishlar amalga oshdi. Quvonarlisi, hozirgi o'zbek matnshunosligi, ayrim yo'naliishlarda, amaliy sohalarda, arab yozuvli manbalarni o'rganishda yetakchi o'rinda turadi. Biroq matnshunosligimiz bu yutuqlarda to'xtab qolmasligi, har qachon ham dunyodagi ilg'or o'rirlarni egallamog'i kerak. Eski va boy yozma merosga ega bo'lgan xalqning matn bilimi ham shunga yarasha bo'lmog'i lozim. Tinimsiz izlanishlar, hozirgi zamон matnshunosligining ilg'or yutuqlariga tayanilgan bilim va tajribalargina soha kelajagiga yo'l ochadi. Buning uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilish kerak.

O'zbek matnshunosligi deganda faqat arab yozuvidagi qo'lyozma manbalami o'rganish tushunilmasligi kerak. Uning qamrovi nihoyatda keng: bunga Ko'kturk yozuvidagi bitiglardan tortib uyg'ur, moniy va islomdan burungi davrlarda boshqa yozuvlarda yaratilgan matnlarni o'rganish ishlari ham kiradi. Shunday ekan, ota- bobolarimiz islomdan burungi davrlarda yaratgan bitiglami o'rganish, ulaming ilmiy nashrlarini yaratish ham muhim ishlardan sanaladi. Afsuski, bu yo'naliishda bitiglar ustida ish olib borayotgan, asi bitiglami o'qib, ular bo'yicha

ilmiy-tadqiqot yaratayotgan olimlarimiz barmoq bilan sanarli.

Eski zamonlarda O'rta Osiyo o'lkalarida qadimgi xorazmiy, sug'd, forsiy, arab tillarida yaratilgan manbalarni o'rganish, ularning ilmiy nashrlarini, tarjimalarini yaratish ham o'zbek matnshunosligining vazifasiga kiradi. Bu yo'nalishda matnshunoslikda ko'zga tashlanadigan ishlar yaratildi.

O'zbek matnshunosligining oqsayotgan jihatlari ham oz emas. Bu kamchiliklar, ayniqsa, ilmiy matnlar yaratish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shularning biri, ilmiy transkripsiya masalasidir. Mutaxassislarga ayon, ilmiy yoki ilmiy-tanqidiy matn tuzishda eng to'g'ri va ishonchli yo'l — matn asli qanday yozuvda bo'lsa, uni o'sha yozuvida berishdir. Masalan, arab yozuvli asarning ilmiy matni ham arab yozuvida bo'lgani yaxshi. Lekin har qachon ham, ayniqsa, qadimgi ko'kturk, uyg'ur, moniy yozuvlaridagi bitiglarning ilmiy nashrida buning imkonи topilavermaydi. Tugunning yechimi uchun ilmiy transkripsiya murojaat qilinadi.

Yevropa matnshunosligida ilmiy transkripsiya allaqachon yaxshi egallangan. Ayonki, fanda ilmiy transkripsiyyada tayyorlangan matnning mavqeyi, qadri har qachon yuqori turadi. Transkripsion nashrlar ilmiy qarashlarning yaqinlashuviga, intellekt rivojiga yo'l ochadi. Biz esa, har qanday yozma merosning ilmiy nashri transkripsiyyada bo'lishi kerakligini tushunib yetmagandekmiz. Nashrlarimizda, hatto sof ilmiy ishlarda, doktorlik va nomzodlik ishlarida ham ilmiy transkripsiya ko'pda amal qilinmayapti. Sovuqqonligimiz yaratgan ishlarimizning dunyo darajasiga ko'tariluviga yo'l bermayapti, ba'zida. Bu hol bir kun kelib boshqa tadqiqotlarning yo'lini to'sib qo'yishi ham mumkin. Jo'ngina bir misol. Til tarixida "olov" ma'nosidagi o't bilan "o'tmak" (fe'l) ma'nosidagi o't, yoki "yuqori o'r'in" ma'nosidagi to'r bilan "tuzoq" ma'nosidagi to'r so'zlari bir-biri bilan omonim emas, butunlay o'zga so'zlardir. Ularning talaffuzi ham farq qilgan: biri ingichka talaffuz etilsa, ikkinchisi yo'g'on o'zaklidir. Hozirgi yozuvga o'girayotgan matnshunos, tabiiyki, ularni o't hamda to'r shaklida beradi. Mabodo siz matndagi so'zlarning sanog'ini bilish uchun

kompyuterga kirlitsangiz, kompyuter so'zlarning yozilishiga qarab, ularni qorishtirib yuboradi, so'zlarni xato hisoblab chiqadi. Bu esa tarixiylikka zid. Shu yo'lidan boriladigan bo'lsa, qanchadan qancha so'zلامи boy beramiz. Transkripsiya amal qilmaslik oqibatida kelib chiqayotgan shu va shunga o'xshash salbiy holatlar bir dunyo.

Ilmiy transkripsiyaning foydasi katta: u matn tilini yaxshi aks ettiradi; matn talqinini yengillashtiradi. Matnni ishonchli manbara aylantirib, u asosida yaratilajak boshqa tadqiqotlarga keng yo'l ochadi. Qolaversa, uning chet ellardagi ana shu soha mutaxassislari uchun ham tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Asarning ilmiy matnnini tayyorlash nihoyatda murakkab jarayon. Ilmiy matn yaratishda, ayniqsa, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda ba'zan salbiy holatlarga yo'l qo'yish hech gap emas. Tabiiyki, har qanday olim matnga o'zi bilganicha yondashadi. Shunga ko'ra ham yaratilgan har qanday ilmiy-tanqidiy matn nisbiydir. Matnshunos asarning ikki qoiyozmasini solishtirib, o'zining talqiniga ishonib, to'g'risi shunday bo'lsa kerak, degan o'y-xayolda uchinchi bir yasama matnni yaratib qo'ymasligi kerak.

Ilmiy matn tuzishda eng to'g'ri va ishonchli yo'1 asarning turli qo'lyozmalariga asoslanib, uning yig'ma-qiyosiy matnnini yaratishdir. Matnshunos barcha ilmiy qoidalarga asoslanib, ana shunday ilmiy matnni yarata olsa, sohada siljish bo'ladi. Ushbu matn asosida boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarini yarata oladilar.

O'tmish matnchiligining muhim belgilaridan biri shundaki, matn bitguchilar matn mazmuniga, uning tuzilishi, uslubiga jiddiy e'tibor qaratib kelganlar. Matn tuzish jarayonida o'zlaridan avval to'plangan bilim va tajribalarga, klassik an'analarga izchil amal qilishgan. Qay zamonda ko'chirilishidan qat'i nazar, matnni aslidek saqlash kotiblarning burchi sanalgan. O'tmish Sharq matn tuzish amaliyotida yozuvga, matnga hurmat doimo yuqori edi. Yozma merosni o'rganishda buning singari qoidalar e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bizga qadar saqlanib qolgan yozma yodgorliklar, bitiglar turlicha munosabatni taqozo etadi. Ayrim matnlar bir yoki ikki nusxada yetib kelgan, ayrimlarining

esa qo'lyozma nusxalari ko'p. Ba'zi matnlardan bir varaq yoki kichik bir uzindi saqlangan, xolos. Ayniqsa, buddizm, moniylik davrlaridan qolgan matnlarda bunday holat ko'p uchraydi. Bunga bir misol. Berlin akademiyasining qo'lyozmalar fondida Turfondan topib keltirilgan ko'p sonli yozma yodgorliklar saqlanmoqda. Ular ichida U 0044 soni ostidagi matn uzindisi bor. U moniylik davrida yaratilgan yirik bir asaming qoldig'idir. Moniylik davridan saqlangan nasriy asarlar u qadar ko'p emas. Lekin ushbu uzindi - matnning o'ziyoq moniylik davri adabiyoti janrlari doirasini kengaytiradi, bizni o'sha asarlar ustida ham bosh qotirishga undaydi. Ba'zi hollarda qaysidir tarixiy asarda, tazkirada yoki biror ilmiy manbada keltirilgan qisqa ma'lumot ham yirik ilmiy masalani ochishga yordam beradi.

Bir misol. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Adib Ahmad hayoti va ijodi to'g'risida o'ta muhim ma'lumotni keltirgan. U mashoyix va adib ijodiga yuksak baho bera turib, uning mavoizidan baytlar keltirgan. Qizig'i shundaki, "Nasoyim ul- muhabbat"ning fanga ma'lum bo'lган qo'lyozmalarida Navoiy keltirgan baytlarning soni har xil: Sankt-Peterburgda saqlanayotgan qo'lyozmasida uch bayt, qolgan nusxalarida esa ikki baytdan iborat. Misolini Sankt-Peterburg nusxasidan keltiramiz:

*Ulug'lar ne bersa, yemasmen dema,
Ilik sun, ag'iz ur, yemasang yema*

*Tilingni tiya tut, tishing sinmasun,
Bu turg'an xaloyiq senga kulmasun.*

*So'ngakka iligidur, eranga bilig,
Biligsiz eran-ul iligsiz so'ngak.*

Mutaxassis e'tiborini tortadigan yeri — uchinchi baytning ikinchi misrasi qo'lyozmada "Biligsiz eran-ul so'ngaksiz ilig" shaklida berilgan va "so'ngaksiz ilig" birikmasining ostiga "iligsiz so'ngak" deb yozib qo'yilgan. Asarning ilmiy-tanqidiy matnnini tuzganda buni baytning ma'nosidan kelib chiqib, "Biligsiz eran-ul iligsiz so'ngak" shaklida tiklansa to'g'ri bo'ladi.

Yana bir jihat, asarning M. Mirzaahmedova tayyorlagan

Toshkent nashrida hamda K. Eraslon tuzgan Istanbul nashrlarida yuqoridagi baytlaming bиринчи va uchinchisi keltirilgan, ikkinchisi yo'q, chunki ular asoslangan tayanch nusxada shunday.

Yanada muhimi, Navoiy keltirgan baytlarning ikkinchi va uchinchisi Adib Ahmadning "Hibat ul-haqoyiq" asarida bir oz o'zgargan ko'rinishda uchraydi. Lekin bиринчи bayt asarning bizga ma'lum bo'lgan tayanch va eng to'liq nusxasida ham yo'q. Demak, Navoiy ushbu baytni Adib Ahmadning bizga ma'lum bo'lмаган pand-nasihat ruhidagi boshqa bir asaridan olgan. Manbadagi bu misol adabiyotshunoslarimizga yana bir vazifani yuklaydi: Adib Ahmad Yughakiyning ijodi to'g'risida fikr yuritganda o'sha bizga yetib kelmagan asari ham ko'zda tutilmog'i kerak bo'ladi.

Endi e'tiboringizni "Abushqa" lug'атida keltirilgan muhim bir ma'lumotga qaratamiz. Lug'ат muallifi klassik ijodkorlarning asarlarida qo'llanilgan so'zlar qatorida sig'naq so'zini tilga oladi. Lug'atchi so'z ma'nosini izohlar ekan, u muayyan yozuvning oti ekanligi, Zahiriddin Bobur o'z g'azallaridan birida uni tilga olganligini ta'kidlaydi va g'azalning o'sha baytini misol keltiradi. Lug'атда berilishi shunday: Sig'naq — bir nav xatdur, Chig'атоyda xatt-i boburiy va g'ayri kibi, ki Bobur mirzo ash'orinda kelur. Bayt:

*Xublar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,
Boburiy xati emasdur, xat-i sig'naqiy mudur.*

Ilk manbada tilga olingen signaq istilohi, chamasi, о'рта asrlar Sirdaryo bo'yidagi turk madaniy markazlaridan biri bo'lgan shahar otiga bog'ланади. Ana shu о'lkada qo'llanilgan yozuv shunday atalgan bo'lishi mumkin.

Sig'naq xatining namunalari hozircha ma'lum emas. U qadimgi turkiy yozuvlardan biri bo'lishi kerak. Bu baytda o'zbek yozuvi madaniyati tarixidagi unutilgan ikki xat — boburiy va sig'naq yozuvi to'g'risida ma'lumot keltirilmoqda. Mana shu ma'lumotning o'zi ham yozuv madaniyati haqidagi bilimlarimiz chegarasini kengaytiradi.

Matnni nashrga tayyorlash jarayonida uning talqini, interpretatsiyasi ham o'ta jiddiy sanalib, mutaxassisdan katta bilim vateran mushohadanitalab etadi. Qadimgit turkiy matnlarni talqin qilish chogida tilning tarixiy taraqqiyoti davomida so'zlar, birikmalarda kechgan ma'no o'zgarishlarini, uslubiy o'lchovlarda yuz bergan farqlarni yodda tutmog'imiz kerak. Burungi me'yorlar hozirgi o'lchovlarga to'g'ri kelavermaydi. Matnning murakkab uslubi, so'z ma'nolari ba'zan asarni tadqiq etayotgan mutaxassislarni ham chalg'itadi. Hozirgi zamon nashrlarida ayrim so'zlar, so'z birikmalari, iboralarning xato talqin qilinayotganligining sababi ham shunda. Bunga bir misol keltiramiz.

Qadimgi Budda muhitida yaratilgan "Oltin tusli yorug" asarida og'a-ini tiginlar qissasi berilgan. O'sha qissada kichik tiginning bars qarshisiga kelib, o'zini qurban qilish oldidagi holati tasvir etiladi. O'sha yerda "bek qatig' sav so'zladi" degan jumla bor. Buni S.Y. Malov rus tiliga: "ochen silno(gromko) vosklitsaya, skazal (gromkimi) golosami" deya tarjima qilgan. Sutraning o'zbekcha nashrida esa ushbu birikmani "juda qattiq so'z so'zladi" deb beradilar.

Shu o'rinda matnda berilgan birikmaning ma'nosini ko'rib chiqsak. Qadimgi turkiy tilda sav — "so'z" degani. Birikmadagi bek so'zi "mustahkam, qattiq" ma'nosini beradi, qatig' so'zi ham ayni tushunchada, ulaming ikkovi birgalikda "o'ta qattiq" ma'nosini anglatadi. Biroq u matnda sav so'zining sifati vazifasida qo'llanilgan. Shuning uchun ko'chma ma'noga ega: so'zga nisbatan "yashirin, ko'ngilning tub-tubidagi", degan tushunchani beradi. O'z o'rnida u istilohga aylanmoqda: bek qatig' sav — ko'ngil tubiga yashiringan so'zlar, ya'ni "tilak", "duo"ni bildiradi.

Ana shularga tayanib, talqinda yuqoridaagi birikmani "ko'ngil tubidagi so'zlarini so'zladi [ya'ni niyatlarini aytди; duo qildи, duosini so'zladi]" deya talqin etilgani ma'qul. Matnda shundan keyin kichik tiginning tilagi (duosi) ham o'rin olgan.

Asarning ilmiy matnnini tuzish jarayonida asar yaratilgan davr tili, o'sha davr ijtimoiy - siyosiy tarixi to'laligicha inobatga

olinmog'i kerak bo'ladi. Aks holda, matnshunos jo'n bir yerda chalg'ishi hech gap emas: o'sha so'zni xato o'qiydi yoki talqinda adashadi. Bunga bir o'mak keltiramiz.

Shohrux mirzoning yurtga egaligi chog'ida uyg'ur xatida yozdirgan yorliqlaridan biri saqlanib qolgan. Hujjat 1422- yili bitilgan. Uni fransuz sharqshunosi J. Deni fanga ma'lum qilgan edi; o'qilishi va mazmunini ham birinchi bo'lib shu olim keltirgan. Fanga olib kirilgani va birinchi bor o'qilishi o'z zamoni uchun katta kashfiyot. Lekin kamchiligi bor: o'qilishi va mazmunda ayrim xatolar ketgan. Masalan, olim hujjat boshlamasidagi bir so'zni to'yunlarg'a ko'rinishida o'qib, fransuzchada *Aux moines bouddigues (buddaviy rohiblarga)* deya talqin etadi. Uning matni va talqini boshqa olimlarni ham chalg'itib qo'ydi. Chunonchi, tarixchi A. Grigoryev rasmiy yozmaning boshlamasi to'g'risida fikr bildirib: "Shohrux bitigi "budda rohiblariga" qaratilgan. Biroq matn mazmunidan hujjatda berilayotgan imtiyozlar budda rohibiga emas, musulmon ruhoniysiga berilganligi ayon bo'ladi. Shuning uchun o'sha kezlari "to'yun" istilohi buddaviy ruhoniylardan tashqari, boshqa dinga e'tiqod etuvchi kishilarga nisbatan ham qo'llanilgan bo'lishi mumkin", - deb yozgan edi. Asl matnga e'tibor qilinsa, boshqa bir manzara: bu so'zning budda rohiblariga butkul bog'liqligi yo'q: u to'yunlarg'a emas, devonlarg'a, deb o'qiladi. Bu so'z matn boshlamasining adresati bo'lib, to'lig'i Shohrux bahodur so'zum devonlarg'a degan murojaatni anglatadi. Matnni ana shunday o'qilganda unga munosabat ham o'zgaradi.

Bugungi kunda o'zbek matnshunosligining oldida turgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat: 1) Lutfiy, Atoy, Sakkokiy kabi ko'plab shoirlar ijodining mukammal nashrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish ; 2) Alisher Navoiy asarlarining akademik (ilmiy), ilmiy-ommabop nashrlarini tayyorlash; 3) "Xazoyin ul-maoniy"ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish; 4) matnshunoslikning nazariy asoslariga bag'ishlangan darslik, o'quv qo'llanmalarni yaratish, bu sohada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish; 5) eski o'zbek tilini, yozuvini, Islom dini va xalqimiz tarixini yaxshi

biladigan, arab va fors tilidan xabardor matnshunos kadrlarni tayyorlash.

O'zbek matnshunosligining kelajagi to'g'risida bosh qotirish ham hozirgi olimlar zimmasida. Sohaning kelajagini ta'minlamoq uchun yosh kadrlar tayyorlashga e'tibor berish, bu sohani yoshartirish yo'lini izlash kerak. Masalaning yechimi oliy o'quv yurtlarida shu sohani chuqur o'qitishdan boshlanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarining filologiya va tarix fakultetlarida matnshunoslarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik institutida katta ishlar qilinmoqda. Mumtoz filologiya yo'nalishida bakalavrlik bosqichidan boshlab talabalarga ko'kturk, uyg'ur, arab yozuvidagi manbalar, ular ustida ishslash, uning yo'l-yo'riqlari o'rgatilmoqda. Shuning bilan birga, arab va forsiy manbalarni o'rganish ustida ham jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, yoshlarning o'zi bu sohani qiziqib o'rganayotir. Talabalik chog'ida Sharq qoiyozmalarini, eski bitiglarni o'qib, uning ichiga kirib, ko'zi pishgan yoshlardan kelgusida yaxshi ishlarni kutsa bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. *O'tmish matnshunosligining diqqatga sazovor muhim belgisi nimalardan iborat?*
2. *XX asr o'zbek matnshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar nimalardan iborat edi?*
3. *XXI asr o'zbek matnshunosligi oldida turgan muhim vazifalar nimalardan iborat?*

O'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Sirojiddinov . Matnshunoslik saboqlari. T.:2019
2. M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari, T.:2012
3. A.Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik.T.: 2008
4. Internet materiallari.

GLOSSARIY

Abjad – arab alifbosidagi harflarni raqamga aylantirish usuli. Raqamlarni oson xotirada saqlab qolish uchun quyidagi tartibda sun'iy so'zlardan iborat 8 guruh o'ylab topilgan: abjad (1,2,3,4), havvaz (5,6,7), hutti (8,9,10), kalaman (20,30,40,50), sa'fas (60, 70, 80, 90), qarashat (100, 200, 300, 400), saxxaz (500, 600, 700), zazag' (800,900,1000).

Arxeografiya- yozmamanbalarni qidirib topish, ilk tavsifga olish, ilmiy muomalaga kiritishni nazarda tutadi. Kutubxona, turli fondlardagi qo'lyozmalarning turkumlashtirilgan tavsifi, arxeografik qiyosiy tahlili manba matnini tuzishda muhim hisoblanadi. Bunday ishlar natijalari matn ustida ishslashning ravon borishini ta'minlaydi.

Asosiy matn -matnshunos tomonidan nashr uchun tayyorlangan qo'lyozma asarning so`nggi varianti .

Ateteza - muayyan asarning muallifi noto`g`ri ko`rsatilgan taqdirda, uni noo`rin mualliflikdan himoya qilish.

Atributsiya – matn muallifini aniqlash.

Bayoz – she'rlar to`plami bo`lib, bir necha shoirlarning asarlarini o`z ichiga oladi.

Diplomatika – farmon, rasmiy yozishmalar, huquqiy akt va hujjatlarni o`rganish va tahlil qilish.

Editsiya- hujjatlari va mumtoz matnlarning ilmiy nashrini amalga oshirish.

Ekzegetika - diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etish.

Epigrafika – tosh, metall, suyak va boshqa qattiq jismlar ustiga yozilgan qadimgi matnlarni o`rganadigan soha.

Epitafiya - qabrtoshga yozilgan bitik (adabiyotda to`plamdan joy olgan mo`jaz she'r).

Geraldika – gerblar, nishon, emblemalarning ma'nomazmunini, tuzilishini o`rganadigan soha.

Germenevtika - qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash bilan shug`ullanadi, matnshunoslik uchun germenevtika asarning qadimda tutgan o`rni, asar umumiy mazmuni kabi ma'lumotlarni beradi.

Gloss -qo'lyozma nusxalarning hoshiyalarida uchraydigan

izohlar, to`ldirishlar, boshqa manbalarga havolalar, Qur'oni karim oyatlari yoki hadislardan keltirilgan misollar.

Husnixat (kalligrafiya) - o`zining serjiloligi va maftunkorligi bilan san'at asariga aylangan xat turlari.

Hoshiya - sahifa chetlari.

Ideografik yozuv - so`z ma'nosining tushuncha orqali ifodalanishi.

Ieroglifik yozuv - logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko`rinishi.

Ilmiy apparat - matniy tafovutlar joy olgan sahifa osti izohlari. Keng ma'noda arxeografik kirish, matniy tadqiqot, matnning berilish tartibi, izoh-u sharhlardan iborat nashr ma'lumotnomasining umumiyl nomi

Interpolyatsiya - qo`lyozmadan nusxa ko`chirish jarayonida ayrim o`zboshimcha xattotlar tomonidan hoshiyadagi bitiklarning asosiy matnga qo'shib yuborilish holatlari.

Ichki unvon - tuzilishi murakkab kitoblarda har bir qismning boshida boshqa siyoh yoki qalin harflar bilan ajratish usuli.

Jadval - matn, sarlavha atrofiga tortiladigan, ba'zan matn qismlarini, ba'zan rasmni matndan ajratish uchun chiziladigan jadval. Matnlar turli shaklda: sidirg'a, ikki ustun, to'rt ustun, zina, romb, doira, qiya holda jadvallarga joylashtirilishi mumkin.

Kashkul(majmua)-turlishe'r, maqol, rivoyatvanaqllardan tuzilgan majmua. Kashkul so`zi aslida qalandarlarning sadaqa yig`adigan idishining nomi hisoblanadi.

Kolofon - uchburchak shaklida chizilib, ichiga kotibning ismi, qo`lyozmaning ko`chirilish sanasi yoziladi. Odatda asarning oxirgi sahifasida keltiriladi.

Konyektura - o`qilishi qiyin, buzilgan joylarni asarning umumiyl mazmunidan kelib chiqib, o`z mulohazalarigagina asoslanib tuzatish.

Lavh -matn boshlangan sahifaning bosh qismida chizilgan naqsh. Har bir asarning boshida yoki har bir bob, fasl boshida ham keladi.

Lavvoh - xattot tomonidan ko`chirilgan matnni rangdor chiziqli jadval ichiga, hoshiyani esa qizil yiki havo rang chiziq ichiga oluvchi, hoshiyaga naqshlar, naqshlar ichida hayvonlar, qushlar, o`simliklarning nozik tasvirini chizuvchi usta-rassom. Qo`lyozmaning bosh qismidagi naqshlar –unvonlar ham lavvoh tomonidan chiziladi.

Litografiya (toshbosma) - yassi chop etish, ya`ni matn oldindan qog`oz varag`iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko`chirish usuli. Toshbosma usulda dastlabki asosiy ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog`ozga ko`chirgan. Bu qog`ozdagagi matn tosh qolip sirtiga o`tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So`ngra ana shu tosh qoliplardan nuxxalar olingan. Xattot toshbosmaga matn ko`chirganda asosan nasta'liq xatidan foydalangan.

Manba - arabcha “oqib chiqmoq”, “boshlanmoq”, “otilib chiqmoq”, “kelib chiqmoq” ma’nolarini anglatuvchi *naba’ a fe’lidan* “*oqib chiqish joyi*”, “*boshlanish nuqtasi*” “*buloq*” ma’nosidagi *manba* so`zi yasalgan. Har qanday harakat, voqeahodisaning boshlang`ich nuqtasi, avvali, boshiga nisbatan qo`llangan bu so`z ma’lum soha kishilarining ixtiyoriga binoan ijod mahsuli tushunchasida qarorlashdi va “manba” deyilganida muayyan asar (kitob) tushunila boshladi. Mutolaq qilingan kitob o`z o`quvchilarida turli xil o`xshash va farqli fiqrarlarni uyg`otadi. Fiqrarning o`xshashligi qarashlarni, farqliligi yondashuvlarni yuzaga keltiradi.

Matn - kitob sahifasidagi yozuvlarning hoshiya va sharhlardan xoli asosiy qismi. Arabcha izohli lug`atlarda bu so`z “*narsaning ustki, yuza qismi*” deb ta’riflangan, shunindek, bu so`zning “*mustahkam; pishiq*” kabi sifat ma’nosida kelgan shakldoshi ham mavjud. Tilimizga o`zlashgan *matonat, metin* so`zлari ham *matn* bilan o`zakdoshdir. “Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati”da *tekst* so`zi “avtorning asl so`zi, asarning qo`lyozmasi yoki nashr etilgan nusxasi”, “Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov» kitobida “yozuv yoki nashrda aks ettirilgan nasriy asar (bayon qilish”) , “Hozirgi o’zbek tili faol

so'zlarining izohli lug`ati"da "matn - mazmunan va mantiqan o`zaro aloqador bo`lgan gaplar yoki alohida olingan gap" , "Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati"da "matn - yonmayon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst" tarzida turlicha ifodalangan. *Matn* bilan teng ma'noda qo'llanadigan *tekst* so`zilotincha *textus* so`zidan olingan bo`lib, "to`qima mato; to`qish; o`rish; chirmash; qo`shish" kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so`zning nisbatan kengroq va qamrovli izohini 2010 - yil "Akademnashr" nashriyotida chop etilgan "Adabiyotshunoslik lug`ati"da ko`rish mumkin.

Matn tarixi - muayyan matnning paydo bo`lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan jarayon matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida subyektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va obyektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o`zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu o`zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo`l bilan asl matnni tiklashdir.

Metrologiya – o`lchovlar tizimi, pul birliklari, turli hisoblar, yil hisobi va taqvimlarni o`rganadigan soha.

Mixbosma (tipografik) - mix shaklidagi metall harflarni qo`lda terish orqali kitob bosilishi. Bunda arab yozuvining nasx yozuvidan keng foydalanilgan.

Musavvir – xattot tomonidan maxsus bo`sh qoldirilgan sahifani sujetli rasmlar bilan bezovchi rassom, miniaturachi.

Numizmatika – tangalar tarixi, ularning shakli, yozuvi, zarb etilgan joyi va vaqtini tekshiradigan soha.

Odob - "adab" so`zining ko`plik shakli. Mumtoz adabiyotda "adab"ning ko`pligi sifatida qo'llanadi. Undan tashqari "odob" so`zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularga rioya qilish ma'nosida ham ishlatalidi.

Paleografiya – qo`lyozma asarlarning qog`ozi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshirish.

Piktografik yozuv - ramziy timsoliga ega har bir so`zning predmetini to`g`ridan-to`g`ri rasm orqali ko`rsatish.

Poygir – o`zidan keying sahifaning shu so`z bilan boshlanishini bildirib keluvchi so`z bo`lib, chap tomonga

joylashtiriladi.

Sahhof – muqovasoz, muqovani tayyorlash, unga rang va bezak berish, kitob sahifalarini muqovaga tikish ishlarini bajaruvchi usta.

Sfragistika- turli muhrlar va ulardagi yozuvlarni tekshiradigan soha.

Ta'sirlar zanjiri -ma'lum adabiy asar bo'yicha tadqiqot olib borayotgan manbashunos o'zi o'rganayotgan obyektning yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ta'sirlar zanjirini tiklaydi, tadqiq etilayotgan asarning bu silsiladagi o'rnnini belgilaydi, halqlar orasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Manbashunoslik tadqiqi mana shu uzluksiz jarayon ichida kechadi.

Tekst- yozuvda qayd etib qo'yilgan nutq. Termin bu ma'nosida og'zaki nutqqa qarshi qo'yiladi; nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki og'zaki (tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (ko'rish yo eshitish) qabul qilinadigan tomoni. Bu ma'nodagi tekst matnshunoslikning obyekta sanaladi; nutqiy kommunikasiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, ya'ni adabiy-badiiy asar.

Unvon –ilk sahifaning yuqori qismidagi bezak.

Xat turlari – arab yozuvida harflarning shakl jihatidan turli suratlarda aks ettirish imkoniyatlari. Islom dinining qabul qilinishi tufayli arabiy harflar bilan yoziladigan bir necha xat turlari paydo bo'ldi. Husnixat tarixida ularning 36 turi qayd etilgan. Eng mashhurlari: *shikasta, devoniy* va *nasta'liq* xatlari. Bu xat turlari *muhaqqaq xati, suls xati, tavqi' xati, riqo' xati, rayhoniy xati, nasx, ta'liq* xatlarining takomillashgan usullari va ko`rinishlaridan iborat.

Yassi chop etish-litografiya usulida kitob tayyorlash. Matn oldindan maxsus qog'oz varag`iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko'chirish usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkinov A., Polvonov N., Aminov X. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fexristi. –T.: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Hamidova M. Qo'lyozma bayozlar. Adabiy manba. – T.: 1981
3. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Hasaniy M. Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va fixristlash. – T.: 2004
5. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslari. – T.: 2012
6. Jo'raboyev O. Matnning matnosti sirlari. – T.: 2017
7. Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М. – Л.: Наука, 1964.
8. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: 2008
9. Mahmudova R. O'zbekistondagi toshbosma matbaalarda Navoiy asarlarining nashr etilishi tarixidan //Adabiy meros, 1968. №1.
10. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik tarixidan. – T.: 1971
11. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B.23
12. Pardayev Q. Muqimiyl she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – T.: Muharrir, 2019. – B. 220.
13. Рейсер С. А. Палеография и текстология нового времени. – М.: Просвещение, 1970. –Б.85.
14. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – T.: 2019
15. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiyatipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011. - B.326.
16. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. – T.: Akademnashr, 2015. – B.128.
17. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – T.: 2017.
18. Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Издание второе. – М.: Искусство, 1959. – с. 30.
19. Ziyodov Sh. Markaziy Osiyoda ilk toshbosma kitoblar

nashri tarixidan. – T: Sharqshunoslik, 2009. №14

20. Zohidov R. “Sabotul ojizin” asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o’rganish muammolari. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 256.

21. Shodmonov G’. Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos. Magistrlik dissertatsiyasi. – Qarshi DU.Qarshi, 2015.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qaysi javobda manbashunoslik- ning sohalari to`g`ri ko`rsatilgan?

- a) adabiy manbashunoslik, fan sohasi manbashunosligi
- b) adabiy manbashunoslik, tarix manbashunosligi
- c) adabiy manbashunoslik, tarix manbashunosligi, fan sohasi manbashunosligi
- d) matnshunoslik, adabiyot tarixi, tarix

2. Filologiya fanining adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o`rganuvchi va nashrnga tayyorlovchi sohasi qanday ataladi?

- a) matnshunoslik
- b) manbashunoslik
- c) lingvistika
- d) adabiyot tarixi

3.Qo`lyozma asarlarning qog`ozi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshiruvchi soha qanday ataladi?

- a) editsiya
- b) germenevtika
- c) geraldika
- d) paleografiya

4. Tangalar tarixi, ularning shakli, yozuvi, zarb etilgan joyi va vaqtini tekshirish sohasi qanday ataladi?

- a) paleografiya
- b) numizmatika
- c) geraldika
- d) germenevtika

5.Turli muhrlar va ulardagি yozuvlarni tekshirish sohasi qanday ataladi?

- a) epigrafika
- b) geraldika
- c) sfragistika
- d) numizmatika

6. Gerblar, nishon, emblemalarning ma’no-mazmunini, tuzilishini o’rganish sohasi qanday ataladi?

- a) epigrafika
- b) geraldika
- c) sfragistika
- d) numizmatika

7. Matnshunoslik fani qanday tarkibiy qism(lar)ga bo`linadi?

- a) matn tarixini o’rganish
- b) matn talqini tadqiqi;
- c) matn tuzish
- d) barcha javob to`g`ri

8..... muayyan matn haqidagi barcha ma’lumotlar yig`indisidir. U asarning shakl va mazmuni haqida to`liq ma’lumot beradi, matnga oid bevosita va bilvosita ma’lumotlar -ning barchasini qamrab oladi.

- a) matn tarixi
- b) matn talqini tadqiqi;
- c) matn tuzish
- d) ilmiy-tanqidiy matn

9. Qo`lyozma tarixini tiklashga yordam beradigan bevosita belgi -larga qanday tavsifiy mezonlar kiradi?

- a) qo`lyozma asarning yaratilish va ko`chirilish sanalari
- b) debocha, muhr
- c) kotib nomi yoki uning qaydlari
- d) barchasi to`g`ri

10. Qo`lyozma tarixini tiklashga yordam beradigan bilvosita belgilarga qanday tavsifiy mezonlar kiradi?

- a) qo`lyozma asarning yaratilish va ko`chirilish sanalari
- b) debocha, muhr
- c) kotib nomi yoki uning qaydlari
- d) asar va uning muallifi haqida turli asarlar, tazkiralarda berilgan ma’lumotlar, qo`lyozma nusxalarni qiyoslash natijasida olinadigan tekstologik natijalar

11. Matnshunoslikda matn tuzishning qanday shakllari qabul qilingan?

- a) ilmiy-tanqidiy matn, yig`ma-qiyosiy matn, ilmiy-ommaviy matn
- b) ilmiy matn, badiiy matn, rasmiy matn
- c) monologik matn, dialogik matn
- d) og`zaki matn, yozma matn

12. Ilmiy-tanqidiy matnga qo`yiladi- gan talablar:

- a) matn tarixini o`rganish asnosida muallif matniga yaqin variantni tuzish
- b) asarning fanga ma'lum barcha nusxalarini ko`rib chiqish va saralash
- c) muallifnusxasibo`lmasa, asarningqadimiy, nuqsonlardan xoli, ishonchli nusxasi tayanch matn sifatida olinib, boshqa nusxalardan yordamchi nusxa sifatida foydalanish
- d) barcha javob to`g`ri

13. Adabiyotshunos R. Zohidov So`fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari ilmiy – tanqidiy matnini tuzishda nechta nusxaning umumiy va farqli jihatlarini matnshunoslik nuqtayi nazaridan izchil tekshirgan va 25 nusxani qiyosiy tahlil obyekti sifatida olgan?

- a) 150 dan ortiq
- b) 100 dan ortiq
- c) 50 dan ortiq
- d) 25 dan ortiq

14. Kim 1948-yilda “Mahbub ul-qulub”ning yig`ma-qiyosiy matnini tayyorlagan?

- a) Hamid Sulaymon
- b) A.N.Kononov
- c) Porso Shamsiyev
- d) Suyima G`aniyeva

15. Qanday matnlar asarning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash uchun ilmiy zamin yaratadi, lekin ilmiy-tanqidiy matn tuzilgandan so`ng o`z ahamiyatini yo`qotadi?

- a) badiiy matnlar
- b) ilmiy-tanqidiy matnlar

- c) yig'ma-qiyosiy matnlar
- d) ilmiy-ommaviy matnlar

16. Matnning qaysi turi yagona, yangi topilgan asarni e'lon qilish yoki ilmiy-tanqidiy matn asosida matnning keng o'quvchilar davrsasi talablarini nazarda tutuvchi akademik nashrni tayyorlash uchun tuziladi?

- a) badiiy matn
- b) ilmiy-tanqidiy matn
- c) yig`ma-qiyosiy matn
- d) ilmiy-ommaviy matn

17da maxsus debocha bo`ladi. Lirik turga mansub asarlar muayyan tartibda joylashtiriladi, har bir janrga mansub asarlar radifi tugagan harfga binoan qat'iy alifbo tartibida tiziladi, har bir harf turkumi hamd, na't, Munojot bilan boshlanadi.

- a) bayoz
- b) kulliyot
- c) yig`ma devon
- d) mukammal devon

18.... she'rlar to`plami bo`lib, bir necha shoirlarning asarlarini o`z ichiga oladi. Unda devondagi kabi qat'iy tartibga amal qilinmaydi.

- a) bayoz
- b) kulliyot
- c) yig`ma devon
- d) mukammal devon

19. Qaysi qo'lyozma manba quyi -dagicha tuzilishga ega bo'ladi: 1)sarbayoz (muqaddima); 2)lirik she'rlardan namunalar; 3)xotima-kolofon; 4)fixrist (she'rlari keltirilgan shoirlarning nomi).

- a) devon
- b) kulliyot
- c) bayoz
- d) manzuma

20. Mumtoz adabiyotda turli she'r, maqol, rivoyat va naqllardan tuzilgan majmua qanday atalgan?

- a) bayoz
- b) manzuma
- c) kulliyot
- d) kashkul

21. Tarixchining o'zidan oldin yozilgan asarlardan olamning yaratilishi, Odam Ato va payg`ambarlar tarixi, muqaddaslash- tirilgan podshohlar tarixini to`g`ridan to`g`ri ko`chirib olishi fanda nima deyiladi?

- a) kompilyatsiya
- b) ko`chirmachilik
- c) germenevtika
- d) ekzegetika

22. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog`ozga ko`chirgan. Bu qog`ozdagi matn toshqolip sirtiga o`tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So`ngra shu toshqolipdan nuxalar olingan. Bu kitob bosishning qaysi usuli hisoblanadi?

- a) litografik usul
- b) tipografik usul
- c) lito-tipografik usul
- d) mixbosma usul

23. Kitob bosishning bu usulida mix shaklidagi metall harflarni qo`lda terish orqali kitob bosilgan. Arab yozuvining nasx yozuvidan foydalanilgan. Usulning nomini belgilang.

- a) litografik usul
- b) tipografik usul
- c) lito-tipografik usul
- d) ofset usul

24. O'rta Osiyoda toshbosma usulidagi dastlabki matbaa qayerda tashkil etilgan?

- a) Qo`qonda, Xudoyorxon saroyida
- b) Xivada, Muhammad Rahimxon II saroyida
- c) Toshkentda, harbiy garnizonda

d) Buxoroda, amir saroyida

25.Toshkentdagi birinchi xususiy matbaa kim tomonidan tashkil etilgan?

a) V.M. Ilyin

b) O.A. Portsev

c) S.I. Laxtin

d) G`ulom Hasan Orifjonov

26.Birinchi o`zbek matbaachisi kim?

a) G`ulom Hasan Orifjonov

b) Avloniy

c) Hamza

d) So`fizoda

27. 1) Transliteratsiya nashrlar; 2) tarjima nashrlar;

3) tabdit nashrlar; 4) nasriy bayonlar qanday ehtiyojga ko`ra nashrga tayyorlanadi?

a) ma'naviy ehtiyoj

b) ilmiy ehtiyoj

c) ta'limiyl ehtiyoj

d) ommaviy ehtiyoj

28. Ilmiy-tanqidiy nashr, yig`ma-qiyosiy nashr, faksimile-nusxa nashri, akademik nashr, diplomatik nashrlar qanday ehtiyojga ko`ra amalga oshiriladi ?

a) Ma'naviy ehtiyoj

b) Ilmiy ehtiyoj

c) Ta'limiyl ehtiyoj

d) Ommaviy ehtiyoj.

29. Maktab, litsey, oliv ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan xrestomatiyalar nashrning qaysi turiga kiradi?

a) Ma'naviy ehtiyoj nashri

b) Ilmiy ehtiyoj nashri

c) Ta'limiyl ehtiyoj nashri

d) Ommaviy ehtiyoj nashri

30. Navoiy “Ilk devon”ining 1465-1466-yili mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko`chirilgan qo`lyozmasining faksimilini kim 1968-yilda nashr ettirdi?

- a) H. Sulaymon
- b) P. Shamsiyev
- c) A. Qayumov
- d) S. Ayniy

31. Navoiyning Oqqiyunli davlatida yashagan muxlislari tomonidan tayyorlangan devoni kim tomonidan topilib, nashr etilgan?

- a) P. Shamsiyev
- b) A. Erkinov
- c) N. Rahmonov
- d) N. Jumaxo`jayev

32. har bir qo`lyozma manbaning asosiy belgilari, xususiyatlari va tarkibi haqidagi muayyan tartibga solingen ma'lumotlar majmuidir.

- a) kolofon
- b) faksimile
- c) fixrist
- d) interpolyatsiya

33. Konyektura – bu...

- a) matniy tafovutlar joy olgan sahifaosti izohlari
- b) hoshiya yozuvlari
- c) muayyan asar matni haqidagi barcha ma'lumotlar yig`indisi
- d) matnshunosning o`qilishi qiyin, buzilgan joylarni asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib, o`z muloha-zalarigagina asoslanib tuzatishidir.

34. Rus matnshunosligida omma- lashtirish ishidagi qaysi materiallarni D.S. Lixachev obrazli qilib, “konvoy” deb atagan?

- a) izohlarni
- b) lug`at qismini
- c) arxeografik kirishni
- d) asosiy matnga ilova etilgan arxeo- grafik kirish, matn tanqidi, izoh va ko`satkichlar kabi qo`shimcha-tanitma materiallarni

35. Satrlar soni va qatorlar uzunligi, varaqning boshqa o`lchamlarini aniqlash metodikasi XX asr boshlarida kim tomonidan ishlab chiqilgan?

- a) A. Klark
- b) D.S. Lixachev

- c) Kononov d) Bertels

36. Atributsiya - bu.....

- a) matn muallifini aniqlashdir

b) muayyan asarning muallifi noto`g`ri ko`rsatilgan taqdirda, uni noo`rin mualliflikdan himoya qilishdir.

c) matndagi xato yozilgan o`rinlar yoki o`qib bo`lmas so`z va jumlalarni tiklash

d) qo`lyozma nusxalarning hoshiya- larida uchraydigan izohlar, to`ldirishlar, boshqa manbalarga havolalar, Qur'oni karim oyatlari yoki hadislardan keltirilgan misollardir.

37. Qo`lyozmadan nusxa ko`chirish jarayonlarida ayrim xattotlar hoshiyadagi bitiklarni asosiy matnga qo'shib yuborgan holatlar ham uchraydi. Bunday o`zboshimcha tahrirdeyiladi.

- a) gloss b) interpolyatsiya

- c) atributsiya d) ateteza

38. Matn muallifi aniq bo`lмаган holatlarda matnning yaratilish joyiga qarab muayyan xulosalarga kelish mumkin. Matnning yaratilish joyini aniqlashda matnshunos qanday ko`rsatkichlardan foydalanadi?

a) voqealari bayoni, hoshiyalar va ochiq sahifalardagi qaydlar, muhrlar

- b) sheva elementlari, fonetik, leksik, morfologik shakllar

- c) muayyan hududga xos urf-odat, marosimlar

- d) Barchasi to`g`ri

39. Samarqand va Buxoroning sifatli qog`ozlari qaysi xomashyodan tayyorlangan?

- a) ipakdan

- b) kanopdan

- c) ipak va kanopdan

- d) daraxt po`slog`idan

40. Turonzamindagi xattotlar arab yozuvining qaysi turlarini bilishi shart bo`lgan?

- a) Nasx, rayxoniy

- b) Nasta'liq, riqo'

- c) Suls, shikasta

d) Nasx, nasta'liq va suls

41. Badiiy adabiyot va tarixiy asarlar qaysi xat turida ko`chirilgan?

- a) Nasta'liq b) Suls
- c) Riqo' d) Rayxoniy

42. Qur'on oyatlari, hadislar, hadislardan parchalar qaysi xat turida ko`chirilgan?

- a) Suls b) Nasx
- c) Nasta'liq d) Riqo'

43. Miraki Naqqosh, Qosim Ali, Sulton Muhammad, Do`sst Muhammad, Abdul Razzoq, Kamoliddin Behzod kabi atoqli san'atkorlar miniatura san'atining qaysi maktabida ijod qilishgan?

- a) Samarqand maktabi
- b) Hirot maktabi
- c) Eron maktabi
- d) Hindiston maktabi

44. Kamoliddim Behzod quyidagi qaysi badiiy asarga surat chizmagan?

- a) Navoiyning "Xamsa" siga
- b) Nizomiyning "Iskandarnoma" siga
- c) Sa'diyning "Bo`ston" iga
- d) "Boburnoma"ga

45. Muqova asosiga karton ishlatish qaysi asrda yo`lga qo`yilgan?

- a) XIV asr oxirlarida b) XIX asrda
- c) XX asr boshida d) X asrlarda

46. Lavh nima?

- a) ilk sahifaning yuqori qismiga joylashtiriladigan naqsh
- b) matn boshlangan sahifaning bosh qismiga chiziladigan naqsh
- c) ichiga kotib nomi va muhri, qo`lyozmaning ko`chirilish va tugatilish sanasi, kotibning qo`lyozma so`ngida keltiradigan mulohazalari yoziladigan uchburchak shakl

d) o`zidan keyingi sahifaning shu so`z bilan boshlanishini bildirib keluvchi so`z bo`lib, sahifalar ketma-ketligini belgilash

uchun bet raqamlari o`rniga ishlataladi .

47. Kolofon nima?

- a) ilk sahifaning yuqori qismiga joylashtiriladigan naqsh
- b) matn boshlangan sahifaning bosh qismiga chiziladigan naqsh
- c) ichiga kotib nomi va muhri, qo`lyozmaning ko`chirilish va tugatilish sanasi, kotibning qo`lyozma so`ngida keltiradigan mulohazalari yoziladigan uchburchak shakl
- d) o`zidan keyingi sahifaning shu so`z bilan boshlanishini bildirib keluvchi so`z bo`lib, sahifalar ketma-ketligini belgilash uchun bet raqamlari o`rniga ishlataladi

48. Poygir – bu.....

- a) ilk sahifaning yuqori qismiga joylashtiriladigan naqsh
- b) matn boshlangan sahifaning bo`s qismiga chiziladigan naqsh
- c) ichiga kotib nomi va muhri, qo`lyozmaning ko`chirilish va tugatilish sanasi, kotibning qo`lyozma so`ngida keltiradigan mulohazalari yoziladigan uchburchak shakl
- d) o`zidan keyingi sahifaning shu so`z bilan boshlanishini bildirib keluvchi so`z bo`lib, sahifalar ketma-ketligini belgilash uchun bet raqamlari o`rniga ishlataladi

49. She'riyatda arab alifbosining har bir harfi shaklidan inson qiyofasi, xulq-atvorini tasvirlash san'ati qanday atalgan?

- a) Kitobat san'ati
- b) Hurufi dalolat
- c) Muammo
- d) Istiora

50. Alisher Navoiyning qaysi asarida muammo yechishning 15 qoidasi va 48 xil usuli misollar bilan ko`rsatib berilgan?

- a) "Arba'in" b) "Mufradot"
- c) "Munojot" d) "Badoye ul-bidoya"

51. 1425 - 1426 yillar kimning sa'y-harakati va so`zboshisi bilan «Shohnoma»ning 40ga yaqin qo`lyoz- ma nusxalari muqoyosa qilingan mukammal nusxasi (hозирги

mezon bilan aytganda ilmiy- tanqidiy matni) yuzaga keldi?

- a) Boysung`ur Mirzo
- b) Shohruh Mirzo
- c) Ulug`bek
- d) Alisher Navoiy

52. Boysung`ur Mirzo zamonidagi xattotlar «Guliston» ni bir qancha nusxada Sa'diy zamonidagi qaysi mashhur xattot nomi bilan ko`chirganlar?

- a) Sulton Ali Mashhadiy
- b) Yoqut Mustasmiy
- c) Hoji Maqsud
- d) Mavlono Ma'ruf

53. Temuriylar davrida qaysi xattot nasta'liq xatining ixtirochisi (voze'), «Qiblat ul-kuttob» (kotiblar peshvosi) degan laqab bilan shuhrat qozondi?

- a) Sulton Ali Mashhadiy
- b) Boysung`ur Mirzo
- c) Mir Ali Tabriziy
- d) Mir Abdullo

54. Alisher Navoiy “Xamsa” ustida ishlaganda uning yozib tugatilgan qismini qaysi mashhur xattot peshma-pesh oqqa ko`chirgandi?

- a) Sulton Ali Mashhadiy
- b) Mir Ali Tabriziy
- c) Mirzo Ibrohim
- d) Abdujamil kotib

55. Mashhur tarixchi Mirxon Mirxonning Turon va Xuroson tarixiga oid yetti jildlik “Ravzat us-safo” asarini kimning maslahatiga ko`ra va u ma'qullagan reja asosida yaratgan?

- a) Jomiy
- b) Alisher Navoiy
- c) Ulug`bek
- d) Boysung`ur Mirzo

56. Qaysi mashhur xattot Husayn Boyqaro uchun kuniga o'ttiz baytdan, Navoiy uchun yigirma baytdan matn ko'chirib berar edi?

- a) Sulton Ali Mashhadiy
- b) Mir Ali Tabriziy
- c) Mirzo Ibrohim
- d) Abdujamil kotib

57. Tehronda 1829-yilda vahshiy- larcha o'ldirilgan muxtor vakil, ya'ni rus elchisi Aleksandr Sergeyevich Griboyedov xuni uchun to'langan tovon jumlasiga kirgan kitoblar orasida Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan oliy daraja- da bezakli qaysi she'rlar to'plami ham bor edi?

- a) Navoiyning "Xamsa"si
- b) Navoiyning "Devon" ("Ilk devon") i
- c) Husayn Boyqaroning "Devon" i
- d) Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafar- nomas"si

58. Navoiy qaysi ilmiy asarida kitobat qilingan o'z asarlarining qisqacha ro'yxati - bibliografiyasini ham keltirgan?

- a) "Mufradot"
- b) "Mezon ul-avzon"
- c) "Majolis un-nafois"
- d) "Muhokamat ul-lug'atayn"

59. Qaysi lig`at Navoiy asarlari tiliga bag`ishlanmagan?

- a) Toli Imoniyning «Badai al-lug'at»i
- b) Mirza Mehdixonning «Sangloh»i
- c) "Sab'ati abhur"
- d) muallifi hozircha aniqlanmagan «Abushqa»

60. Alisher Navoiy asarlarining keng kitobxonlarga mo'ljallab chop etilgan 15 jiddlik nashriga tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari tilining lug'ati» kim(lar) tomonidan yaratilgan?

- a) S. Ibrohimov va P. Shamsiyev
- b) E.I. Fozilov
- c) Sh. Rahmatullayev

d) A. Hojiyev

61. 1982- yili 4 jildik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati» yaratildi va 1983-1985 yillarda «Fan» nashriyotida chop etildi. Bu lug`at kimning rahbarligida va bevosita ishtirokida tuzilgan?

a) P. Shamsiyev

b) E. Fozilov

c) Sh. Rahmatullayev

d) A. Hojiyev

62. Shermuhammad Munisning xattotlik san'atining nazariy – ilmiy qoidalariga bag`ishlangan maxsus risolasi qanday ataladi?

a) "Savodi ta'lif"

b) "Muxtasar"

c) "Birinchi muallim"

d) "Alifbo"

63. Qaysi olim S. Mirzayev bilan birqalikda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini arab alifbosidan kirill alifbosiga tabdil qilgan va to`liq nashrini amalga oshirgan?

a) Hamid Sulaymon

b) Suyima G`aniyeva

c) Porso Shamsiyev

d) N. Rahmonov

64. Abdurahmon Jomiyning Navoiy, Navoiyning esa Jomiy haqida yozganlarini yig`ib, alohida so`z boshi bilan "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" nomli to`plamni e`lon qilgan matnshunos olim kim?

a) Hamid Sulaymon

b) Suyima G`aniyeva

c) N. Rahmonov

d) Porso Shamsiyev

65. Porso Shamsiyev tarjimon sifatida Navoiyning birinchi biografi Xondamirning qaysi asarini fors tilidan o`zbekchaga tarjima qilib, keng jamoatchilikka taqdim etgan?

- a) "Makorim ul-axloq"
- b) "Nomayi G'iyosiddin"
- c) "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor" ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi")
- d) "Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar" ("Inson zoti xabarları va do'stning tarjimayı holi")

66. Matnshunos Porso Shamsiyev prof. A. Hayitmetov bilan hamkor-likda qaysi shoirning ijodidan ba'zi namunalarni to`plab chop ettirgan?

- a) G`afur G`ulom
- b) Mashrab
- c) Jomiy
- d) Ahmad Yassaviy

67. Alisher Navoiyning qaysi asarida Eron va Turon multkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniyalar, soso niylar tarixi batafsil hikoya qilinadi?

- a) "Tarixi muluki Ajam"
- b) "Tarixi anbiyo va hukamo"
- c) "Saddi Iskandariy"
- d) "Jome ut-tavorix"

68. O'zbek matnshunosligi tarixiy taraqqiyotining ilk bosqichi qaysi davrni o`z ichiga oladi?

- a) Temuriylar davri
- b) Qoraxoniylar davri
- c) VI-VIII asrlar
- d) XVI-XIX asrlar


69. Qadimgi turkiy yozuvlardan biri – Sig`noq xati haqidagi nodir ma'lumotlar qaysi asarda berilgan?

- a) "Boburnoma"
- b) Bobur Mirzo g`azalida
- c) "Abushqa" lug`atida
- d) Bobur Mirzo g`azali va "Abushqa" lug`atida

70. “Toshga bitilgan kitoblar” (1983), “Inson ruhining sadosi” (1986), “Bitiglar olamida” (1990), “Turk xoqonligi” (1993), “O’zbekistonning ko’hna turkiy-run yozuvlari” kabi qo’llanma va monografiyalarning muallifi kim?

- a) P. Shamsiyev
- b) Nasimxon Rahmonov
- c) Qosimjon Sodiqov
- d) Alibek Rustamov

ILOVALAR




1-ilova. Charm va kartondan yasalgan muqovalar




2-ilova. a) lavh; b) kolofon (toshbosma usulda chop etilgan).



3-ilova. Lavvoh va musavvirning ishlari bilan bezatilgan matnlar.



4-ilova. Jadvalga olingan va olinmagan bezaksiz matn ko'rinishlari.



5-ilova. 1. Nazm va nasrda bitilgan matn (toshbosma usulda chop etilgan). 2. Hujjat matni va muhrlar.

QAYDLAR UCHUN

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Manba va matn. Matn tarixi. Matn talqini tadqiqi.....	5
Matn tuzish.....	11
Toshbosma nashrlar.....	21
Nashr turlari. Faksimil nashrlar	26
Manba va matnlarni klassifikatsiya qilish.....	36
Matnshunoslikning tadqiq usullari. Hijriy yilni milodiyga tabdil qilishning oddiy formulalari.....	44
Qo`lyozma kitoblarning ichki tuzilishi va bezaklari.....	51
Harfiy san`atlar. Abjad. Tarix. Muammo. Hurufi dalolat.	
Muhrlar.....	62
Temuriylar davri matnshunosligi. Alisher Navoiy davridagi kitobat san`ati va xattotlik. Navoiy asarlariga bag`ishlangan lug`atlar.....	71
XVI-XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan davrda matnshunoslikning rivoji.....	84
Porso Shamsiyev – adabiy manbashunos va matnshunos.	90
Tarixiy asarlarning tuzilishi va o`ziga xosligi.....	97
Zamonaviy o`zbek matnshunosligi tendensiyalari.....	104
Glossariy.....	113
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	118
Test topshiriqlari.....	120

NAFISA RAXMANOVA, AROFATOY MUYDINOVA

MATNSHUNOSLIK

(O‘quv qo‘llanma)

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 16.10.2023 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи. “Cambria”
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘и. 8,75.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 13.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha